

XALQ DOSTONLARI

"RAVSHAN" (7-sinf)

"KUNTUG'MISH" (8-sinf)

"ALPOMISH" (9-sinf)

"RUSTAMXON" (kollej)

"Ravshan"

Burungi o'tgan zamonda, eli-yurti omonda, Buxorodan tumanda, Taka-Yovmit deganda, Yovmit elida, Chambilning belida Go'ro'g'libek davrini surib, dushmanni dodini berib o'tdi. Qirq yigitni yig'dirib, silovsin to'n kiydirib, kuniga kechkisin sergo'sht qilib, sermoy palovga to'ydirib, semiz qo'ydan so'ydirib, ko'pkarisin choptirib, olomonga ola sarpo yoptirib, el-u xalqning ko'nglini toptirib, Yunus bilan Misqol parini Ko'hi Qofdan, Eram bog'idan keltirib, umr o'tkazar edi. Go'ro'g'libekning farzandi bo'lmadi. Hasanxonni Vayangandan, Avazxonni Xunxordan olib kelib, ikkovini ulim deb, iskasam gulim deb, jon-u dilim deb, tobutimning chegasi, el-u yurtimning egasi, o'lsam, merosxo'rim deb, ikkovi bilan ko'nglini xush qilib, shularga bino qo'yib, "bolam-bo'tam" deb parvarish qilar edi. Avazxonni Og'a Yunus pan "o'g'lim" deb yoqasidan solib, etagidan olib edi, Hasanxonni Misqol pari yoqasidan solib, etagidan olib edi. Parilar ikkoviga bino qo'yib, bolam deb suyib, har qaysisi o'z uylarida parvarish aylab tarbiyat qilar edi. Ikkovini katta qildi. Avazxon bilan Hasanxon ham sher haybatli, yo'lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo'ldi. Go'ro'g'libekning ham o'g'illaridan ko'ngli to'ldi. Hasanxon Arzrumdan xon Dallini olib qochib, qirq kun shohona to'ylar berib, o'z rasm-rusumlari bilan oldi. Avazxonga Gulqiz degan bir barno suluvni olib berib, uyini tushirib berib, davrini surib yuraverdi. Hasanxonga xon Dallidan bir o'g'il paydo bo'ldi. Go'ro'g'libek to'ylar qilib, otini Ravshanbek qo'ydi. Avazxon bir-ikki yildan so'ng qizli bo'ldi. Go'ro'g'libek quvonib, suyunib, munga ham to'ylar qilib, otini Gulanor qo'ydi. Enagalar parvarish qilib boqib, bachalarni tarbiya qilib katta qildi. Bachalar birdan ikkiga kirdi, ota-ena deguday bo'ldi, osh-u non bersa, yeguday bo'ldi, u yoq-bu yoqqa borib keguday bo'ldi. Ikkidan uchga, to'rtga kirdi, ikkovini bir mak-tabga berdi. Ikkovi ham o'qib mulla bo'ldi. Kunlardan bir kun Go'ro'g'libek parilar bilan o'tirib edi. Ravshanbek ayni o'n besh-o'n olti yoshida, zarli qalpoq boshida, yuzi yarqirab, eshikdan salom berib bordi. Go'ro'g'libek Ravshanbekni ko'rib, dimog'i chog' bo'lib, parilarga qarab aytdi: "Ho' parilar, mening ko'nglimga bir gap keldi, sizlarga aytayin, sizlar nima deysizlar. Mening o'zimga shu ishim juda xush keldi, sizlarga ham xush kelar. Men Avazxon bilan Hasanxonni quda qilayin, Gulanorjonni Ravshanjonga fотиha qilayin, o'zim sovchi bo'layin, bugun borayin". Unda parilar: "Juda yaxshi bo'ladi. Bizlarga ham bu so'zingiz yoqdi, yaxshi aytdingiz bu gapdi", - deyishib, quvonishib qoldi. Gulanor ko'p suluv: yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, uzun bo'yli, keng ko'krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm qiz edi. Ravshanbek uning bilan maktabda birga o'qiganda, ko'zining ostiga bosib qo'yar edi. Go'ro'g'libekning bu so'zi Ravshanbekka ham yoqib qoldi. Ichida: "Qizini bersa yaxshi, bu qizini bermas, bobomning so'zini sindirar", - deb qo'ydi. Go'ro'g'libek parilar bilan maslahat qilib, Avazxon o'g'lining qoshiga sovchi bo'lib boraverdi. Shunda Ravshanbek qoralab, bobosining orqasidan boraverdi.

...Go'ro'g'libek bol Avazga qarab, murtini burab, bir so'z aytayotir:

...Otang keldi sening so'zing olmoqqa,

Ko'nglidagi sirni bayon qilmoqqa.

Shul sababli mehmon keldim uyingga:

Hasanman o'zingni quda qilmoqqa.

Yetti yoshda olib keldim o'zingni,

Qo'limda ko'p yeding osh-u tuzimni,

Otang keldi, bolam, o'zingga sovchi,

Ravshanga ber Gulanorday qizingni!

Otangning, farzandim, tilin olinglar,

Hasanman o'zingni quda qilayin,

Ravshanga ber Gulanorday qizingni,

Yovmitning eliga to'ylar berayin!

Unda Avazxonning achchig'i keldi. Polvonning qahri kelib, ajdarday to'lg'onib, ko'zlari olovday yonib,

Go'ro'g'libek otasiga qarab... bir so'z aytayotir:

Yigitlar ichida menman o'dag'a,

Bedovga yarashar oltindan to'g'a,

Ravshanga bermayman Gulanorjonni,

Qizim tugul, kuchugimdan sadag'a.

Ota, javobingni berdim, jo'nagin!

Mundan keyin sovchi bo`lib kemagin!
Har kimni tengiga qo`shda, vallamat,
Menga munday tuzsiz so`zni demagin!
Eshitib ol, ota, aytgan so`zimni,
O`zim o`lmay, g`anim bosmas izimni,
Bermayman Ravshanga Gulanor qizimni!
Men Hasanga teng qilmayman o`zimni!

...Ravshanbek darchaning orqasida turib edi. Bu so`zlarni eshitib, bir umrda sovuq shamol yemagan bola emasmi, sovuq so`z tugul, bolaning o`mganidan bir jazoyil teshib o`tgandan yomon bo`ldi. Ravshanxon tovushining boricha "vo" deb baqirib, yig`lab qaytaverdi. Bola shu yig`lagancha ko`chaning yuzi bilan yig`lab bora-yotir edi. Ravshanbekning yig`lagan tovushi Og`a Yunus parining qulog`iga yetdi. Pari aytdi: "Qanday bola ekan ko`chada yig`lagan?" Shunda qarasa, o`zining ko`rar ko`zi, so`zlar so`zi, o`z joniga teng ko`rib yurgan Ravshanbek bolasi yig`lab kela-yotir. Yugurib borib, qo`ltig`iga qisib, ko`zining yoshini betidan artib: "Bek Ravshan bolam, nega yig`laysan?" - deb so`rab turdi. Shunda Ravshanbek dim o`pkasini bosolmaydi. - Ha, bachchag`ar Avaz, deb aslo turolmaydi. Og`a Yunus pari: "Ey bolam, Avazni nega urishasan. Menga aytgin, anglab, bilib olayin", - desa, bola har o`ksiydi, gapiro olmaydi. - E ena! Avazing: "Qizimni bermayman, mening tengim emas", - deb bizni quzg`un, o`zini lochin tutdi. Bachchag`ar Avaz bizdan ortiq bo`lib ketibdi. Shu Avazdan kam bo`lsam, chollarga boshimni olib ketaman. Qo`yaver, ena, qo`yaver, endi Chambilda turmayman, shu Chambilni Avazga berdim, - deb bola dim o`pkasini bosolmaydi. Shunda Yunus pari kulib, Ravshanbekning so`zlariga hayron bo`lib: - E bolam, Ravshanjon, muddaong Avazning qizi - Gulanor bo`lsa, aslo g`am yema! "Qizi borning nozi bor" degan, shunday-shunday deydi. Unga sen xafa bo`lma! Mana men, men borayin otangning orqasidan; uning qizda nimasi bor ekan? Tortib olib bersam ham Gulanorni senga olib beraman... Qani, men borayin, "bermayman", degan Avazni ko`rayin, shu Avazmi qizini bermaydigan, - deb Og`a Yunus pari bormoqchi bo`laverdi. Shunday qarasa, Ravshanbek juda otashin. Shunda pari ko`nglida: "Bu bola achchig`i bilan bir yoqqa ketib qolmasin", deb xosiyatli uzugini ovunib o`tirsini deb, qo`lidan olib, Ravshanbekka berdi. - E Ravshanbek, shu uzukka qarab o`tir, men borib, Avazning qizi - Gulanorjonni senga fotiha qilib, to`y taraddudini qilib darrov kelaman, - deb pari ham turib ketdi. Endi Ravshanbek ko`zining yoshini artib, shunday nizinga qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jami parini bandiga olgan bandi bor, olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor; har yerda suluv barno qiz bo`lsa, oti bor; ba'zi-ba'zi juda nozik, uzik suluvning ham oti bor, ham surati bor, shu uzukning bir chetida Qoraxon podshoning qizi - Zulxumor degan bir qizning oti bor ham surati bor. Ana endi bola buni ko`rib, Zulxumorga g`oyibona ko`ngil qo`yib, ishqivoz bo`lib, o`ziga-o`zi aytdi: "Kel-e, Avazning qizi bo`lmasa, Qoraxonning qizida! Avaz qizini bermadi deb, mening yig`lab yurganim qanday", - deb g`ayrati kelib, otasining Jiyronqush degan oti bor edi, urushga minadigan, shu Jiyronqushning oldiga keldi. Jiyronqush ham shunday ot: to`rt oyog`i teng tushgan: biqini yoziq keng tushgan, qarchig`ayning havosi tekkan. Shu otni yetaklab olib chiqib, yakkamixga boylab, otni egarlab... turipti:

...Bekning oti po`lat suvluq chaynadi,
Qizil kiyib, gulday bo`lib jaynadi.
Ilon tilli, yashin turli xanjarni
Obro` ber deb, xipcha belga boyladi.
Tomosha qing xon Ravshanday polvonni,
Shirvonning yurtiga talab ayladi.
Ravshan mindi Jiyronqushning beliga,
Haybat qilib yigit sog`-u so`liga6,
Otasi Takali Yovmit yurtidan,
Talab qildi, ko`ring, Shirvon eliga.
Tomosha qing Chambilning shunqorini,
Mindi yigit Jiyronqushday otini,
Yig`latib otasi - Hasan mardini,
Qon yig`latib xon Dalliday suluvni,
Ravshan izlar bo`ldi Shirvon yurtini.

Ravshanbek otini hovlidan chiqarib, ota-enasidan g`oyibona rozi bo`lib, ko`chaning yuzi bilan, odamlarning izi bilan gulday jaynab, suqsurday bo`ylab, parvoz aylab, taraqqos boylab, ostida Jiyronqush oti har

usulda o`ynab... borayotir. Hasanxon darvozabon bilan do`st edi, doim darvoza-bonning oldida o`tirar edi, ikkovi... birov-birovining so`zini tashlamas edi. Hasanxon jo`rasi bilan gaplashib o`tirsa, Ravshanxon otasining ustiga borib qoldi...Unda Hasanxon polvon yolg`iz bolasi, ko`zining oqi bilan qorasi - Ravshanxonni tanib, ...Jiyrongushning jilovidan ushlab, ko`zini yoshlab, "...hay, attang",- deb barmog`ini tishlab, yolg`iz farzandiga qarab bir so`z dedi:

...To`rasan, Ravshanjon, Chambil elingga,
Keskir isfihonni boylab belingga,
Qo`sh po`pakli nayza ushlab qo`lingga,
Otang qurbon bo`lsin shirin tilingga,
Yovga ajdahorim, senga yo`l bo`lsin?
Sen bo`lmasang, otang holi ne kechar?
Sensiz menga falak kafanto`n bichar,
Dunyoning bolini zahar deb ichar,
Qanday kuni kechar sho`r enang nochor,
Harna yo`g`-u borim, senga yo`l bo`lsin?
Menga aytgin ko`nglingdagi o`yingni,
Aytgin, bolam, boradigan joyingni,
Men bilayin talab qilgan elingni,
Ayt siringni, qaytarmayman ra'yingni,
E, yolg`iz shunqorim, senga yo`l bo`lsin?

Ravshanxonni otasining savlati bosib, hayosi g`olib kelib, nima derini bilmay o`ylanib turib edi, axiri bo`lmadi. Otasiga gapirmay o`tsa, u ham bo`lmaydi, gapiray desa, uyaladi. Ana endi Ravshan polvon otasining so`zlariga javob berib, ko`ngli buzilib, yurak-bag`ri ezilib, ko`zining yoshi tizilib, boshidan o`tgan sir-savdosini otasiga aytib, o`zidan o`tganidan xabardor qilib, bir so`z aytayotir:

Jonim ota, aytolmayman uyalib,
Bolang ketar endi boshini olib.
Jon ota, alamim ko`pdir so`rmagin,
Bek Ravshan jo`nadi safarga tolib.
Qaladan qalampir yuklar qalachi,
Har xil isli bo`lar tog`ning og`ochi.
Otajon, alamim ko`pdir, so`rmagin,
Vallamat boripti Avazga sovchi.
Qabul qilmay vallamatning so`zini,
Nomard Avaz bermas bo`pti qizini,
O`tib ketdi Avazxonning so`zlari,
Bizni quzg`un, lochin qipti o`zini.
Maydon-maydon Jiyrnimni yelmasam,
Dushman bo`lsa, bo`lak-bo`lak qilmasam,
Avazning qizidan yaxshini olmasam,
Jonim otam, Chambilbelda turmasman.
Chambil deydi unib-o`sgan elingni,
Javob ber, otajon, ko`tar qo`lingni!
Talab qildim, Shirvon elga, otajon!
Javob bersang, bermasang ham ketaman!
Javob ber, otajon, yorga boraman,
Yor deymanku, nomus-orga boraman.
Ota, sendan oq fotiha tilayman,
Shirvon elda Zutxumorga boraman.

Hasanxon bu so`zlarni eshitib, ..."Hay, attang", - deb barmog`ini tishlab, ko`zini yoshlab, o`g`liga ne derini bilmay qoldi. Shirvonning eli uch oylik yo`l. Ikki ora suvsiz cho`l, u yog`i dushman el. "Yolg`iz bola yovdan yomon", uzoqroq bozorga yuborgisi kelmaydi. ...Hasanxon bechora o`g`lining jamoliga, novdaday o`sgan kamoliga ko`zi to`ymay, ...ichi g`amga to`lib, rangi gulday so`lib, yolg`iz bolasidan ayrilib qololmay, oh tortib: E

Ravshanjon! Axir mening uyimni motamxona qilib, meni tashlab ketar ekansanda, - deb turib, asli mard emasmi, "Kel tavakkalda",- deb ...o`zi dildorlik berib ...o`g`liga qarab bir necha yerdan timsol keltirib, nasihat qilib bir so`z aytayotir:

Paydo bo`lding ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchding manzil-xonadan.
Avval aytgan nasihatim, Ravshanjon,
Kechsang yomon bo`lar ota-onadan!
Eshitib ol, otang sho`rning arzini,
Elida sarg`aytding gulday tarzini.
Bir qiz uchun unutmagin bizlarni,
Unutma otang ham onang qarzini!
O`zingdan pastlarman har yo`lga ketma!
Bolam, aytgan nasihatim unutma!
Oldingdan kim chiqsa, besalom o`tma!
Bir g`aribni ko`rsang, zinhor og`ritma!
Qo`lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!
Nasihatim yod qilib ol, yolg`izim,
Yolg`iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

Hasanxon polvon mard emasmi, bolasiga qarab, oq foti-hani betiga tortib: - Bor, bolam, manglayingni xudo och-sin! - deb qolaverdi. Ravshanbek otasidan duo olib, otining boshini solib, yo`lga ravona bo`lib ketaverdi. Ravshan... tog`- u toshlar, cho`l-u biyobonlarni bosib o`tib, Shirvonga keladi. Bu yerda bir kampirga o`g`il bo`lib yurib, kunlarning birida shaharni aylanar ekan, bozorning ustidan chiqib qoladi. Zulxumorning qalpoq tikib, har bozor kuni yigitlarga sotishni rasm qilgani, bozordagi ko`shkning ustida yuzini ochib o`tirishi, yigitlar ko`rmanasiga bir lagan tilla hadya qilib, uni tomosha qilishlarini bilib oladi....Ravshanbek bozorning ustidan kelib qolib, "Yorim Zulxumorjonni ko`raman", - deb, dimog`i chog` bo`lib, vaqti xush bo`lib, bozordagi odamlarga qarab, bir so`z aytib turibdi:

Uzoqdan kelayotibman,
G`amning loyiga botibman,
E yoronlar, birodarlar, birodarlar!
Men yorimni yo`qotibman.
E yoronlar, birodarlar, xaloyiq!
Men yorimdan adashibman...
Elda davron surgan bormi?
O`z davriman yurgan bormi?
Bizning yordan ko`rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?
Toblab zulfin o`rgan bormi?
Yorman suhbat qurgan bormi?
Yoki birga yurgan bormi?
Bog`idan gul tergan bormi?
Bizning yordan ko`rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?..
Yorimni ko`rsam deb keldim,
Bir dam o`ltirsam deb keldim,
La'li shakar lablaridan
So`r desa, so`rsam deb keldim.
Shunday asov toyday yorni
Qo`lga keltirsam deb keldim.
Oshiqligim shu barnoga
Endi bildirsam deb keldim.
Eldan o`zgan chin suluvni

Ishqib ildirsam deb keldim.
Aytganim ko`nmasa-chi,
Aldab ko`ndirsam deb keldim.
Buning yordan ko`rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?
...Past-pastgina past ko`chalar,
Holin bilmas bir nechalar,
Bedov mingan boyvachchalar,
Boyvachchalar, bekvachchalar,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?
Bozor kelgan bozorchilar,
Yo`lni kezgan guzarchilar
Tinmay elni kezarchilar,
Ishqib - ishqilib.
Guzarchilar - o`tkinchilar.
Jo`n savdoni buzarchilar,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?
Mardikorlik - ish bozori,
Cho`yan bozor, mis bozori,
Manov pishiq g`isht bozori,
Qassob bozor - go`sht bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?
Changib yotgan un bozori,
Qo`qib yotgan jun bozori,
Anov mursak, to`n bozori,
Pichoq bozor, qin bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?
Anovi qovun bozori,
Baqqollik, sovun bozori,
Salloh sotib kalla-pocha,
Qassobga tovun6 bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?
Chetda turgan qo`y bozori,
Yilqi bozor, toy bozori,
Qurt bilan, sarimoy bozori,
Qog`ozdagi choy bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?
Bo`z bilan alak bozori,
Attorda elak bozori,
Rang, bo`yov, lok bozori,
Paranji, jelak* bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?
Bug`doy ham arpa bozori,
Paxtali ko`rpa bozori,
Qo`y teri surpa bozori,
Echki ham uloq bozori,
Telpak ham tumoq1 bozori,
Kavob, qovurdoq bozori,
Nasya emas, naq bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Ravshanbek mast bo`lib, "qalpoq bozori qayerda", - deb baqirib borayotir edi. Shu yerda bir nashavand turib edi, kayfi uchib ketdi. Ravshanbekka qarab aytdi: "Ey o`zbek! Muncha baqirasan, kayf degan narsadan qolmadi-ku! Sen o`zing burun ham hech bozorga boribmiding, ilgari bozorni ko`ribmiding? Anov changib yotgan un bozori, narigi qo`qib yotgan jun bozori, hu anav, katta do`kon - to`n bozori, narigi turgan - pichoq bozori bilan qin bozori, undan o`tding - qalpoq bozori-da, yurti buzding-ku" deyotir. Ravshanxon bozorni oralab o`tdi, qalpoq bozoriga yetdi. Qarasa, qirq zinalik ko`shkining ustida Zulxumor oyim kanizlari bilan qalpoq sotib turibdi. Zulxumor betidan niqobini olib, ko`p kanizlar o`rtaga olib turibdi. Ravshanbek Zulxumorning jamolini, navdaraxt kamolini ko`rib, tomosha qildi. Ravshanbek qarasa, Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to`lgan oyday ikki qoshi hiloli. Ravshanbek zehni qo`yib qarasa, yasangan hurday, tishlari durday, ko`zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og`izlari o`ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig`ay uchadigan qushday, muhrlangan qog`ozday yalt-yult etib o`tiribdi. Zulxumoroyning bu yog`ida to`qson besh, bu yog`ida to`qson besh - o`n kam ikki yuz kokili bor, bir yog`ini tilla suvga botirgan, bir yog`ini kumush suvga botirgan, tong shamolida qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tingjirab, yaltirab o`tirgan. Ana Zulxumorning ko`zi jovdirab, zulfi shovdirab, zulfining shu`lasi yuziga ursa, yarq-yurq etib, betining shu`lasi zul-figa ursa, yashin tushganday bo`lib o`tiribdi. Ravshanbek qarasa, musicha, so`pito`rg`ay, g`azalay, simcha qushlar Zulxumorning jamoli jilvasiga chidamay, baland quyilib kelib, egniga, kiptiga tegib-tegib, uchib borayotipti. Ravshanbek Zulxumorni bu sha`n-u shavkatda ko`rib, yuz jon-u dil bilan ishqivoz bo`lib, yuz jon-u dil bilan xaridor bo`lib, qarab qoldi...Ravshanbek masti beixtiyor bo`lib, ikki qo`lini ko`tarib, bulg`ab, oyoqni uzangiga tirab, balandga qarab baqirib, qizlarni chaqirib bir so`z aytadi:

Kuygan alvon-alvon so`zlar,
Ayrilgan bir-birini izlar.
Ko`shkida o`tirgan qizlar,
Baring birday botamizlar,
Turinglar, Chambil ketamiz,
Juringlar, Chambil ketamiz!
Shirvon elning barnolari,
Suluvlarning podsholari,
Yigitlarning dilxolari,
Yuzlari mehr-u mohleri,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!..
Zulfin toblab o`rgan qizlar,
Elda davron surgan qizlar,
Kaptarday bo`b yurgan qizlar,
Qalpoq sotib turgan qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

...Unda hamma qizlar hayron qolib kulayotir. "Hu-hu", - deyishib qarayotir. "Nega unday qilayotir?" - deb bir-biridan so`rayotir... Ravshanbek shu yerda qip-qizil ten-takka chiqib qoldi... Bir pilla Ravshanbek hushiga kelib qarasa, qorong`i bo`lib qolibdi, bozor tarqab ketibdi, qizlar tushib ketibdi. Ravshanbekning o`zi qolibdi. Hech kim yo`q... U yoq-bu yoqqa qarab, qizlarning qayoqqa ketganini bilmay, bir dardi ming bo`lib, ichi g`amga to`lib... ne pillalarda uyga keldi...Enasi Ravshanbekning joyini solib berib, uxlagali joyiga o`tib yotdi. Bolaning uyqusi qayoqdan kelsin, bolani ilon, chayon chaqqanday Zulxumorning ishqiy kuydirib borayotipti. Uh deydi bolmaydi, uyqu kelmaydi... Bolaning ko`ziga dalaning shu`lasi baland ko`rindi. Tomga chiqib qarasa, katta yo`l bilan boyagi ko`shkda ko`ringan qizlar, qancha kanizlar kela-yotir... Bularning orqasidan boyagi ko`shkda ko`ringan xossaki kanizlar bilan Zulxumoroyim o`tib borayotipti. Ravshanbek tomdan o`zini tashlab ketdi. Kampir: "Ha, bolasi tushmagur, qaytchi-qayt!" - deb qichqira-qichqira qoldi. Ravshanbek piyoda yo`rtib, ko`chaning yuzi bitan, qizlarning izi bilan urib yugurib, qizlarni izlab keta berdi. Bir qancha yo`l yurib edi, oldidan chiqdi katta bir bog`, bir yog`i chorbog`, juda katta-kalondimog`, ko`rganlar farog`, shunday joyga borib qoldi. Qarasa, ko`p qizlar, ancha sarvi-nozlar, beaded kanizlar, hay-haylashib, o`n - bir, besh - bir, to`p-to`p bo`lib, bir xili oz, bir xili ko`p bo`lib, yuribdi sayil-bog`" qilib. Ravshanbek bildi, kechagi qizlar shu yerga kelgan ekan... Ravshanbek astagina pisib borib, gulning ichiga yashirindi... Bog`da bitta ham erkak yo`q. Qizlar

o`ynashib, qizg`aldoqday yashnashib... bir xillari bir-birlarining bo`yniga qoo`ini tashlashib yuribdi... Qizlar bir bazmlar, tapir-tupur o`yinlar qila-yotir, qizig`i keyin bo`layotir. Shu asnoda bir to`p qizlar o`ynashib-kulishib, gul terishib-talashib, Ravshanning ustiga kelib qolishadi. Begona yigit pisib yotganini ko`rgan qizlar qo`rqib ketib, qiy-chuvlashib, entikib, dod-voy solib, Zulxumorning oldiga borishadi. Gap nimadaligini bilgach, Zulxumor Oqqiz degan kanizini yigit kim, qayerlik ekani, nimaga kelganini so`rab, ko`rmanasini olib kelishga jo`natadi. Ravshan ko`rmanaga tillasi yo`qligi uchun Yunus pari bergan sehrli uzukni Zulxumorga yuboradi. Zulxumor uzukni tomosha qilar ekan, unda o`zining ismi va suratini ko`radi, uzuk sehrli va bebaholigini bilib, bunday uzuk har kimda ham bo`lavermasligini o`ylab, yigitni huzuriga olib kelishlarini buyuradi. Qizlar Ravshanni izzat-hurmat bilan ziyofat qilib, so`ng yasantirishib o`rdaga olib borishadi. Zulxumor, avvalo, uzuk ko`zidagi yozuvni taqdirning bitigi deb bilganidan, ikkinchidan, yigitni yoqlirib qolganidan uni qabul qilib, ziyofat beradi. Ziyofat adog`ida Zulxumor bilan Ravshanga tilla taxt ustida joy qilib berishib, qizlar chiqib ketishadi. Bir necha kunni Ravshanbek Zulxumor bilan shod-xurram o`tkazdi. Ravshanga ko`p iltifot qilsada, uning e`tiborini qozona olmagan hasadgo`y Oqqiz alamidan Zulxumorning bog`ida o`zbek yigiti yashayotganligini onasiga aytib beradi. Onasi hamma gapni Qoraxonga yetkazadi. Qoraxonning mirg`azablari Ravshanni Zulxumor bilan uxlab yotishgan joyida bandi qiladilar. Podsho yigitni osishga buyuradi. Shunda Shirvon kattalari: Yigitni o`ldirishga shoshmaslik kerak, yosh yigit ekan, qirq kun muhlat berib, zindonga tashlasak, so`ng chiqarib sizning diningizga kirishini so`rasak, ko`nsa, sizga kuyov qilsak, deb maslahat solishadi. Bu gap podshoga ma`qul keladi. Ravshan zindonga tashlanadi. Zulxumor ham qizlari - kanizlari bilan bir hovliga qamab tashlanadi, tevaragiga besh yuz sarboz qorovul qo`yiladi. Zulxumor kaniz qizlari orqali yashirincha bir necha lahmchi topadi. Hovlidan zindon boshigacha lahm kovlatib, Ravshandan xabar olib turadi. Qiz u bilan maslahatlashib, Ravshanning ota-onasiga xat yozadi va xatni o`rgatilgan mayna qushining bo`yniga bog`lab, maynani Chambilga jo`natadi. Mayna Chambilga yetadi, avval Hasanxonning tomiga tushadi, farzand dog`ida nola-fig`on qilib yurgan Dallini ko`rib, ayolning Ravshanga ona ekanligini fahmlab, qattiq sayraydida, uning qo`liga kelib qo`nadi. Xatni olib o`qib, hamma voqeadan xabar topgan Hasanxon Go`ro`g`lining mashhur G`irko`k otini minib, zudlik bilan Shirvonga jo`nashga qaror qiladi. Xatdan ayon bo`lishicha, Qoraxon bergan qirq kunlik muhlatning roppa-rosa yigirma kuni o`tgan. Yigirma kundan keyin Ravshan yo begona dinga kirishi, yo dorga osilishi kerak. Ana endi Go`ro`g`libek shoshib-surinib, yig`lab-emranib, Hasan mardga oq fotiha berib yubordi. Hasanbek hayt deb, G`irko`kni o`ynatib, suvliqni chaynatib, dushmanlarning zardasini qaynatib, "Shirvon, qaydasan?" - deb, yakka-tanho savab ketib borayotir, huv deb ketib borayotir:

Sovutini bo`ktarib,
Qalqonini do`ngtarib,
Yo`lga tushdi mard Hasan
Shirvon elin axtarib...
Ot boradi arillab,
Otgan o`qday parillab,
Ot alqimi - long shamol,
Mis karnayday zarillab,
Suvsiz cho`lda G`irko`k ot
Borayotir karillab.
Tonglar otib boradi,
Kunlar botib boradi,
Suvsiz cho`lda mard Hasan
Yakka ketib boradi.
Dushmanlarning qonini
Bo`z tuproqqa qotsam deb,
Qoraxonday podshoni
Yerman yakson etsam deb,
Yuragin qon etsam deb,
Bek Ravshanning ustida
Katta to`fon etsam deb.
Qulon yurmas yerlardan
Quvib o`tib boradi.

Bulon o'tmas yerlardan
Burib o'tib boradi.
Qarsoq yurmas yerlardan
Qalqib o'tib boradi.
Bo'ri yurmas yerlardan
Bo'zlab ketib boradi.
Polvon Hasan dovushin
Sozlab ketib boradi.
Bek Ravshanni tinmasdan
Izlab ketib boradi...
Yo'lbars yurmas yo'llardan
Yo'rtib o'tib boradi.
Bek Ravshanning alamin
Tortib o'tib boradi...

Hasan mard yo'lni qichab ola bersin, Shirvonga yaqin kela bersin, shu so'z shu yerda qola bersin. Endi Ravshanxonning enasidan... eshiting. Ravshan Shirvon elida o'g'il tutingan kampirning avval olti o'g'li bor edi, oltovi ajdahor edi... Har biridan Qoraxon podsho qo'r qar edi, oltovi olti yerda qal'a-qo'rg'on qilib turar edi. Olti o'g'li o'lib ketdi. Kampir bolalarining o'tiga kuyib-yonib, o'rtanib, tutanib, jizig'i chiqib qolgan edi. Ravshanbekni o'g'lim deb, o'lsam merosxo'rim deb qo'ygan edi. Bu ham podshoga bandi bo'lib, kampirning avvalgi amlaridan shunisi o'tdi. Ana shu kampirning katta o'g'lining bir nonxo'r polvoni bor edi, o'zi juda zo'r edi, urush-surish bo'lsa, mingga barobar edi. U polvonning otini Aynoq kal der edi. Lekin o'zlari to'rt og'a-ini edi, to'rtovi ham kal edi, bari ham bohunar edi. Kattasi Aynoq kal zo'r edi. Aynoq kal shunday edi: ot, tuya, arava ko'tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko'chmoqchi bo'lsa, piyoda ketar edi... Ukalarining otlarini Jaynoq kal, Ersak kal, Tersak kal deb yuritishar edi. Jaynoq juda masxaraboz edi, har tusli bo'la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo'lsa, har tusli bo'lganda o'zining jo'ralari ham tanimas edi. Ersak kal shunday edi: oqshomlari qo'lga kamonni olsa, qushni ko'zidan urar edi. Juda mergan edi... Tersak kal sinchi edi: Yilqining tulporini suyagidan tanir edi, qilichning o'tkirini qinidan bilar edi. Kampir yig'lab-emranib Aynoq kalga bordi. Aytdi: "Aynoqjon! Mening qarigan vaqtimda xudo menga tag'i bir g'amni soldi, u bolalarimning g'amidan ziyodaroq bo'ldi. Sen ilgari, o'g'limning borida, davlatimning ko'pida mening osh-nonimni ko'p yeding. Endi mening ishim senga tushib qoldi. Shu Ravshanbek bolamni ayirib olaman desang, sening qo'lingdan keladi". Aynoq... aytdi: "Ho', ena!.. Aslo g'am yema! Shu o'g'illaringning menda haqi ko'p. Sening tuzingni men ko'p yeganman... Katta o'g'ling meni ko'p parvarish qilar edi. Endi shuning arvohi uchun ertaga maydonga kiraman,.. Ravshanni ayirib olaman". Shunday qilib, kallar maslahatni bitirib, shahardan xabardor bo'lib, borib-kelib yura berdi. Erta muhlat tamom bo'ladi, bek Ravshanni shu yerga olib keladi. Kallar to'rtovi barvaqt borib, gashtagini qilib, palovini yeb, choyini ichib, kayfini qilib, bahuzur dimog'ini chog'lab, "Ertaga qudag'ay kimga qo'y so'yadi", - deb to'rtovi o'tirib edi. Shu kuni kun pora-pora bo'lib yerga o'tirgan vaqtda jonivor G'irko'k suzilib, buyiri-buyiriga' qapishib, qorni-qorniga yopishib, ter bilan qotgan changlar yong'oqday dumaloq bo'lib, Shirvonga kirib bordi. Shaharning o'rtasida bozorjoy. Do'konlarni shipirib-sidirgan. Bozorjoyning o'rtasida bir yangi dor qurilgan. Hasan ko'nglida: "Shu dor bek Ravshanga deb qurilgan chiqar; bo'lsa-bo'lmasa, erta shu yerga keladigan bo'lsam, kel, shu bugun shu yerda turib damimni olayin", - deb tushib, bir do'konga otini tortib o'tira berdi. Endi gapni kallardan eshiting. To'rtovi o'tirib edi, Hasan mard ham shularning qavatiga tomon borib qo'ndi, u ham o'tira berdi. Shunda masxaraboz kal aytdi: "Aynoq, ishimiz yaxshi bo'ldi, o'ng keldi. Ravshanni endi ayirib oladigan bo'ldik, balki ayirib oldik. Ana qara; Hasan mard ham keldi. Shu o'tirgan yigit Chambilning belidan, Yovmitning elidan kelgan Hasan mardning o'zi shu". Shunda Aynoq aytdi: "E, uchchangdan urgur, har kimni ham odam deyberasanmi! Xudo urgani yo'q. Hasan mard shunday bo'lsa, G'irko'k ot - ovozasi olamni tutib yurgan ot; bu ot Ishrat devonaning otidan ham yomon, o'libdimi shunday bo'lsa! Men ertaga urush bo'lsa, boyadan beri shuni chog'lab-ko'zlab o'tiribman; anov tolni, manov qayrag'ochni sug'urib olib, ertaga to'dada "qadama og'och" qilaman deb o'ylab o'tiribman. Agar ertaga badanim qizisa, shu devona otini qo'yningga solib, kuni bilan yugurib yursam ham, bir noncha salmog'i bo'lmas, qanday qilib bu Hasan mard bo'ladi, u G'irko'k ot bo'ladi?!" - deb ukasini urishdi. Shunda Tersakka qarab aytdi: "Tersak! Shu odamni sen bir sinla, qani, qayoqning odami ekan. Agar sening ham didingga kelmasa, undan keyin qo'yamiz". Tersak damini ichiga olib, tishini tishiga qo'yib, kiprigini qoqmay tiklab qoldi. Turib-turib, ancha vaqtdan keyin damini chiqarib: "Uh", -

dedi. Ersak aytdi: "E, Tersak, sinladingmi, qayerning odami ekan, shu ot qayerning oti ekan?" Shunda Tersak og'a-inilariga qarab, Hasan marddan xabar berib, bir so`z deb turibdi:

...Ot chopilar baland tog`ning pastida,
Quloq soling gapimning payvastiga,
Shu ot kepti Qoraxonning qasdida,
Endi maydon bek Ravshanning ustida.
Kesgir isfihonni olib dastiga,
Qarab bo`lmas chin botirning bastiga,
Yobi dema, shu ot tulpor ekandi,
Shu o`tirgan Hasan shunqor ekandi.

...Ana endi to`rt mard Hasanxon polvonning oldiga keldi. Salom berib, ko`rishib o`tirdi. Aynoq qarasa, bir "devona" o`tiribdi: devsifat, bir ajdahoday, hech narsani ko`ziga iladigan emas, balki nazariga keltirmay, pisand qiladigan ham emas; shunday haybatli, siyosatli. Aynoq ichida aytdi: "Hasan ekan, bechora Jaynoqni bekorga urishgan ekanman"....Aynoq joyidan irg`ib turdi, ukalari ham tura keldi: mard Hasan bilan quchoqlashib, qaytadan ko`rishib aytdi: "Yaxshi kelibsan, jo`ra, juda yaxshi kelibsan. Bizlar ham, shu yerga Ravshan keladi deb, sening o`g`ling uchun o`tiribmiz. Ana endi sen kelding, ishimiz o`ng keladi. Endi, jo`ra, ertaga Ravshanxonni shu yerga haydab keladi, nasib qilsa, taloto`p boladi, taxti vayron bo`ladi", - deb Hasan mard bilan kallar suhbatlasha berdilar. Aynoq ukalarini yuborib, G`irko`k otga beda, yem oldirib keldi. Hasanxon polvonga palov, go`sht, manti, barak berib siylab, ziyofat ustiga ziyofat qilib, choyni damlab, G`irko`kni yemlab, ertagi urushning g`amini g`amlab, xotirni jamlab o`tira berdi. Qirq kun muhlat tamom bo`ldi. Qoraxon podshoga: "Taqsir podshoyim, kechagi gunohkorning muhlati bitdi, ajali yetdi, endi olib borib dorga osib, boshini kesib, dodini bermoq kerak", - deb amaldorlari arz qildi. Ravshanxonni zindondan chiqarib, bo`yniga g`ul - zanjir solib, tevaragini ko`p dushman olib, bo`taday bo`zlatib, ko`zini boylab, ko`p zulmlarni aylab kela berdi. Ravshan chiqqan kuni Zulxumor oyim qancha kanizlari bilan dod deb yig`lab, Ravshanning o`ng tarafidan kelib, to`rasining dog`ida kuyib, betini yulib, dovushining boricha chirqirab yig`lab kelayotipti. Bir tarafda kampir enasi "dod" deb, bolasining dog`iga kuyib: "Voy bolam", - deb Ravshanning bo`yniga osilib kelayotipti. Zolimlar doming ostiga yaqinlashib qoldi. Hasanxon G`irko`kning ustiga minib, yov-yarog`ini choq qilib, ustiga eski to`n kiyib, bir devona bo`lib turar edi. Dasta, dasta, baland-pastda, odam bosib kela berdi asta-asta, maydon sipohiga to`lib ketdi. Qoraxon podsho saltanati bilan, bir bo`lak amaldor-umarolari bilan kelib, bir yaxshi joyni olib, tushib o`tira berdi. Baland ham odam, past ham odam. Shunda jallod, mirg`azablar Ravshanni haydab kela berdi. Hasan mard buni ko`rib, ko`zlari yoshga to`lib, jazavalari qo`zg`alib, polvonlik tornirlari uyg`onib, o`zini tuzab, tezлана berdi...Ravshanxonni... jallodlarga haydatib, dorning ostiga olib keldi. Shunda Qoraxon podshoning amri bilan ikki hudaychi, salom og`asi kelib, Ravshanbekni dorning ostida to`xtatib, Qoraxon podshoning tili bo`lib, Ravshanxonga qarab bir so`z aytdi:

Bo`yinsunsang Shirvon elning xoniga,
Ko`nsang agar vazirlar deganiga,
Seni dordan ayirib olib ketaylik,
Agar kirsang Qoraxonning diniga...
Eshitib ol vazirlarning so`zini,
Shirvon elda podsho deydi o`zini,
Agar kirsang Qoraxonning diniga,
Olib beray suluv Xumor qizini.

Shunda Ravshanxon polvon vazirlarning bu gapini eshitib qahri kelib, ilonday zahri kelib: "Sen aytgan odaming men emasman,.. O`limdan qo`rqadigan odaming boshqadir", - deb Shirvonning amaldorlariga qarab bir so`z aytib turibdi:

Bir nechalar o`z holini chengnamas,
Sen aytgan odaming, zolim, men emas,
Men o`lmasam, o`z elimdan kechmayman!
Aziz boshing oyog`imga teng emas...

Ravshanbek aytdi: "...Sizlar mening ko`zimni boylab, ...haydab keldinglar. Endi mening ko`zimni ochsanglar... men ham yorug` dunyoni bir ko`rsam... Sizlardan mening tilagim shu, boshqa so`zni demayman". Ravshanbek ko`zini ochib qarasa, bir yog`ida Zulxumor yori qancha kanizlar ... dod deb turibdi; bir yog`ida

enasi - kampir ... Voy bolam deb o`zini urayotir. Shirvon eli katta-kichik, yaxshi-yomon, yugruk-chaqqon, qiz-ujuvon - jami odamning bari tomoshaga yig`ilgan, Ravshanbekka qarashib turibdi. Ravshanbek o`ng tarafiga qarasa, otasi - Hasan mard polvon yo`lbarsday kelib turibdi: ostida G`irko`k oti, sherday haybati, qaynab g`ayrati, ko`zi yoshga to`lib, ot qo`yayin deb turibdi. Otasini ko`rib, aslo dalaga chiqmagan bola emasmi, yig`lab yubordi. So`ng hol-ahvolini bayon qilib, otasiga bir necha so`z aytdi:

Uyquda boyladi nozik qo`limni,
Sog`indim, otajon, Chambil elimni.
Tor zindonda: "Vo ota",- deb yig`ladim,
Ko`rdingmi, otajon, mening holimni?
Yo`lingga intizor bo`ldim, otajon,
Baloga giriftor bo`ldim, otajon,
Dushmanga xor-u zor bo`ldim, otajon,
Bir ko`rmoqqa xumor bo`ldim, otajon.
Mehribonim kelgan ekan, ming shukur,
Tulporini yelgan ekan, ming shukur,
Meni o`ldirmoqqa kelgan Qoraxon -
Endi zolim o`lgan ekan, ming shukur.

Hasan polvon o`zi olovday yonib, dudday tutanib turgan edi. Endi mardning g`ayrati kelib, jazavasi qo`zg`alib, o`g`lining bu so`zlarini eshitib, bir na'ra tortib yubordi, shu yerda turganlarning ko`pi et-petidan tushib, aqli shoshib, esidan adashib, ne botirman deganlari turolmay emaklashib, bari birday chuvlashib qoldi. Shunda Hasanxon G`irko`kka qamchi berib, qilichini g`ilofdan sug`urib, ot qo`yib turibdi. Bir yoqda kallar ham choq turibdi. Hasanxon polvon kal jo`ralariga qarab, otini maydonga haydab, bir so`z deb turibdi:

Keling, kallar, keching jondan,
Umiding bo`lsa maydondan,
Siz bir yondan, men bir yondan,
Ot qo`y g`animning ustiga.
Oq, qora bosh, yashil tug`lar,
Tikildi maydon ichinda,
O`mirovli ne polvonlar,
Yiqildi maydon ichinda.
Bo`z tuproqqa qirmizi qon
Sepildi maydon ichinda.
Ne go`zallar qaddi yoyday
Bukildi maydon ichinda.
Oq badandan qizil qonlar
To`kildi maydon ichinda.
Nayza tegib kirovkalar
So`tildi maydon ichinda.
Qilich kelar yalab-yalab,
G`arib ko`ngil istar talab,
Oltin kosa, gulgun sharob
Ichildi maydon ichinda.
Ajallining kafan to`ni
Bichildi maydon ichinda.
Qirg`iy yurar qiyada,
Lochin yotar uyada.
To`rt kal ham qiladi
Hasanxondan ziyoda.
Endi ko`ring Aynoqni,
Masxaraboz Jaynoqni,
Qo`shinning oldin oladi,
Yetganini soladi,

Kimga yetsa shu kallar,
Yetganda ikki bo'ladi...
Hasan ishin ishladi,
Pastki labin tishladi.
Yig'ilib kelgan qo'shinning
Ko'pini qirib tashladi.
Ozi qoldi, ko'prog'i
Qo'rqib qocha boshladi.
Daladagi zo'r kallar:
"Turavor!" - deb ushladi.
Yig'lab, qo'rqib elansa,
O'xshatib uch-to'rt mushtladi.
Hasan vaqtin xushladi,
Ishni yaxshi tishladi.
Ostidagi G'irko'kni
Mard Hasan kishkishladi.
Og'zin ochib G'irko'k ot
Nechovini tishladi.
O'zi qirgani ozmidi,
Oti ham unish boshladi,
Necha odamning kallasini
Oti uzib tashladi.
Bu so'zni aytib turgan yov
Tura qocha boshladi...
Endi ko'ring, Qoraxon
Bo'lib qoldi sargardon...
Podshoga vahm tushdi,
Endi yuragi shishdi.
Otin minib Qoraxon
Qo'shından chiqa qochdi.
Qoraxon shoh uzamay,
Hasanxon ko'zi tushdi.
G'irko'kka qamchi qo'shdi.
Quvib keynidan tushdi,
Og'zin ochib G'irko'k ot.
Qoraxonga yetishdi.
Endi Hasanxon polvon,
G'irko'k otin yeldirdi,
Zo'rligini bildirdi,
Quvib yetib ortidan,
Oq nayzaga ildirdi...
Egnidan sop nayzasin,
O'pkasidan o'tkazib,
Qoraxonni o'ldirdi...

Ana endi Hasanxon polvon Shirvon odamlaridan omonlik tilaganlariga omon berib, qo'shinning u yoq-bu yoqqa qochganlari yig'ilib, hammasi bir yerga uyilib, qilich, sadoqlarini bo'ynilariga solib kelib, Hasanxon polvonga elanib, yolvorib itoat qildi. El-yurt omon-omon bo'ldi... Shirvon kattalari, maslahatdor kayvonilar - kengashbo-shilar Zulxumorni, Ravshanbekni, Hasan polvonni, to'rtta jo'ra: Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersak kallarni izzat-ikromlar bilan shaharga olib jo'nadi. Endi Shirvon mamlakatiga... shodiyona qo'ydirib, Qoraxon podshoning xazinadafinalarini bo'shatib, elni yig'dirib, ochni to'ydirib, yalang'ochni kiydirib, balabon, g'ijjak, karnay, surnay qo'ydirib, qirq kun to'y qilib, Zulxumoroyi Ravshanxonga nikoh qilib berdi. To'y tarqadi. Hasanxon polvon Shirvonning katta-kichigini yig'ib, shu Shirvonni kallarga topshirdi. Aynoq jo'rasini Shirvon

shahriga podsho qildi, ukalarini vazir, mahram qildi. Zulrhoroyirnni... olib, Ravshanxon polvon yo`lga tushdi... Hasanxon boshliq necha kun yo`l yurib, qancha suvsiz cho`l yurib, ozgina emas, mo`l yurib, axiri Chambilga yetdilar. Otasi Go`ro`g`libek, enasi Yunus, Misqol parilar, yori xon Dalli, qirq yigit jo`rasi bari oldiga chiqib, Hasanxon bilan, Ravshanbek bilan ko`rishib, hol-ahvol so`rashib, Zulxumoroyim bilan, necha kaniz qizlari bilan tanishib, izzat-ikromlar bilan Chambilga olib bordilar. Go`ro`g`libek Yovmit-Takaning eliga odam qo`yib, Zulxumoroyimga to`y boshlab, qirq kun to`y qilib, qancha o`yin qilib, to`yni tarqatdi, ko`p in'om-ehsonlar bilan to`yni tamom qilib, murod-maqсадlariga yetdi

"Ravshan" dostoni haqida

Turkiy xalqlarning she'riy dahosi, ijodkorlik salohiyati ular yaratgan ko'lamli dostonlarda to'liq namoyon bo'ladi. Doston o'zbek xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan yirik janridir. "Doston" so'zi adabiy atama sifatida xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli asarlarni anglatadi. Xalq dos-tonlarini do'mbira yordamida ijro etuvchi, kuylovchi san'atkor o'zbeklarda "shoir" yoki "baxshi" deb atalgan. Xorazmda dostonlar tor jo'rligida aytiladi va bu xil aytuvchilar "xalfa" deb yuritiladilar. Baxshi va xalfalarning badiiy bisotida juda ko'p mavzularda, turli yo'nalishlarda yaratilgan dostonlar bor. Ularning ilk bor qachon va kim tomonidan aytilganligini aniqlash deyarli mumkin emas. Baxshilar repertuaridagi asarlarning katta qismini ishqiy-sarguzasht dostonlar tashkil etadi. Bunday dostonlar mazmuni asosan sevgi mojarolaridan iborat. Ulardagi sevgi mojarolari qo'rqinchli sarguzashtlar, ertaklardagidek xayoliy hodisalar hayotiy-real voqealar bilan aralash tasvirlanadi. Bunday dostonlardagi voqealar tizmasi (sujet) bir-biriga ancha o'xshashdir. Qahramon ko'pincha afsonaviy go'zalni tushida yoxud uning suratini uzukda, yoki oynada ko'rib qolib, unga g'oyibona oshiq bo'ladi. So'ng uni izlab xatarli safarga o'tlanadi, sermashaqqat va tahlikali sarguzashtlarni, ajoyib-g'aroyib voqealarni boshidan kechiradi, turli dushman kuchlar bilan to'qnashadi, qahramonlik namunalarini ko'rsatadi. Nihoyat, barcha qiyinchiliklarni yengib o'tib, maqsadiga erishadi. Dostonlarimizning asosiy qismi ishqiy sarguzashtlarga bag'ishlanganligi o'zbek xalqi juda qadim zamonlardan buyon chin insoniy muhabbatni qadrlaganini ko'rsatadi. Ota-bobolarimiz hamisha yor tanlashda, yorga yetishish uchun kurashishda, uning nomusini himoya qilishda dunyo xalqlariga namuna bo'lib kelganlar. Xalqimiz kuylab kelgan dostonlar orasida "Go'ro'g'li" turkumi alohida o'rin tutadi. Bu turkum dostonlar turkman, qozoq, qoraqalpoq, tatar, turk, ozarbayjon, tojik, arman, gurji xalqlari orasida ham mashhur. O'zbeklar orasida tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlarining o'zi yuztadan oshadi. "Ravshan" badiiy jihatdan g'oyat pishiq ishqiy-sarguzasht dostonidir. Xalq orasida u o'tgan asrda ham mashhur bo'lgan. Ammo doston folklorchi olim Hodi Zarif (1905-1972) tomonidan birinchi marta 1928- yilda Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) og'zidan yozib olingan va 1941- yilda nashr ettirilgan. Ergash shoir "Ravshan"ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustoz kichik Bo'rondan o'rgangan. Dostonning sayqal topib, badiiy go'zal asar shaklini olishida Jumanbulbul va Ergash baxshilarning alohida xizmatlari bor. "Ravshan" otashin va samimiy muhabbatni kuylovchi, pok va haq islomiy e'tiqod yo'lida sobit tura oladigan iymonli kishilarni madh qiluvchi, ezgulikni, mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralovchi asardir. -Ta'qdiriga bitilgan Zulxumorni qo'lga kiritish niyatida olis yo'lga yakka o'zi chiqqan Ravshan yoshligi, soddaligi tufayli osongina bandi etilib, zindonga tashlanadi. Ammo u qo'rqqoqlik qilmaydi. Yigitlik sha'niga dog' tushirmaslikka intiladi. Qoraxon a'yonlarining dinini o'zgartirish haqidagi taklifini rad etib, o'z e'tiqodidan, dinidan kechmasligini aytadi. Muhabbat uchun chekilgan iztirob, iymon yo'lidagi azobga aylanadi. Chin muhabbat egasi bo'lgan botir yigit o'limdan hayiqmaydi. Dostonda Ravshan hech qanday kamchiliksiz, har jihatdan yetuk odam sifatida tasvirlanmaydi. Uning ojizligi, g'o'rligi, tajribasizligi tufayli xatolar qilishi, aldanishi haqqoniy ko'rsatiladi. Hasanxon - Go'ro'g'lining tarbiyasini olgan dongdor polvon. Zulxumor mayna orqali yo'llagan maktubni olgan Hasanxon G'irotda uch oylik yo'lni yigirma kunda bosib o'tadi. Dostonda shu o'rinlar nihoyatda hayajonli, ta'sirchan va go'zal ifodalangan. Qoraxon lashkariga qarshi jangga kirgan Hasanxon chinakam qahramonlik namunalarini ko'rsatadi. Shirvonlik to'rt og'a-ini botirlar: Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersaklar ko'magida Qoraxon qo'shinini yengadi, o'g'lini o'limdan qutqaradi. Doston - she'riy san'atlarga, badiiy tasvir vositalariga juda boy. Zulxumor, Oqqiz kabilarning qiyofasi. fe'l-atvori, tabiat manzaralari yuksak mahorat bilan chizilgan. Zulxumorning bog'i tasvirini o'qisangiz, ulkan e'tibor ila parvarishlangan, shohona ko'shk va qasrli so'lim maskan, jannatday bir oromjoy ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi. Yoki Shirvon bozorining 145 misralik tasvirini olaylik. Dostonda sershovqin, to's-to'polon Sharq bozorining o'ta tabiiy, jozibador tasviri berilgan. She'riy parchalar anvoyi poetik tasvir vositalariga nihoyatda boy qofiyalar bilan mohirona ziynatlangan. "Ravshan" dostoni qofiyali nasr (saj)ning go'zal namunasidir. Deyarli har bir nasriy parcha - qofiyali. Dostonning vazni ham o'ziga xos, She'riy qismi asosan yetti, sakkiz va o'n bir bo'g'inli barmoq vaznida. Baxshi qahramonning ruhiy holati, his-hayajoni, voqea rivojining sur'atiga ohangdosh, ayni shu holatga mos tasvir yo'sinini topadi. Sakkiz bo'g'inli vazn urush va jango-varlik holatiga juda mos keladi:

Keling, kallar, keching jondan,
Umiding bo'lsa maydondan.
Siz. bir yondan, men bir yondan,
Ot qo'y g'animning ustiga.

Asarda tasvir etilayotgan voqea yo harakat sur'ati tez-lashgan holatlarda esa, yetti bo'g'inli she'rlardan foydalaniladi:

Qush uchmagan cho'llardan,
So'na yuzgan ko'llardan,
Odami yo'q yo'llardan,
Dim uchi yo'q cho'llardan,
Tomosha qing, mard Hasan
Qistab o'tib boradi.

Bunday o'rinlarda tinglovchi o'zini go'yo asar qahramoni bilan yonma-yon ot qo'yib borayotganday his etadi. Shoir qahramonlar ruhiy holatini chuqur his etadi va uni doston tinglovchilariga ham yuqtira biladi. Dostonning tili - sodda, rang-barang. Unda adabiy tilimizni boyitishga xizmat qiladigan so'z va atamalar juda ko'p. Ko'plab misralarda xalq maqollari va hikmatli so'zlari o'rinli qo'llangan. Suyukli xalq shoiri Ergash Jumanbulbul o'g'lining ulkan mehnati, iste'dodi hamda dostonni yozib olgan folklorshunos va noshirlarning og'ir mehnati tufayli avlodlarga meros bo'lib qolgan "Ravshan" dostoni kitobxonlarni mustahkam islomiy e'tiqod, chin va pokiza muhabbat, or-nomus, e'tiqod, qahramonlik, ota yurt va xalqqa sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

"Kuntug'mish" dostoni.

Xalq dostonlari har bir millatning ma'naviy qiyofasi, uning tarixi, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi bamisoli oynadir. Ularda har bir xalqning urf-odatlarini, milliy o'ziga xosligi yaqqol ko'rinib turadi. Dostonchilik xalq og'zaki ijodida qadimiy epik an'ana hisoblanadi. Dostonlar asosan do'mbira jo'rligida aytiladi va ijrochidan ham badihada, ham ijroda juda katta ijodiy mahorat talab qiladi. Dostonning yana bir xususiyati, og'izdan og'izga o'tib avlodlardan avlodgacha yetib kelganidir. Bu o'z navbatida ustoz-shogirdlik an'alarining vujudga kelishiga, natijada yirik dostonchilik maktablarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Folklorshunos olim T. Mirzayevning ma'lumotlariga ko'ra, 15-16-asrlarda yirik dostonchilik maktablari paydo bo'lgan, 19-20-asrlar esa dostonchilik taraqqiyotida juda rivojlangan davr bo'lgan. 20-asr boshlariga kelib baxshilarimiz ijodiy bisotida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo'lgan. Bu dostonlarni Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo'ron shoir, Jumanbulbul, Josoq, Yo'ldoshbulbul, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir kabi mashhur baxshilar kuylaganlar. Keyinchalik ularning an'alari Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan, Islom shoir, Saidmurod Panoh o'g'li, Berdi baxshi, Umir baxshi shoir, Bola baxshi ijodida davom ettirildi. Baxshidan u yoki bu dostonni ijro etishda shunchaki voqea bayonini so'zlab berish emas, balki uni do'mbira jo'rligida tinglovchini rom etadigan darajada kuylab berish talab etilgan. Dostonchi baxshilar o'z san'atlarini tinglovchiga ma'qul qilish uchun turli usullarni qo'llaganlar (musiqiy qochirimlar, so'z o'yinlari, dostonning eng qiziq joyida tanaffusli chekinishlar kabi). Doston aytish ko'p hollarda raqobat asosida kechgan. Dostongo'ylik kechalarida bir necha baxshi ishtirok etib, o'z mahoratlarini namoyish etganlar, ijodiy bahs qilganlar. 20-asrning 50-yillarida xalq dostonlariga, shu jumladan, "Alpomish" dostoniga ham bu asarlar mehnatkash xalq manfaatini emas, balki yuqori tabaqalar manfaatini aks ettiradi, shuning uchun ularni ommalashtirish zararlidir, degan mafkuraviy ayblar qo'yildi. Lekin bir qator olimlar bu ayblovlarning xato ekanligini, mazkur dostonlar xalq badiiy tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, boy tilini aks ettiruvchi bebaho xazina ekanligini isbotlab berishdi va shu tariqa adabiy-milliy merosimizning muhim qismini g'oyaviy tazyiqlardan asrab qolishdi. Dostonchilik an'anasi hozirgi kunda ham mavjud. Biroq endi kuylash, ijro, tinglovchilar bilan muloqot tarzining zamonaviylik kasb etayotganligini ko'ramiz. Dostonchilik fan va texnika asrida birmuncha o'zgarishlarga uchradi. Bugungi kun baxshilari o'z asarlarini konsert zallarida, katta-katta anjumanlarda, televideniya ijro etmoqdalar. Yurtimizda dostonchilikni rivojlantirishga va uning ijrochilari - baxshilar faoliyatini rag'batlantirishga katta e'tibor berilmoqda. 2000-yilda "Alpomish" dostonining ming yilligini jahon miqyosida nishonlanishi va hatto "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi" unvonining ta'sis etilishi (2000- yil 14-mart) buning isbotidir. Qadrli o'quvchilar, Siz 7-sinf adabiyot darslaridan o'zbek xalq dostonlari, ularning go'zal namunalari bo'lmish "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Ravshan" dostonlari haqida tasavvurga ega bo'lgansiz. 8-sinfda esa yana bir ajoyib asar - "Kuntug'mish" dostoni bilan tanishasiz. Ushbu doston o'zining qiziqarli voqealarga boyligi, o'ynoqi, ravon tili, nafisligi bilan o'quvchi va tinglovchini lol qoldiradi. Dostonning yozib olingan va ijro etilgan variantlari juda ko'p. Darhaqiqat, "Kuntug'mish" dostoni o'zbek xalq dostonlari orasida g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlardan biridir. Uning xilma-xil ko'rinishdagi variantlari ko'pligining boisi shundaki, ilgari baxshilarning iste'dodiga, ushbu dostonni qanday aytishiga qarab baho berilgan, natijada barcha baxshilarimiz "Kuntug'mish" dostonini to'la o'zlashtirishga intilganlar. Dostonning Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'rabo'y o'g'li, Nurmon Abduvov o'g'li, Egamberdi Ollamuroddan yozib olingan variantlari mavjud. Qo'lingizdagi darslikda esa mashhur baxshi bobomiz Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan nusxasi keltirilgan. Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha: No'g'ay yurtida Avliyoyi Qoraxon ismli, Qilichxon laqabli podsho bo'lib, Kuntug'mish uning yolg'iz o'g'li bo'ladi. Kuntug'mish o'n to'rt yoshga to'lguncha ilm-hunar o'rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O'n to'rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o'rganadi, xullas, har tomonlama komil shahzoda bo'lib yetishadi. Shahri Zangar degan shaharning Buvraxon degan podshosi bo'lib, uning Shoir va Tohir ismli vazirlari bor edi. Vazirlar bir-birlari bilan juda inoq edilar, ular: "Bizlarga farzand bersa, o'g'il bo'lsa qo'lqanot bo'lsin, qiz bo'lsa do'st bo'lsin", deya niyat qilar edilar. Kunlardan bir kuni Shoir vazirning xotini qiz ko'radi. Tohir vazir oilasida o'g'il tug'iladi. Qizning otini Xolbeka, o'g'ilning otini Xolmo'min qo'yishadi. Lekin Xolmo'minning onasi to'satdan vafot etadi, o'g'il go'dakni Xolbekaning onasi emizishga majbur bo'ladi, natijada ular "shirxo'ra" (bir onani emgan) bo'lib, "nikoh yurmaydigan" bo'lib qoladilar. Xolbeka o'n to'rt yoshga yetgach, uning husni kamoli ovozasi olamga yoyiladi. U go'zal, ayni paytda aqlli, nard o'yiniga mohir qiz bo'lib yetishadi. Unga barcha mamlakatlardan

sovchilar kela boshlaydi. Xolbeka sovchilarga: "Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o`yinini qo`yaman, o`ynayman, utsa 1 tegaman, utdursa 2 so`yaman", deb shart qo`yadi. Hatto shahar podshosi Buvraxonga ham shu javobni aytadi. Podsho g`azablanib, shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib qatl qildirishga farmon beradi, shunday qilsam to`rt-besh yildan keyin menga tegishga majbur bo`ladi, deb o`ylaydi. Xolbeka va Kuntug`mish tush ko`radilar, ular tushlarida bir-birlarining qo`liga uzuk taqishib, uylangan emishlar. Shundan so`ng Xolbeka bir mohir suratkashga o`z rasmini chizdiradi va uni sandiqqa solib, No`g`ay yurtiga oqizib yuboradi. Sandiq oqib borib daryo sohilida ov qilib yurgan Kuntug`mish qo`liga tushadi. Kuntug`mish Xolbeka visoliga yetish uchun Zangar yurtiga otlanadi, bu yurtga kelib Xolbeka bilan topishadi, so`ng ko`p sarguzashtlarni boshidan kechiradi: Buvraxon qo`liga tushib, o`limga hukm qilinadi, dahshatli ajdarni o`ldiradi, xiyonatkor Azbarxo`ja tufayli xotini, egizak o`g`illaridan vaqtincha judo bo`ladi. Doston so`ngida xotini, farzandlari Gurkiboy va Mohiboy, otasi Qoraxon bilan topishadi. Dostonning bosh qahramoni - Kuntug`mish yolg`iz, erka o`g`il bo`lishiga qaramasdan, aqlli, bilimli, jasoratli, elga g`amxo`r, xotini, bolalariga mehribon, vafodor yigit. Kuntug`mish va Xolbeka bir mo`jiza bilan Buvraxon jazosidan omon qolib, sahroda och, tashna qolishganda hayotdan umidini uzgan yori Xolbekaning "Meni tashlab ketaver, yo`qsa o`zing ham halok bo`lasan", degan iltijosiga "Bir g`ayrat qil, yo`limiz yaqin qoldi", deb dalda beradi, unga vafodorligini quyidagicha bayon qiladi:

Po`lat nayza qor ostida yotarmi,
Temir nayzang egovlasang o`tarmi,
Sening to`rang nomardlardan emasdir,
Mard o`g`lon sevdigin tashlab ketarmi?..

Kuntug`mish o`z maqsadiga sodiq, har qanday sharoitda tushkunlikka tushmaydigan inson. U nomsiz, poyonsiz tog` darasidan vataniga boradigan yo`lni rosa izlaydi, bu orada egizak farzandli bo`ladi, ular uch yoshga to`lganda ham biror bir el daragini topolmaydi. Xullas, Kuntug`mish fe'l-atvorida siz havas qiladigan, ergashadigan insoniy sifatlar juda ko`p. Dostonni sinchiklab mutolaa qilsangiz, bunga o`zingiz amin bo`lasiz. Xolbeka siymosi ham dostonda baxshi bobomiz tomonidan alohida mehr, iliqlik bilan tasvirlangan. U o`z so`zida turadigan, barcha hunarlarga mohir qiz. O`zi qancha lik bir ishga mohir bo`lsa, bo`ljak jufti halolidan ham shuni talab qiladi. Shu ma'noda Xolbeka o`z xulqi va fazilatlarini bilan har jihatdan Kuntug`mishga teng va munosib bo`lgan inson. U haqiqiy muhabbatni tan oladi va unga ishonadi, e`tibor bering: u o`z suratini chizdirib, Kuntug`mish yurtiga yuborar ekan, agar "shu ko`rgan tushim rahmoniy bo`lsa, oshiq-ma'shuqlik avvaldan pok bo`lsa, Xudoyo xudovando shu sandig`im senga omonat, to`radan boshqasiga tegmasin", deydi. Xolbeka hamiyatli, g`ururi baland qiz. Garchi u Kuntug`mishni tushida sevib qolgan, uchrashganda esa yigitni ko`rib biroz muddat ixtiyorini yo`qotgan bo`lsa-da, uning husniga talabgor barcha shoh-u shahzodalarga bergan va`dasi, ya'ni faqat nard o`yinida g`olib chiqqanga tegaman degan fikridan qaytmaydi. Kuntug`mish men uchun mashaqqat chekib kelibdi, deb unga tegib ketavermaydi, o`zi ko`ngil qo`ygan yigitning el-yurt oldida ham yuzi yorug` bo`lishini istaydi. Dostonda Kuntug`mishning o`g`illari Gurkiboy va Mohiboy xarakterlari ham chiroyli va ta'sirchan tasvirlangan. Gurkiboy bosiq, vazmin, aql bilan ish ko`radigan bola bo`lsa, Mohiboy biroz shaddod, biroz quv yigit. Biroq ikki aka-uka bir-birlariga mehribon, ota-onalariga fidoyi yigitlar. Ular mehnatsevarlik va aql bilan ish ko`rganlari uchun boshlariga tushgan qiyinchiliklarni yengadilar. Asarda Azbarxo`ja, Buvraxon, Zamonqul, Xolmo`min kabi qahramonlar qiyofasi o`ziga xos tarzda yoritilgan. Azbarxo`ja dastlab Kuntug`mish bilan do`stlashadi, so`ng o`z manfaatini deb unga xiyonat qiladi. Buvraxon o`ziga bino qo`ygan, qahri qattiq podsho, biroq uning ko`ngilchan ekanligini ham ko`ramiz. Buvraxon avval Kuntug`mish va Xolbekani o`limga mahkum etadi, keyinroq Azbarxo`ja xiyonati tufayli mashaqqatlarga duch kelishganini eshitib, ularni afv etadi. Azbarxo`jani jazolaydi. Dostondagi Qosim, Xolmo`min, Mullavachcha, Zamonqul va boshqa obrazlar ham asarda o`z o`rniga ega, ularsiz Kuntug`mish va Xolbeka taqdirini to`laqonli tasavvur qilish qiyin. "Kuntug`mish" dostoni badiiy jihatdan nihoyatda yetuk asar. U yaxlit kompozitsiyaga ega, asarda kishini asosiy voqealardan chalg`itadigan o`rinlar uchramaydi, aksincha, har bir voqea, har bir epizod dostonni to`ldiradi. Doston xalq og`zaki ijodidagi barcha she'riy qoidalar va uslublarni o`zida jamlagan asardir. Unda xalq dostonlarida bo`lganidek, voqealar, sarguzashtlar, asosan, nasriy bayon etiladi, qahramonlar tavsifi, ruhiy kechinmalari she'riy yo`l bilan ifodalanadi. Doston tili esa nihoyatda yengil va ravon. Unda rang-barang badiiy til vositalaridan unumli foydalanilgan, ayniqsa, hikmatli so`zlar darajasiga ko`tarilgan ayrim baytlar hech kimni e'tiborsiz qoldirmaydi: "G`aribning ko`nglini ovlamoq savob", "Qilichdan seskanmas botirning tani", "Gavharni ne bilsin ushalgan sopol", "Zarning qadrini zargar bilar har yerda", "Kamlilikning kamoli bordir, Manmanning zavoli bordir...", "Yaxshilarning yuzin ko`rsang jannatdir, Yomon odam qilgan ishi minnatdir", "O`zingdan kattani

uchratsang pir bil, O`zingni er bilsang, birovni sher bil" va hokazo. Shuningdek, asarda o`rni bilan ishlatilgan o`xshatish, mubolag`a, kinoya kabi badiiy unsurlar dostonning badiiy qimmatini oshiradi, qahramonlar qiyofasini yaxshiroq tasavvur qilishga yordam beradi.

"Kuntug'mish" dostonining bayoni.

No'g'ay posholaridan Avliyoyi Qoraxon degan bor ekan, laqablari Qilichxon ekan, shu vaqtning odamlari Avliyo ota deydi. Shul azizning bir yolg'iz o'g'li bor edi, undan boshqa bolasi yo'q edi. Otini Kuntug'mish to'ra der edi. O'n to'rtga kirguncha ilm-xunar, kasb-kamolot xosil qilib, o'n to'rtidan o'tgandan keyin, sipoxilik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik, ko'pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlariga ko'shish qilib, qirqta yigitni yoniga olib, gox toqqa, gox ovga shikor qilib yurar edi.

Shaxri Zangar degan shaxar podshosining otini Buvraxon der edi. Buvraxonning ikki vaziri bor edi. Birovini otini Shoir vazir der edi, birovini Toxir vazir der edi, ikkovi aka-uka edi. Bular irim qilib niyat qilib edi: «Bizlarga farzand bersa, o'g'il bo'lsa qo'lqanot bo'lsin, qiz bo'lsa do'st bo'lsin».

Kunlardan bir kun Shoir vazirning xotini qiz tug'di, Toxir vazirning xotini o'g'il tug'di. Qizning otini Xolbeka qo'ydi, o'g'ilning otini Xolmo'min qo'ydi. Lekin Xolmo'minning enasi qora bosib o'ldi, o'g'li etak ostida qoldi. Xolbeka enasi emizib katta qildi. Bular shirxo'ra bo'lib, nikox yurmaydigan bo'lib qoldi. Ikki vazirning avvalgi va'dalarini shaxarning odamlari eshitgan edi. Mardumi shaxar: «Xolbeka Xolmo'minning baxshandasi», -der edi, sut emishganini bilmas edi. Ammo Xolbeka o'n to'rtga kirgandan keyin... ovozasini olamga ketdi, dong'i Dog'istondan o'tdi. Xolbeka tavsif-vasiyatini, xusn zeboligini eshitgan podsho va to'ralar, polvon-botirlar xar mamlakatdan, xar yurtdan, xar diyordan sovchi qo'ya berdi. Sovchilarga Xolbeka: «Xar kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynayman, utsa tegaman, utdursa so'yaman», -deb elga shuxrat berdi.

Xar to'ra-kattalar, xonzodalar Xolbeka bilan nard o'ynab utdirib, ko'p kishilarni Xolbeka nobud qilib o'ldirib yubordi. Shu mamlakatda Xolbekaga oshiq bo'lmagan odam qolmadi. Kundan kun Xolbeka xusni ziyoda bo'lib, shuxrat-ovozai ortar edi.

Kunlardan bir kun Xolbeka qirq zinali ko'shkining ustiga chiqib, olamni tomosha qilib o'tirib edi, shu shaxarning podshosi Buvraxon Xolbeka jamolini ko'rib, yuz shaydoyi dil bilan oshiqi beqaror bo'lib, ixtiyorini qo'lidan oldirib, dilida sabr-u qarori qolmay, arkiga borib tushib, bostirib, sovchini qo'ya berdi. «Tegsa xam olaman, tegmasa xam olaman, boshqaning kelganini ko'raman», -deb odam yubordi. Xolbeka javob aytdi: «Podsho nomardlik qilmasin, o'ziday podsholarga ta'na-malomat bo'lmasin. Mening shu shartim, eshitmagan, bilmagan odam yo'q. Ayol bo'lsam xam qavlimdan qaytmayman, shoxingdan qo'rqmayman. Bizga oshiq bo'lgan bo'lsa, kelsin, nard o'ynasin; utsa tegaman, utdursa podsho deb siylamayman, so'yaman, jonidan kechsa bizga kelsin», -deb sovchisini qaytardi. Sovchi bu voqealarni podshosiga bayon qildi. Podsho eshitib, xayronlol bo'lib, arkoni davlatiga qarab, ulardan maslaxat so'rab:

-E umarolarim, e vaziri donolarim, bu ishning oxiri qanday bo'ladi? Borib nardini o'ynasak, utdirsak, bizni shox deb siylamasa, qo'yaylik desak, ishqibozlik yomon bo'lsa, borsa qo'ysak, bir kun... birov kelib utib olib ketsa, bu qanday bo'ladi?-dedi.

Arkoni davlat shu maslaxatni aytdi:

-Taqsir podshoyim, buning iloji shulki, baxtini bog'lang, xech kim Xolbeka deb otini aytolmasin, balki bu shaxarga kelolmasin, o'zi xam to'rt-besh yil o'tgandan kay, er talab bo'lib, sizga tegmay kimga tegadi, -deb ma'qul qildi.

Podsho ko'cha, guzarlarga jarchi qo'yib: «Xar kim Xolbeka deb aytsa, olti oy zindonda boqdiraman, suyagini toshga chaqdiraman, terisini tiriklay so'yaman, ichiga somon tiqdiraman, ikki ko'zini o'yaman, tepasiga moyini quyaman», -deb qichqirta berdi. Xech kimning zaxrasi yo'qki, Xolbeka deb aytsa.

Shu o'rtada to'rt-besh yil o'tib ketdi. Xolbeka xam podshoga bo'ysunmadi, qirqin qizi bilan, necha turli nozi bilan davrini surib o'tira berdi.

Kunlardan bir kun Xolbeka noz uyquda yotib edi, bir tush ko'rdi: chiltanlar va mardon g'oyiblar bir tongda suxbat qilib o'tirib edi, bir chiltan kelib Xolbeka ruxini olib bordi, bittasi kelib, Kuntug'mishning ruxini olib bordi. Chiltanlar to'y qilib, Xolbekani to'raga topshirdilar. Ikkovi bir to'shakda yotib bir-biroviga so'z qotib, Xolbeka so'radi: «Sen kimsan, joy-manziling qayda, oting kimdir?» To'ra aytdi: «Otim Kuntug'mish, otamning oti Avliyoyi Qoraxon, otam No'g'ayga podsho, No'g'ay to'rasi bo'laman. Sen kimsan, oting kimdir, yurtning qaerda?» Xolbeka aytdi: «Otim Xolbeka, otamning oti Shoir vazir, yurtim shaxri Zangarda».

Ikkovi bir-birovi bilan o'ynashib to'rasining uzugini Xolbeka olib qo'lga soldi; Xolbeka uzugini to'ra olib qo'lga soldi. (Shu kecha Kuntug'mish xam shunday bir tush ko'rdi.) Shu ishda ikkovi xam uyg'ondi.

To'ra bir ox tortib, bu dardini xech kimga aytolmay, nisinga qarasa, boshqa nigin; qog'ozga muxr qilib bossa, Xolbekaning oti chiqadi.

Xolbeka xam uyqudan uyg'onib, to'raning ishqida ilonday to'lg'anib, aslo orom-qarori qolmadi. Bu xam uzugini ko'rsa, o'ziniki emas; qog'ozga bosib ko'rsa, Kuntug'mish to'raning oti chiqadi.

Xolbekaning Baxragul degan kanizi bor edi, aksari sirlarini Baxragulga aytar edi. Baxragul Xolbekaning bezovtaligini anglab:

-Oybibim, seni ilgarilarday ko'rmayman, xotiringning mushavvashligini menga bildirsang, tanda jonim bor, tadorikini-ilojini qilsam kerak.

Xolbeka:

-E Baxragul, menga bir dard-e tekkan, iloji ne bo'lishi aslo sira yo'q,-deb niginni ko'rsatib, ko'rgan tushlarini Baxragulga bir-bir bayon qilib, yana aytdi: -Bir suratkashni keltirsang.

Baxragul suratkashni olib keldi. Xolbeka oyim o'zining suratini qog'ozga soldirib, bir sandiqcha tayyor qilib, ichini mumlab, sirtini tillo bilan berkitib, o'zining sochidan bir tola soch olib, to'raning uzugini o'zining suratiga o'rab, necha arzi xollarini xam arz qilib, sandiqni qulflab, kalitini sandiqqa bog'lab, Xolbeka shaxardan chiqib, shu sandig'ini suvga (bir katta daryo shaxarning ichidan o'tar edi) solib: «Shu ko'rgan tushim raxmoniy bo'lsa, oshiq-ma'shuqlik avvaldan pok bo'lsa, Xudoyo xudovando, shu sandig'im senga omonat, to'radan boshqaga tegmasin», -deb daryoga ravona qildi. Falakning sinoati bilan necha kun, necha vaqlar oqib, xech kimning qo'liga tushmay, No'g'ayga doxil bo'ldi. endi to'radan so'z eshiting.

To'ra qirq yigiti bilan daryoning yoqasida shikor qilib yurib edi. To'raning ko'ziga bir sandiq ko'rindi. Yigitlariga aytdi:

-Ot solib olib chiqinglar.

Yigitlar Kuntug'mishga arz qildiki:

-Daladan xar narsa qo'limizga tushsa, siz podsholik deb olib qo'yasiz, biz xizmatkorlaringiz quruq qolamiz. Bu molni bir shart bilan olib chiqamiz, taqsir, shu sandiqni bo'lamiz, ichini olasizmi, yo tishini?

To'ra aytdi:

-Sizlar saylab olinglar.

Yigitlar bir-biriga qarab, ittifoq qilib:

-Tishi tilla ekan, bizlar tishini olamiz,-dedi.

To'ra aytdi:

-Biz ichini olamiz.

Bir yigit ot solib olib chiqdi. Kaliti xam og'zida ekan, ochib ko'rdilar. Ichidan bir qog'oz chiqdi, qog'ozni yozib ko'rsa, Xolbeka oyimning to'lgan kamoli, oyday jamoli munavvar bo'lib turibdi. Shaxzoda ko'rgan xamono tushida ko'rgan maxbubini tanib, ichki dardini xech kimga aytolmay yurgan edi, suratini ko'rgandan kay, osang, ustiga posang, xazor ustiga pansad bo'lib, bir ishqiy yuz bo'lib, toqat keltirolmay, bexush bo'lib yiqildi. Qirq yigit shoshib, dami ichiga tushib, aqlidan adashib, barisi chuvlashib, to'rani o'rtaga olib, xay-xayni solib:

-Ko'zingni och!-dedi. To'rani aslo o'ziga keltirolmadi. Oxir ikki otga saraja qilib, manzilga olib keldilar.

Qoraxon bechora yolg'iz farzandini bu xolda ko'rib, yoqasini pora-pora qilib, qushnochni olib kelib qoqtirib, baxshini olib kelib boqtirib, mullani olib kelib o'qitib, eshonni olib kelib xalqa qilib qarataberdi. O'g'liga aslo naf qilmadi. Qoraxon podsho o'g'lining oldida betoqat bo'lib:

-Nega ko'zingni ochib gapirmaysan?-deb shuncha iltijo qildi, o'g'li bilmadi, shu qushnochlardan bir ayyori bor edi. To'raning vujudidan kasal topmay, ishqdan gumon qilib, podshoga aytdi:

-Siz dalaga chiqib turing.

Qushnoch qirq yigitini xozir qilib, bir-ikki-uch piyola sharobni to'raga berdi. Sharobning kayfi bilan to'ra ko'zini ochib qarasa, qirq yigiti yig'lab, o'rtaga olib o'tiribdi. To'ra ishq dardini pinxon tutolmay, yigitlariga qarab bir so'z aytib turibdi.

So'zi budir:

Bog' ichinda olma-anor istaydir,

Bo'yi maxbub, mushki dildor istaydir.

Qadrdonlar, birga yurgan beklarim,

Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.

Beklarim, qilmanglar bag'rimni kabob,

G'aribning ko'nglini ovlamoq savob.
Ertaroq podshodan olinglar javob,
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.
Quloq songlar bu to'raning tiliga,
Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga.
O'zlaring chog'langlar Zangar yo'liga,
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.

Alqissa, Qoraxon podsho o'g'lining dardini ishqdan bilib, ko'ngli buzilib, yurak-bag'ri ezilib, qaddi bukilib, ko'zidan yoshi to'kilib, o'g'liga qarab bir so'z aytib turibdi:

Falak peshtoqidan uchgan yulduzim,
Ulug' daryolardan chiqqan qunduzim,
Xar so'zingdan tandagi jon aylansin,
Ne tilovman tilab olgan yolg'izim.
Ot chopmoqqa qoyim Xizrning dashi,
Xizr Ilyos doim mardning yo'ldoshi,
Och ko'zing, boshingni ko'tar, yolg'izim,
Bir yor uchun yotarmikan mard kishi?
Eshitib ol bu otangning so'zini,
Do'st-dushmanga tuban qilma yuzini,
Yig'dirayin No'g'ayning uli-qizini,
Obberay qizlarning jodu ko'zini.
Ko'kragimga solma qayg'u-alamni,
Ko'zlari qambarday qoshi qalamni,
Bir yor uchun aslo, bolam, g'am ema,
Obberay paridan ortiq sanamni.

Alqissa, Qoraxonning bu so'zini o'g'li eshitib, yigitlariga buyurdi: «Kechagi qog'ozdagi suratni otamga ko'rsatinglar». Yigitlari suratni ko'rsatdi. Qoraxon qarasa, qog'ozda bir qiz turibdi qayqayib: qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo'lib, shirin qilib kulib, taraqqos boylab, suqsurday bo'ylab, tovsurday taranib, bellari buralib turibdi. Qoraxon insof qilib qarasa, No'g'ay yurtining qizi tugul, yer yuzining barnolari bir tola mo'yiga arzimaydi. Qoraxon bildiki, to'raning ilojini qilolmas, to Zangar bormasa, Xolbekadan boshqani xoxlamas. Podsho noiloj, nochor javob bermoqchi bo'lib, lashkarlarini yig'ib, xar dastasidan bittadan, qirq yigit ayirib berdi. Qirq xachirga zar ortib, aytdi:

-Ey farzand, burungilardan bir so'z bor: «Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo'r yarar kuningga», degan ekan. Zarga kelsa, xachirdagi pulni ayama, zo'rga kelsa, qirq yigitga buyursang, Xudodan kelgan ajal bo'lmasa, bandadan kelgan ajaldan bir-ikki-uchga dovur ayirib olar. Bor, bolam, Allox yoring bo'lsin, pirlar madadkoring bo'lsin, sog' borgaysan, salomat kelgaysan, omin Alloxu akbar,-deb oq fotixa berdi.

Kuntug'mish qirq yigitini olib, xachirlarga mol-dunyo ortib Zangar yurtiga keladi. Bir bazzoz qiyofasiga kirib, ko'shk yonida mato sotib o'tirganida Xolbeka o'z kanizaklariga bu yigitni saroyga olib kirishlarini buyurdi. Kuntug'mish saroyga kirgach, shartga binoan nard o'ynatadi va Xolbeka yengiladi. Ikkalasi bazm-u suxbat bilan ovora bo'lib, Xolbeka ko'shkiga chiqmay qo'yganini ko'rgan Zangar podshosi Buvraxon undan xabar olgani o'z jallodlari-yu mirg'azablarini jo'natadi. Kuntug'mish va Xolbeka qochib yashirinishadi. Biroq ayg'oqchilar ular yashiringan joyni aytib berishgach, xar ikkalasini xam ushlab, Buvraxon xuzuriga bandi qilib olib borishadi. Buvraxon o'z saroy a'yonlariga bu ikkisi qanday jazoga loyqligi borasida maslaxat soladi.

Xamma umarolar maslaxat qilib kengashdilarki: «Bu gapni shox yaxshi aytdi. Bir ish-e qiling, shu begunoxlar o'lmasin. «Xon g'azabi-Xudo g'azabi», degan ekan. Bularni shaxardan tirik chiqarib yuboraylik, bandi bo'lsa xam tirik ketsa, ajali yetmasa, bir erdan chiqar, agar o'lib ketsa, gunoxi shoxning bo'yniga-da,-deb arkoni davlat gurullab birdan arz qildiki:-

E taqdir podshoxim: osib o'ldirdingiz-ko'rdik, bosib o'ldirdingiz-ko'rdik, minordan tashladingiz-ko'rdik, to'pga solib ottingiz-ko'rdik. Bu beadablarga shunday jazo buyuramiz: bir tuv biyani olib kelib so'ysangiz, terisini tulup qilib olsangiz, xom teriga ikkovini zich qilib tiqsangiz, bir asov baytalning dumiga taqib, cho'l-

jaziraga xaydab yuborsangiz, bularning o'ligini g'ajir-quzg'unlar yeb ketsa». Podshoga ma'qul qildilar. Podsho buyurib, bir tuv biyani tulup qilib so'yib, ikkovini zich qilib, xom teriga tiqib, darvozadan chiqarib, bir asovning dumiga taqib, bir cho'l-jaziraga qaratib, ko'p odam chuvlab xurkitib, xaydab yubordi.

Asov baytal xurkib, ikkovini sudrab, cho'lga uloqib ketdi. Baytalning dumi bir tol, yarim tol uzila-uzila, olti kun deganda [tulup] bir erda tushib qoldi. Xom teri oftobning xarorati bilan qurib, chunon qisdiki, temirday berkitdi.

Yoronlar, Xudoning qudrati kuchli,
Xu tog'dan bir quzg'un davr olib uchdi,
U jonivor parvoz aylab osmonga,
Nogaxondan ko'zi qudoqqa tushdi.
Qanotin chimirib qo'nib ustiga,
Amri Xudo bo'ldi, cho'qidi, teshdi.
Qo'lin solib ikkalasi yirtishdi,
Sog'-salomat shu qudoqdan chiqishdi.

Shaxzoda omon-eson, sixat-salomat yori bilan qudoqdan chiqib qarasalar, bir cho'l-jazira, qo'rqinchli changalzorda tushib qolibdilar. el qayoqda, yo'l qayoqda-xech narsani bilmadilar. Atrofga qaraydi, na tog' va na boshqa xech narsa ko'rinmaydi. To'raning ko'ziga uzoqdan soyaday qorayib bir narsa ko'rinadi. Shaxzoda ko'nglida: «Shu qora yo tog' bo'lg'ay, yo bir qora daraxt el bo'lg'ay», -deb ikkovi qo'l ushlashib shu tarafga qarab ravona bo'ldi.

Alqissa, shaxzoda issiq qumda oyoqlarini oldirib, yo'l yurolmay, jaziraning xaybatidan badanlarida nam qolmay, tashnalik-suvsizliklari g'olib bo'lib, ko'zlari tinib, boshlari aylanib, giyoxlarning tomirlarini qazib so'rib: «Shu suv bo'larmi?» -deb, ba'zi tomirlarni qazib: «Ovqat bo'larmi?» -deb necha kunlar och, suvsiz cho'llarda kezib, quvvatdan madori ketib, avvalgi kunlari yodlanib, falakdan shikoyat qilib, bir so'z dedi; shikoyati bu turur:

Bir vaqtinda edim No'g'ayning shoyi,
Xizmatimda edi uch lak sipoyi.
Qancha xor aylasang, falak, rizoman,
Bo'ldim endi qultum suvning gadoyi.
Ox urganda esga kelar boyag'im,
Burungiday ermas mening siyog'im,
Suvsiz cho'lda giyox bo'lib ovqatim,
Yuray desam bostirmaydi oyog'im.

Shaxzoda olti kun och, tashna ketib borayotib edi. Xolbeka oyim tashnalib, lablari gazarib, tanda majoli qolmay qumga yiqildi. Shunda to'rasiga qarab: «Men senga iyarolmayman, bir manzilga etolmayman, qumda o'lib qolaman, menga qarab sen xam nobud bo'lma, sen elga etib, odamlarga qo'shilsang, yurtingga borsang, men sendan roziman, zinxor menga qayrilma, orqangga boqmay keta ber, mening kasofatimga shuncha ranjlar ko'rding, qattiq mashaqqatlar ko'rding, mening uchun ko'rding. e mard to'ram, mendan rozi bo'l, men xam sendan roziman, ket», -deb bir so'z dedi:

Gapirsam keladi gapning ma'quli,
Mard o'g'lonning pirga bo'lar doxili,
Qaramayin keta bergin orqangga,
Baxtim qora, yaramayman shikili.
Toza gulday so'lar bo'ldim men emdi,
Daryoday bo'p to'lar bo'ldim men emdi,
Sendan judo bo'lar bo'ldim men emdi,
Suvsiz cho'lda qolar bo'ldim men emdi.
Armon bilan o'lar bo'ldim men emdi,
G'arib mozor bo'lar bo'ldim men emdi,
Qaramayin keta bergin orqangga,
Taqqdirimga ko'nar bo'ldim men emdi.

Alqissa, Xolbeka oyim yig'lab yiqilib qoldi. Shunda to'rasi Xolbeka boshiga soya solib, yorini suyab, ko'nglini ovlab: «Bir g'ayrat qil, yo'limiz yaqin qoldi», -deb ko'nglini ko'tarib bir so'z dedi:

Uzog'dan chopilar otning sarasi,
Ko'rinadi bir narsaning qorasi,
Bir faslga g'ayrat qilgin, bo'yingdan,
Yaqin qoldi manzilimning orasi.
Bandadirman, Alloni yod etarman,
Yolborib xaqqa munojot etarman,
Bir faslga g'ayrat qilgin, bo'yingdan,
Ko'zim bilan qaytib tashlab ketarman.
Po'lat nayza qor ostida yotarmi,
Temir nayzang egovlasang o'tarmi,
Sening to'rang nomardlardan emasdir,
Mard o'g'lon sevdigin tashlab ketarmi?..
Iloxi kelmasin senga maxosil,
Qaytayin, bo'lmadi maqsudim xosil,
Yurarga quvvating, xoling qolmasa,
Kel, orqamga ko'tarayin bir fasl.

Kuntug'mish to'ra yoriga g'ayrat berib, shu qora tarafga tasmollab, oqshom yurib, kunduzlar issiq bo'lsa changallarning soyasida orom olib, bo' uch kun deganda Mug'olning tog'iga etdilar. Ikkovlari xam xursand bo'lib: «Shukur, ajalimiz etgani yo'q ekan, o'lmay shu toqqa keldik, albatta, chashmazor suvlar, xar alvon mevalar bo'lsa kerak», -deb chunon g'ayrat qilib yurdilar. Tog' darasining ichiga kelib ko'rsalar, yovvoyi yong'oqlar, pistalar, jiydalar va yovvoyi toklar-xar alvon mevalar pishib turibdi. Ikkovlari qorinlarini to'yg'azib, bir joydan oqmaydigan bir chashma xam topdilar. Shu chashmaning bo'yini manzil qilib o'tira berdilar. Kuntug'mish: «El daragini topamanmi, yo'l daragini topamanmi?»-deb xar kun chiqib shu tog'larni izlar edi. Mug'ol shunday tog' edi... Yovvoyi meva chunon ko'p edi. Yoz kunlarida yovvoyi mevalarni qurutib, bir erni qazib, qishlik ovqatini berkitib olar edi.

Kuntug'mish to'ra ertangisin turib ketar edi, bir baland cho'qqiga chiqib qarar edi, el topolmas edi. Shu qish-u yoz shu yerda qoldilar. Xolbeka oyimning bo'yida xomila paydo bo'lib, oyi kuni etib, vaqti-kuni yaqin bo'ldi. Shaxzoda doyimgi odatini qilib, toqqa chiqib ketib edi.

Xolbeka ikkita o'g'il tug'ib, bolalarini qo'liga olib, avvalgi kunlari esiga kelib: «Ochdan o'ldirib qo'ysam qanday qilar ekanman?»-deb yig'lab o'tirib edi. Qarasa, Kuntug'mish to'ra xam el-yo'l daragini topolmay g'amgin bo'lib kelayotib edi.

Kuntug'mish, nixoyat, eng baland cho'qqiga chiqib, pastga qarasa, bir katta karvonga ko'zi tushadi. Sevinib quyiga tushadi va bir kosa suv, bir non so'rab karvonchilar yoniga boradi. Karvonboshi Azbarxo'ja degan xasis, xudbin, razil kimsa edi. U Kuntug'mishga bir kosa suv va bir non evaziga buloqni egallab yotgan ajdaxoni o'ldirish shartini qo'yadi. Kuntug'mish bu shartni ado etadi. Azbarxo'ja Qur'oni karimni o'rta qo'yib, Kuntug'mish bilan do'st tutinadi. Xolbeka va bolalarini xam topib kelishadi. Xolbekaning xusni jamolini ko'rib, Azbarxo'janing fe'li ayniydi. Kuntug'mishni ziyofatda mast qilib, kigizga o'rab, ikki o'g'lini (go'dagini) xam shu saxroda qoldirib, Xolbekani bandi qilganicha Zangar yurtiga olib ketadi. Karvonda Qosim ismli yosh bir insofli, diyonatli yigit bor edi. U, agar Kuntug'mish zora o'ziga kelsa, bizning izimizdan yo'lga tushsa deb, bir kunlik-yarim kunlik yo'lga bir ko'za suv, ozroq ovqat qoldirib ketaveradi. Darxaqiqat, Kuntug'mish o'ziga kelib, ikki go'dagini olib, karvon izidan tushadi. Yo'lda bir daryoga duch keladi. Azbarxoja daryodan kechadigan qayiqqlarni xam suvga cho'ktirib ketgan edi.

* * *

Shaxzoda u yoq-bu yoqqa yugurib ko'rdi, kema-qayiq topolmadi. Oxir ilojini topmay, ikki bolasini yo'rgaklab, o'zin suvga chog'lab, daryodan yuzib o'tmoqchi bo'ldi. Bittasini og'ziga tishlab, u bittasini shu daryoning labiga qo'yib, daryoga kirib biror o'ttiz quloch urib edi. endi baxti qaytgan to'rani ko'ring, «Davlat xam egiz, mexnat xam egiz», shu bachchani qo'ygan erning oldida bir tup g'isha bor edi, shuning ostida bir qizil iyak qari bo'ri pisib yotib edi. Shaxzodaning daryoga tushganini ko'rib, to'ra uzagandan keyin, bachchani belidan tishlab olib keta berdi. Bola qo'rqib: «Ota!»-dedi. Shaxzoda qarasa, bo'ri tishlab olib borayotibdi. «Vox!»-deyman deb edi, og'zidagisi xam suvga tushib ketdi, bir baliq yutib o'ta chiqdi. Shaxzoda aytdi: «Bu-ku

o'ldi, ana usiga yetar ekanmanmi?»-deb suvdan chiqib quvdi. Ikki oyoqliga to'rt oyoqli nega etqizsin, u xam qutulib ketdi...

Shaxzoda farzand dog'iga toqat keltirolmay, nolishiga osmon-er tebranib, yig'lab turib edi. Shu vaqtda to'raning nolasini eshitib, bir cho'pon kelib qoldi. Qarasa, bir odam, sher xaybatli, yo'lbars sifatli bir kishi, falakdan shikoyat qilib yig'laganiga tog'-u toshlar suv bo'lib turibdi. Cho'pon bechora qo'yni qo'yib, to'raning oldiga kelib: «Nega muncha yig'laysan?»-deb bir so'z dedi:

E, yor, alam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il,
Ko'p ranj-u sitam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il.
Kim erding guli so'lgan, shum paymonasi to'lgan
Yoki bolasi o'lgan, qaydin kelasan, ayg'il.
Diyoridan ayrilgan, qanotidan qayrilgan,
Yo yoridan ayrilgan, qaydin kelasan, ayg'il.
Sen muncha bo'lib shaydo, muncha qilib vovaylo,
Yusufmisan Zulayxo, qaydin kelasan, ayg'il.
Sen muncha bo'lib purxun, ko'z yoshing oqar Jayxun,
Yo Laylimisan Majnun, qaydin kelasan, ayg'il.
Yig'laysan bozi-bozi, ko'kka chiqar ovozi,
Yo Zebomisan Yozi, qaydin kelasan, ayg'il.
Yoinki qalandarsan, yo mardi dilovarsan,
Qilgin buni bovarsan, qaydin kelasan, ayg'il.
Ayg'il menga otingni, bergil bayon zotingni,
Qo'y endi uyotingni, qaydin kelasan, ayg'il.

Anda shaxzoda dilovar cho'pondan xabari yo'q, o'z xollariga yig'lab turgan edi, ko'zlarini ochib qarasa, bir qo'y quvuvchi kelib, «Qaydan kelasan?»-deb so'z so'rab turibdi. Anda shaxzodaning tutun-olovlari jo'sh qilib, ko'ngillari qaynab, bir dardmand topolmay, ichi g'amga to'lib turgan emasmi, cho'ponni mungdosh bilib: «E bechora, beri kel»,-deb cho'ponga qarab, boshidan o'tgan mashaqqatlarini aytib, bir-bir bayon qilib, bir so'z dedi:

No'g'ay yurti-o'sgan joyim,
Ko'kka chiqar qilgan oxim,
Qoraxon der qiblagoxim,
Otam elga sulton bo'ldi.
No'g'aydadir mamlakatim,
Qayrilib sindi qanotim,
Kuntug'mish der mening otim,
To'ra nomi nishon bo'ldi.
Quloq solgin nolishima,
Yo'q savdo tushdi boshima,
Men kirdim o'n to'rt yoshima,
Bir kuygur tushdi tushima,
Xotirim parishon bo'ldi.
Shul bo'ldi Xaqning taqdiri,
Ayrilmay manglayning sho'ri,
Bittasin op ketdi bo'ri,
Uni ko'rmak gumon bo'ldi.
Qarorim yo'q, turay desam,
Madorim yo'q, yuray desam,
Uyim yo'qdir, boray desam,
Vatamim yo'q, kiray desam,
Yorim yo'qdir, ko'ray desam,
Qo'zim yo'q, o'rgilay desam,
Ajal etmas, o'lay desam,
Cho'pon, boshim sarson bo'ldi.

Cho'pon: «E bechora»,-deb o'tib ketdi. Anda shaxzoda Xolbekani xam unutib, borayotgan yo'lini xam qo'yib, boshqa bir yomon yo'lga tushib, ko'ngli jo'sh urib: «Bor dunyongdan kechdim»,-dedi.

Shaxzodani keta bermoqda qo'ying, endi so'zni kimdan eshiting? To'raning qo'lidagi bolasini yutgan baliq mug'dor o'n gaz yer xam borgan yo'q edi. Olim sayyod degan qatag'anlik katta sayyod bir katta to'rni yozib o'tirib edi. Shu baliq boruvi bilan to'riga tushdi. Ko'tarib olsalar, bir katta baliq tushibdi. Ichini yordi, «Ota»,-deb ichidan bir bola chiqqa keldi. Olim sayyod xayron qolib: «Ajab qudratlaring bor»,-deb bolani uyiga olib borib, farzandi yo'q edi, tarbiya qilib boqa berdi.

Endi bo'ri olib qochgan boladan so'zni eshiting.

Bo'ri to'raning bolasini olib qochdi, bir, ikki qirdan oshdi. O'nta cho'pon itiga osh pishirib yotib edi, bo'rining guzari ustidan tushdi. Cho'ponlarning ko'zi tushdi, itni qo'shdi, bo'ri shoshdi, bachchani tashlab qochdi. Cho'ponlar bolani tushirib olib, xayron qolib, birovi aytadi: «Qirga chiqqan xotinning bolasi.

Birovi aytadi:-Mo'ltonining bolasi.

Birovi aytadi:-Qozoqning bolasi.

Birovi aytadi:-Bir uyquchi befarq xotinning bolasi».

Shu yerda o'n bir cho'ponning qo'shi doyim bir edi. Kunda kechkisin bari yig'ilib kelar edi. erta turib, qo'ylarni xar tarafga xaydab ketar edi. Kechkisin boyagi to'raga uchrashgan cho'pon qo'yini xaydab kelsa, jo'ralari: «E birodar, bizlar bukun bo'ridan bir bola tushirib olib qoldik»,-deb o'rtaga olib o'tiribdi. Cho'pon ko'nglida aytdi: «Xaligi sho'rlining bolasi».

Oradan bir-ikki kun o'tmay ovoza bo'lib qoldi: «Olim sayyod qatag'an baliqning ichidan bitta tirik bolani topgan emish». Buni xam xaligi cho'pon eshitdi. «Xaligi sho'rlining bolasi»,-deb yurdi. Cho'ponlar bo'rini gurk der ekan, o'z oti o'zi bilan, bolaning otini Gurkiboy qo'yidilar. Baliqni sayyodlar moxi der ekan, unisining otini Moxiboy qo'yidilar. Bolalarni tarbiyatda qo'yib, endi so'zni Xolbeka oyimdan eshiting.

Shunday qilib, Gurkiboy va Moxiboy Zangar shaxriga kirib boradilar. Ko'chada Xolmo'min yasovulboshiga duch keladilar. Xolmo'min ularni o'z uyiga xizmatkor qilib olib ketadi. Kuntug'mish xam shu shaxarda, o'z niyatiga etolmay, bir tadbir-chora topolmay, eski kulox-jandalarni kiyib yurgan edi.

Bachchalarning borganiga besh oy-olti oy bo'lib edi, shu shaxarning podshosi Buvraxon podsho o'ldi. U vaqtida podsholarga rasm shu edi: davlatqush degan qushini uchirar edi, kimning boshiga qo'nsa, podsho qilar edi. Shu davlatqushni uchirganiga uch kun bo'lib edi. Zangar shaxrining jamiy katta-kichik odami dalada edi. Qush gox daraxtga, gox devorga qo'nib yurib edi. Banogox shu vaqtda Kuntug'mish to'raning xam guzari shu erga tushib qolgan ekan. Kuntug'mish to'ra katta bir chilimni beliga boylab olibdi, o'zini xech odamga o'xshatmay, yomon jandalarni kiyib, o'zini shaylab olibdi. Xech kim bilan ishi yo'q, odam bilan xushi yo'q, o'zidan boshqa kishi yo'q; chekadi bang, aytadi vadavang. Bir qurib qolgan daraxtning ostiga borib, ko'mir qilmoqchi bo'lib, olov yoqib, nashaning taraddudida edi, davlatqushi borib to'raning boshiga qo'ndi. Shaxri Zangarning odamlari qushni quvalab borsa, qush bir devonaning boshiga qo'nib turibdi. Arkoni davlat otdan tushib, izzat-ikromlar bilan salom berib:

-Taqsir podshoyim, yurtingiz qutli bo'lsin,-desalar, to'ra teskariga qarab, dim indamaydi. Oxirda odamlar qushni olib ketdilar. Podshoning arkidan boz uchirdilar. Bo yana kelib (Kuntug'mishga) qo'ndi. Bu mavrud xam «Yurtingiz qutli bo'lsin»,-desalar, dim indamaydi. Tag'i qushni olib ketdilar. Olib borib qushni yana arkdan uchirdilar. Boz kelib, uchinchi martaba xam bangining boshiga qo'ndi. Bu mavrud shaxri Zangarning ulamolari, fuzalolari, katta ulug'lari kelib, muborakbod qilib:

-Taqsir podshoyim, yurtingiz qutli bo'lsin,-desa, teskariga qarab, javob bermadi.

Shunda kattalar turib aytdi:

-Ey yoronlar, uch debdi, uchdan keyin puch debdi. endi shu odamni olib borib, podsho qilmoq darkor. Xar vaqt bir odam podsho bo'ladi-da. Shu ishga qaraganda, shu odam nazokatli odam, yo bo'lmasa, qushni arvox urgan. Agar bangi bo'lsa, jinni bo'lsa, bir kun podsholik taxtini tashlab ketib qolar. Biroving podsho bo'lasanda va agar bajarsa, shunday bir odam podsho bo'ladi-da,-deb qo'lidan chilimini tortib olib, otib yubordilar. Biroq kigizning ustiga chiqarib, chir tevaragidan ko'tarib, jarchilar:

-Zamon kimning zamoni, Qalandarxonning zamoni,-deb ko'cha-ko'chalarga jar solib qichqira berdilar. To'rani ko'tarib, taxti shoxiga keltirib, tilla taxt ustiga o'tqizdilar. Ustiga podshoxona xilvatlar kiygizib, boshiga tilladan bo'lgan tojni qarqara qilib, o'tqizib, xukumat niginni qo'lga solib, jamiy mardumi shaxar dasti bay'at

berdilar. Ana Kuntug'mish to'ra bir qarichdan beri yurt so'rab yurgan emasmi, jamiy olamni uzukday changaliga olib, chirsillatib so'rab keta berdi. Anda jamiy chulonxo'r umarolariga farmon bo'ldiki: «Mening chulon oshimga kelgan amaldorlarkim, bir hafta-bir haftadan jilovxonamda istiqomat qilib ketsin». Avval navbat Xolmo'min yasovulboshiga tegdi.

Yasovulboshi xovlisiga kelib, avval bachchalariga tayin qildiki:

-O' bachchalar, men yangi bo'lgan podshoning jilovxonasida bir hafta turib kelaman, lekin sizlar oqshom uxlamanglar, kunduz uxlanglar. Sipoyi xalqining dushmani ko'p bo'ladi, namozdigardan keyin aslo darvozani ochmanglar, mabodo bachchalik qilib, g'ofil qolib, bir xodisa ro'y bermasin,-deb ko'p tayinladi. Andin keyin ichkariga kirib ayoliga tayin qildiki:-O' xotin, men ikkita yetim bola saqlab qo'yibman, ilgarigi yetimlarday beparvo qolib ketib qolmasin, xoli axvolidan ko'p xabardor bo'l, e, yetim-da, dema. Men bularning oxirini ko'raman, deb yuribman. Umidim shulki, bular soyasi erga tushmagan xonzoda chiqar, agar xech nima bo'lmasa, bir asl sayyidzoda chiqar. Bularni aslo yetim demagaysan,-deb xotiniga ko'p tayinladi. Andin so'ng xovlisidan chiqib, podshoning davlatxonasiga ketdi.

Xolbeka oyim chechasiga aytdi:

-O' yanga, akam sira yetimni yetim demas edi, ikki yetim bor, deb og'zidan tushirmaydi. Shu yetimlarni bir ko'rsak, qaytadi?

Xolmo'minning xotini aytdi:

-Akang bo'lsa chiqib ketdi, ko'rsang yur esa ko'rsatib kelayin,-deb bitta non, bir kosa suv olib mexmonxonaning eshigidan uzatib edi, Moxiboy kelib qo'lidan olib ketdi. Anda o'tirib nonni o'rtaqa qo'yib yemakchi bo'lib turib edi. Xolbeka oyim mexmonxonaning tokcha teshigining ichidan qarab, ikki go'dakni ko'rди. Ikkovini ko'rgan xamono, uvuz eti uv bo'lib, to'la badani suv bo'lib, jamiy a'zosida larza paydo bo'lib, emchagiga sut kelganday bo'ldi.

Xolmo'min yasovulboshinikida xizmat qilib yurgan Gurkiboy va Moxiboy xo'jayin uyda yo'qligida bo'za ichib, og'zi qizib turganida Gurkiboy ukasiga sirni ochib qo'yadi.

Gurki bechora avval aytar edi: «Podsho xalqining dushmani ko'p, agar aytsam, bu o'zi yengil ekan, birovga aytib qo'yar», -deb aytmas edi. Bu vaqtda o'zini to'xtatolmay, yuragi toshib, Moxiboyga: «E go'dagim, kishining zoti-zuryodi, ota-enasi, eli yurti bo'lmasmi? San go'daksan. Yurting No'g'ayda san bedarak emassan», -deb bir so'z dedi:

Bilmaganing bildirayin, bilmasang,
Bayakbor maqsadga etsang, o'lmasang,
Men senga zotingni bayon aylayin,
Ertangman birovga aytib solmasang.
Uzoqda, Moxiboy, o'sgan diyorim,
Bexabar qolgandi ko'p ichkuyarim,
Ikkovimiz sut emishgan shirxo'ra,
Men akangman, sen bo'lasan jigarim.
Bu yetimlik seni qildi sargardon,
Cho'pchak terib, tilab eysan parcha non,
Zotingni aylasam men senga bayon,
Tub bobongdir Avliyoyi Qoraxon.
Maydon-maydon otam otin elgandir,
Mard o'lg'ondir, shirin jonin bo'lgandir,
No'g'aydan otamiz Zangar kelgandir,
Nard o'ynab enamni utib olgandir.
Musofirlik, shoxga bandi bo'lgandir,
Tanimay bularga zulm qilgandir,
Bir teriga tikib ikki oshiqni,
Asovga sudratib cho'lga solgandir.
Bizni deb zor-zor bo'lgan otamiz,
Baloga giriftor bo'lgan otamiz,
Ikkovimiz uch yoshlarga kirganda,
Ko'p karvonga duchor bo'lgan otamiz.

Quloq solgin alvon-alvon tillarga,
Bulbul oshno bo'lar bog'da gullarga,
Enamizni karvon olib ketgandir,
Ikkovimiz qola bergan cho'llarga.
Shunday bo'p ayrilgan ikkovginamiz,
G'am bilan sarg'aygan gulday tanamiz,
Ikkovimiz sut emishgan shirxo'ra,
Shu bebaxt Xolbeka bizning enamiz.
Bu so'zni Gurkiboy Moxiga aytdi,
Xolbeka xatosiz barin eshitdi,
Bollarini bu so'zini eshitib,
Quvongandan bebaxt o'zidan ketdi.
So'z eshiting suxanvarning so'zidan,
Yosh quyilib ikki qora ko'zidan,
Vo bolam, deb tomdan o'zin tashladi,
Bolam dedi, sho'rli ketdi o'zidan...

Alqissa, Xolbeka oyim bolalari bilan topishdi. Aytdi:

-Ey go'daklarim, men sizlarni o'ldi deb edim, sira tirik demas edim. Nima uchunki, sizlar juda yosh edinglar, xech murabbiylaring yo'q edi, o'ldi demakka tilim bormas edi. Xayolim bilan tirik qilar edim. endi menga bola qayoqda, deb umidimni uzgan edim. Ming-ming shukur, sizlar tirik bor ekansizlar. Otangning o'lganiga endi xafa bo'lmayman,-deb bolalari bilan topishib, og'zi-burnini o'pishib, xumori tarqashib, gaplashib o'tirdi.

Xolbeka Kuntug'mishning podsho bo'lganidan bexabar, Zangar otalaringga vafo qilmadi, sizlarga xam vafo qilmaydi, deya o'g'illariga ot-ulov, qurol-yarog' berib, bobolarining yurti No'g'ayga jo'natadi. Ular Zangar shaxridan chiqishda darvozabon qo'rboshi bilan janjallashib, uni o'ldirib ketishadi. Sakkiz kecha-kunduz yo'l bosib Olatog' degan joyga yetishadi. Olatog'da o'n ming uyli qul yilqi boqib yurar edi. Yilqilarni ko'rib Moxiboyning fe'li aynaydi va bir to'p yilqini xaydab keta boshlaydi. O'rtada cho'ponlar bilan qattiq jang bo'ladi. Jangda aka-uka g'olib chiqib, barcha yilqilarni No'g'ay yurtiga xaydab ketishadi. Besh kunlik yo'l yurgach, ikkalasi xam xorib-charchab, bir erga qo'nib uxlab qolishadi. Bu orada cho'ponlarni ikki yigit o'ldirib, yilqilarni xaydab ketganini eshitib, ular ortidan lashkar jo'natgan edi. Lashkar etib kelib, uxlab yotgan Gurkiboy va Moxiboyni bandi qilib Zangar shaxriga olib ketishadi.

Bu ikki go'dakni bandi qilib, o'n kun yo'l yurib, o'n kun deganda Zangar shaxriga olib bordi. Gurkiboy tavakkal qilib ketib borayotibdi, Moxiboy so'zlab, yig'lab borayotibdi. Shunda bularning kelayotgani Zangar shaxriga ovoza bo'ldi. Xech bir eshitmagan odam qolmadi. «Yangi bo'lgan podsho yangi bo'lgan bandisini to'xtovsiz dorga tortadi», -deb ovoza bo'lib, yaxshi-yomon, yugruk-chobon, xurd-u kalon, qiz-u juvon ko'cha-ko'ylarda, tomlarning ustiga chiqib, ko'rmagan odam qolmadi. Bu ikkovini ko'rib, yig'lamagan odam bo'lmadi. «Xay attang, dunyosi qursin, shunday yosh bachchalar o'lib ketsa. «Xon g'azabi-Xudo g'azabi», degan, chiqmasak bo'lar ekan, chiqib alamimiz ziyoda bo'ldi», -deb mardumi shaxar yig'lashib, orqasidan ergasha berdilar. endi yangi bo'lgan podshodan eshiting.

Arkoni davlat, umaro, vazir-vuzaro, qozi-fuzalo, mufti-ulamo, maxram, yasovul, og'achi, shig'ovul-jamiy sipoxilari bilan o'tirib edi. Ikkita go'dakni olib borib, manzur qildi. Ikki bandiga ikki yangi dor tuzab, qurdirib turib edi. Podsho ko'rgandan mexri toblab, otalik mexri qaynab, bachchalarni ko'rgandan uvuz eti uv bo'lib, to'la badani suv bo'lib, ko'ngli buzilib, bag'ri ezilib, ko'zining yoshi tizilib, avvalgi aytib o'tirgan gaplariga pushaymon yeb: «Kel-e, bu bachchalarning og'ziga bir luqma solay, agar bizlar qilganimiz yo'q desa, ozod qilay, bu bolalar o'ldiradigan bola emas ekan-ku», -deb ikki bolasiga qarab bir so'z dedi:

Yurgan ering balandmidi, pastmidi,
Ko'p odam bandi qip senga qasdmidi,
Oqsuvdan ne deb xaydading yilqimni,
Xaydaganing yolg'onmidi, rostmidi?
Yosh bachchalar, ko'nglingni shod aylayin,

Bu foniylar dunyodan faryod aylayin,
Munkir kelsang, bollar ozod aylayin,
Xaydaganing yolg'onmida, rostmida?

Bachchalar podshoning bu so'zini eshitdi. «Munkir kelsa ozod bo'lar ekan, lekin mardlik qo'ldan ketadi», - deb Moxiboy:

-E podshoyim, mardlar o'laman deb so'zidan qaytmabdi, -deb otasiga qarab bir so'z dedi:

O'laman, deb mard qavlidan toyama,
Yo'qchilik jo'mardning ko'zin o'yama,
Oqsuvdan yilqingni o'zim xaydadim,
Qo'lingdan kelganing qilgin, ayama.
Mardlarning parvoyi bo'lmas o'limdan,
Musulmonman, kalma kelar tilimdan,
O'laman, deb mard xam ikki so'zlarmi,
Munkir kelsam, mardlik ketar qo'limdan.

Shu bolalarni xaydab borgan o'n ikki ming lashkar birdan chuvlab arz qildi:

-Taqsir podshoyim, bunday bo'yni yo'g'on bola erning yuzida yo'q; taqsir, o'n kundan beri xaydab kelyapmiz-a, ertadan-kechga davur bizlar bilan o'rlashib, o'ryog'ini bizlarga bermay kelayotibdi. Bunday bo'yni yo'g'on bolani bizlar sira ko'rmay kelayotibmiz. Buning bo'ynini podsho ingichkartsin, -deb olib keldik.

Shunda podsho xayron bo'lib, nima deyarini bilmay qoldi. Avvaldan xukm bo'lgan emasmi, jallod-mirg'azablar urib-so'kib yangi tikilgan dorga qaratib olib keta berdi. Shunda Xolbeka bechora xam ayollar bilan dorning oldidagi tomning ustiga chiqqan ekan, shunday tiklab qarasa, ikki bolasini xam jallod-mirg'azablar olib kelayotibdi. Bolalarini tanib, ichi o'tday yonib, chirqirab, tomdan o'zini tashladi...

Alqissa, Xolbeka aqli shoshib qolgan edi. Jallodlardan ko'p tayoq yeb, nima derini bilmay, dorni ko'rgandan, ayol emasmi, joni chiqib qo'rqib, xa derga xoli, yurarga majoli bo'lmay, dorga qarab bir so'z dedi:

Qaladin qalampir yuklar qalachi,
Durdonadan anbar tog'ning og'ochi,
Analxaq deb Mansur senga osildi,
Assalom alaykum, dorning og'ochi.
Shonaman taralar qizlarning sochi,
Madad qiling Bobo Zangi podachi,
Analxaq deb Mansur senga osildi,
Assalom alaykum, dorning og'ochi...

Enasining bu so'zlariga Gurkiboyning achchig'i kelib, enasiga qarab: «E sho'rli, qismati qattiq enam. Bu dunyoga kelib biror shod bo'lmay yig'lab o'tgan enam, taqdiringga ko'n-da, bu og'ochning qo'lidan nima keladi», -deb bir so'z dedi:

Bizlar chiqdik, ena, Zangar elidan,
Bog'bon uzar bog'ning toza gulidan,
Yig'lasang Xudoga yig'la, enajon,
Nima kelar quv og'ochning qo'lidan...
Podsholar tolibdir taxt bilan tojga,
Ko'ngli ketar doyim zakotman bojga,
Nima kelar quv og'ochning qo'lidan,
Kofirmiding, elanasan og'ochga?..

Gurkiboy qarasa, jallodlar Moxining boshida, Moxini o'ldirmoqchi bo'layotibdi. Shunda enasiga aytayotgan so'zini qo'yib: «O', jallodlar, avval meni o'ldiringlar, mening oldimda Moxi o'lmasin, mening ko'zim ko'rmasin. Mening yoshim katta, yo'l meniki», -deb jallodlarga qarab, bir so'z aytayotibdi:

Beklar minar bedov oting tolmasin,
Xech kimsa dunyoda bizday bo'lmasin,
Mendan burun Moxi bebaxt o'lmasin,
Moxining o'ligin ko'zim ko'rmasin.
Zolim jallod, bilmaganim bildirgin,
Yig'latma Moxini, o'ynab-kuldirgin,

Meni o'ldir, Moxini qo'y, jallodlar,
Yoshim ulug', avval meni o'ldirgin.

Shunda Moxi zor yig'lab: «E jallodlar, gunoxni men qilganman, Gurkiboy meni shuncha qaytardi, aytganini qilmadim. Gurkining gunoxi yo'q, meni o'ldiringlar, Gurkini ozod qilinglar, men Gurkining qoniga zomin bo'lmayin», deb jallodlarga qarab bir so'z dedi:

Qonlar oqsin mening ikki ko'zimdan,
Yangilmadim aslo aytgan so'zimdan,
Bu ishda Gurkining yo'qdir gunoxi,
Qancha gunox bo'lsa yolg'iz o'zimdan...
Xech odam dunyoda bizday bo'lmasin,
Bizday bo'lsa bu dunyoga kelmasin,
Meni o'ldir, Gurkini ozod aylanglar,
Qoraxonning yurti sabil qolmasin;
No'g'ayning yurti besoxib bo'lmasin,
Mening kasodimga Gurki o'lmasin.

Anda Kuntug'mish to'ra taxtidan tushib, aqlidan adashib, nima qilarini bilmay shoshib, chopib dorning ostiga kelsa, tomoshabin zich-to'p bo'lib turibdi, yo'l bermaydi. Shunda to'ra zor yig'lab, tomoshabinlarga qarab qoch, deb bir so'z dedi:

Bolam kepti necha tog'lardan osha,
Ikki zulfi gardaniga yarasha,
Po'sht-a, po'sht, tomoshabin jonlarim,
O'lganning nesin qilasizlar tomosha.
Qo'ldan ketib davr ilan davronlarim,
Vayron bo'lib ko'shk ilan ayvonlarim,
O'lganning nesin qilasizlar tomosha,
Yo'l beringlar, tomoshabin jonlarim.
Bolamning oldida men dod aylayin,
O'z xolima necha faryod aylayin,
O'lganning nesin qilasizlar tomosha,
Qochinglar, bolamni ozod aylayin...
Quloq soling gapimning payvastiga,
Mayiblarday ingranadi Kuntug'mish,
Bo'zlab bordi zolim dorning ostiga.

Odamlar podsho keldi deganiga jallodlar shoshib: «Shu vaqtga davur o'ldirmabsan, deb bizlarni o'ldiradi. Shuning uchun kelgan-da podsho», deb Moxiboyga pichoq solmoqqa shoshib, bo'ynida arqon bilan kurmak boylab, mirg'azablarga «tort» deb yubordi. Tortib yubordi. Kuntug'mish to'ra chopib kelib, Moxiboyni suyab, jallodlarga: «Qo'yib yubor ipni», dedi. Jallodlar ipni qo'yib yubordi. Moxining dami tutilib, dami ichiga tushib qoldi. Kuntug'mish to'ra Moxini ko'kragiga olib: «Shamolni ochinglar», deb xar ko'zidan yetmish qatra yoshini to'kib, qaddi bukilib, Moxining betiga tiklab turibdi. Gurkiboy xam yig'lab, ukasining oldiga borib: «Vox, ukamdan ayrildim», deb yig'lab turgan maxalda, Xolbeka sho'r xam: «Vox, bolam», deb qarasa, Kuntug'mish to'ra Moxini ko'kragiga olib, ko'tarib yig'lab turibdi. Shunda Xolbeka oyim to'rasini yulmalab, erini qarg'ab: «Podsho bo'lmay bo'lusiz qolgur», deb erini mushtlab qoldi. Xolbeka bechora bilsa, Zangarga yangi bo'lgan podsho Kuntug'mish to'ra ekan. Shunda erini tanib, bir so'z dedi:

Men seni shaxzoda dedim, mard dedim,
Sen qanday siynamga qo'ygan dard eding,
Chiqsin ko'zing, tanimading bolangni,
Ne tilingman buni dorga tort, deding...
Armon bilan bilmaganim bildirding,
Zor yig'latib, ko'zim yoshga to'ldirding,
Ne tilingman buni dorga tort deding,
Podsho bo'lib, o'z bolangni o'ldirding.
Yura bilmay yurar yo'ldan toyrildim,

Ucha bilmay qanotimdan qayrildim,
Chiqsin ko'zing, tanimading bolangni,
Armon bilan men bolamdan ayrildim.
Men seni shaxzoda dedim, mard dedim,
Sen qanday siynamga qo'ygan dard eding.

Xolbeka bechoraning: «Vox, Moxi», -deb yig'laganiga xech kimda tob-toqat qolmadi. Kuntug'mish to'raning: «Bolam», -deb na'ra tortgan dovushi osmonga etdi. Gurkiboyning: «Vox, ukam», -deb yig'laganiga xech kirn toqat qilolmadi...

Alqissa, shu turgan xaloyiqlar qarasalar, shu qalandarxon Kuntug'mish to'ra ekan, o'g'ri bo'lib qo'lga tushgan bachchalar qumda qolgan go'daklar ekan. Arkoni davlat, Xolmo'min bosh bo'lib kelib, Moxiboyni suyak ko'tarib, arkka olib chiqib ketdilar. Bir soatdan keyin Moxiboy ko'zini ochib, o'ziga keldi. Xolbeka bechora Moxini bag'riga olib, quvonib, yuragi yorilib qolay dedi. Moxiboyning boshidan tovoq-tovoq tilla-kumushlarni sadaqa, deb chocha berdi.

Endi turgan katta-kichiklar, umarolar, amaldorlar, podshoning oldida turgan in'omli kishilar Kuntug'mish to'ra bilan qayta boshdan ko'rishib, ixlos-e'tiqodi ziyoda bo'lib, Gurkiboy bilan Moxiboyni izzat-xurmat qilib, shoxona kiyimlar kiygizib, toji xisravni boshiga qo'yib, qayta boshdan muborakbod qildilar. Kuntug'mish to'ra xam ko'xna xazinalarini ochirib, tilla-kumushni elatiyasiga in'om-exson qila berdi. endi Zangar eliga podshox qirg kun to'y berdi.

Zangarning katta-kichigini yig'ib, xammasini o'zidan rozi qilib turgan vaqtida, arkoni davlat turib arz qildi: «Buvraxon podsho Azbarxo'jani zindon qilgan edi, xali o'lgani yo'q, zindonda yotibdi. Farmoyishlari nima?» Kuntug'mish to'ra buyurdi: «Olib chiqinglar!»

Azbarxo'jani zindondan olib chiqdilar. Kuntug'mish ikki o'g'liga buyurdi: «Mening «do'stimdan» o'chlarini olinglar. Men do'stlik otini tutganman, qoshiga bormayman, yuzini ko'rmayman...»

Shunda Moxiboy bilan Gurkiboy qo'llariga xanjarni olib, Azbarxo'janing qoshiga bordi. Aytdi: «Xuv otamning «do'sti», bizlarni taniysanmi? Bizlar Zarchamanning cho'lida emaklab yig'lab qolgan bolalar bo'lamiz. Sening shu qilgan «yaxshiligingni» qaytarmoqchi bo'lib keldik», -deb ... ikki bola Azbarxo'jani bosib oldi. Baqirtirib, tilini ko'maklayidan kesib oldi. Azbarxo'ja gapirolmay, xo'kizday bo'kirib-bo'kirib, itday bo'lib o'lib qoldi. Gavdasini o'tda kuydirib, kulini shamolga uchirib yubordi. Azbarxo'janing ishi tamom bo'ldi.

Kuntug'mish to'ra qirg kun, qirg tun to'y berib, to'yi tamom bo'ladigan kuni jamiy arkoni davlatini yig'ib, Xolmo'minni Zangarga podsho qildi. Zangar shaxrining jamiy bek, umarolari Xolmo'minga dasti bay'at berdi.

Endi Kuntug'mish to'ra No'g'ay elga bormoqchi bo'lib, yo'l jabdug'ini tayyorlay berdi. Qatorda nori bilan, xazinada zari bilan, ikkita bolasi qoshida, Xolbeka yori bilan, qancha xizmat-kor, qul, cho'ri, kanizaklari bilan jo'nadi. Shunda Xolmo'min Zangarning ulug', akobirlari bilan o'n kunlik erga billa kelib, Kuntug'mish to'ra bilan xo'shlashib, jiyanlari bilan ko'rishib, yig'lashib Zangarga qarab qaytdi.

Kuntug'mish to'ra omon-eson, sixat va salomat yurtiga borib, qavm-u qarindoshlari bilan, o'zining yor-u jo'ralari bilan, elining ulug', kattalari bilan ko'rishib, o'ynab-kulishib, otasi Qoraxonning toj-taxtiga ega bo'lib, davrini sura berdi.

Lekin Qoraxon podsho necha yillardan beri o'zining o'rniga qushbegisini qo'yib, Kuntug'mishning o'tiga kuyib, tagizaminga kirib, toat-ibodatga mashg'ul bo'lib yotib edi. Bechora ibodatxonasidan chiqib, yolg'iz farzandini ko'rib, ko'rishib, nabiralarini ko'rib, Xolbeka bilan ko'rishib, jamiy elini yig'ib, ko'xna xazinalarini ochib, qirg kecha-qirg kunduz podshoxona to'y qilib berib, o'zining taxtiga Kuntug'mish to'rani chiqarib, o'zi boshidan muborakbod qilib, podsho qildi. Kuntug'mish to'ra shunday qilib murod-maqsadiga etdi.

"ALPOMISH" DOSTONI

Hurmatli o`quvchi! Siz xalqimizning eng ulug` dostoni "Alpomish"dan olingan parcha bilan tanishasiz. Bu dostonni o`zbekning buyuk baxshisi Fozil Yo`ldosh o`g`li aytgan. "Alpomish" dostonining boshqa baxshilar tomonidan aytilgan qirqdan ortiq nusxasini olimlar yozib olishgan. Lekin ular ichida voqealarning qiziqarliligi, ifodaning ta'sirchanligi, tasvirning izchilligiga ko`ra, Fozil Yo`ldosh o`g`li aytgan nusxa diqqatga sazovordir. Fozil shoir 1872-yilda hozirgi Jizzax viloyatining Baxmal tumani Loyqa qishlog`ida tug`ilgan. Yetimlikda o`sgan bo`lajak shoir cho`ponlik qilgan vaqtlarida do`mbira jo`rligida terma va dostonlar aytishga qiziqqan. Yigitlik chog`larida davrining taniqli baxshisi Yo`ldosh shoirdan doston aytish sirlarini o`rgangan. Ulkan iste'dodi tufayli o`zbek xalq dostonchiligini yangi bosqichga ko`targan. Fozil Yo`ldosh qirqdan oshiq xalq dostonlarini to`la yod bilgan va betakror talanti bilan aytgan dostonlarining bachiy jihatdan mukammal bo`lishiga erishgan. "Alpomish" dostoni nafaqat uning ijodida, balki o`zbek xalq dostonchiligida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki "... xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo`lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti, desak, to`g`ri bo`ladi. Bu mumtoz asarda tarix to`fonlaridan, hayot-momot sinovlaridan omon chiqib, o`zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag`rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o`z ifodasini topgan" Darhaqiqat, bu asar xalqimizning ma'naviy olamini ko`rsatuvchi ko`zgudir. 1999-yilda ushbu doston yaratilganining ming yilligi mamlakatimizda keng nishonlangan. "Alpomish" dostonida o`zbek xalqining azal-azaldan imon-e'tiqod, or-nomus va yurt birligi yo`lida o`zini ayamasi yorqin aks ettirilgan. Siz dostonni o`qish davomida o`ziga unashirilgan qizning qalmoqlar orasida talash, yurtoshlarining begonalarga xor bo`lmasli uchun jonini tikkan buyuk qahramon Alpomish, imon keltirgani va do`st tutingani uchun Hakimbekning yonida o`zining insofsiz yaqinlariga qarshi kurashgan Qorajon, insoniy fazilatlari bilan ko`pchilik erkaklardan baland tura oladigan Oybachin va Qaldirg`och timsollari millalimizga xos baland sifatlarni aksettirganligini ko`rasiz. Aziz o`quvchi! Agar siz o`zbek degan xalqni yuksaltirgan, uni dunyoga tanitgan axloqiy xususiyatlar nimalar ekanligini tuymoqchi, bobolaringizni olamga mashhur etgan ma'naviy fazilatlarning ildizi qayerdanligini bilmoqchi, ajdodlarning or-nomus, so`zga egalik, bag`rikenglik va kechirimlilik singari jihatlaridan o`rnak olmoqchi bo`lsangiz, dostonni diqqat bilan o`qib chiqib tushunishga harakat qiling. Bobolarimizning shonli o`tmishiga qiladigan safaringiz xayrli bo`lsin!

"ALPOMISH" DOSTONI BAYONI

Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'irot elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakanining otini Boybo'ri qo'ydi, kichkinasining otini Boysari qo'ydi. Boybo'ri bilan Boysari-ikkovi katta bo'ldi. Boysari boy edi, Boybo'ri shoy edi. Bu ikkovi xam farzandsiz bo'ldi.

Ana endi o'n olti urug' Qo'ng'irot elida bir chupronto'y bo'ldi. Xaloyiqlarni, elatiyalarni (elatiya-chorva bilan shug'ullanadigan qavmlar.) to'yga xabar qildi. Shu to'yga barcha xaloyiqlar yig'ildi. Biylar xam to'yga keldi. To'ydagi kattalar ilgarigiday izzat qilib, qadimgiday otini ushlamadi. Biylar: «Mazmuni, bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi», -deb otini o'zlari bog'lab, ma'rakai majlisga kelib o'tira berdi.

Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi. Osh tortdi-suzgan tovoqni choshlamadi, osh tortganda oshning ketini-betini tortdi. Bu qilgan xizmatni biylar ko'rib, ilgari izzat ko'rib yurgan odamlar aytdi: «Bizlar o'n olti urug' qo'ng'irotning boyi xam shoyi bo'lsak, bizlar kelsak, otimizni ushlar edinglar, ko'nglimizni xushlar edinglar, bu daf'a bizdan nima o'tdi, bizni bunday bexurmat qildinglar?»

Bu so'zni eshitib, o'n olti urug' Qo'ng'irot elida paygabetdan (Paygabet-bo'sag'a, poygak tomon) turib, bir chapanitob boyvachchasi aytdi: «Ey, Boybo'ri bilan Boysari! Bu to'y o'g'illining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O'zing o'lsang, molingga xar merosxo'r chiqadi og'ziga odam kirib ketadi».

Biylar bulardan bu gapni eshitib, xafa bo'ldi. Xafa bo'lib, sakson tillani chupronga tashlab, turib ketdi. Borib, chechib mindi bedov otti. Ikkovi uyga yetti. Ikkovi qildi maslaxatti. Bu so'z ikkoviga juda botib ketdi. Boybo'ri turib aytdi: «Boysari uka, qariganda bizning molimiz besoxibga (Besoxib-egasiz.) chiqdi. endi bizlar bir farzand taraddi qilmaymizmi?» Boysari turib aytdi: «Tortib olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!» Boybo'ri aytdi: «shu yerdan shoximardon pining ravzasi uch kunchalik yo'l kelar ekan, xar kim borib tunar ekan: davlat talab davlat tilar ekan, farzand talab farzand tilar ekan, oxirat talab imon tilar ekan, qirq kun tunagan kishi murodiga etib qaytar ekan. Biz xam borsak, nazr-u niyozimizni bersak, shoximardon pining ravzasini tunlab, biz xam bir farzand tilab ko'rsak».

shunda bu gap boylarning ikkoviga xam ma'qul tushib, bir-biriga: «Rost aytasan», -deb, nazr-u niyozni olib, biylar ikkovi shoximardon pining ravzasiga (Ravza-bog', jannat, avliyolar qabri).qarab jo'namoqchi bo'lib, mindi bedov otdi, uch kun tinmay yo'l tortdi. Uch kun yo'l yurib, shoximardon pining ravzasiga etdi. Olib borgan nazr-u niyozini shayxlarga berib, biylar ravzani tunab yotdi. Oradan bir kam qirq kun o'tdi. Bir kam qirq kun deganda ravzadan ovoz keldi: «Ey, Boybo'riman Boysari, sen bir kam qirq kundan beri tunab yotibsan. Xudoning yaratgan sheri men bo'lsam, bir kam qirq kundan beri bir oyog'im bilan turib, sizlar uchun oraga tushib, Xudodan farzand tilayman. yaratgan farzand bermayman dedi». Biylar bu ovozni eshitib: «Bizlar bir kam qirq kundan beri kelib, sizni tunab yotsak, xudoning yaratgan sheri siz bo'lsangiz. Bizlar uchun oraga tushib, biror farzand tilab olib bermasangiz, bizga pirligingiz yolg'on, xudoga sherligingiz yolg'on. Bor unday bo'lsa, biz xam dunyoning baxridan o'tdik», -deb, tappa tushib, ravzada, turbatning ostida yotdi. Qirq kun o'rtadan aniq o'tdi, boz ravzadan ovoz keldi: «Boybo'ri, senga xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi. Yolg'iz emas, egiz berdi. Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi. egiz emas, yolg'iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqlarni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'yda qalandar bo'lib borib, bolalaringning otini o'zim qo'yib kelaman».

...Oydan oy, kundan kun o'tib, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat oradan o'tib qoldi. Boybichalarning oy-kuni yaqin etdi. Biylar ikkovi aytdi: «Bizlar xam bir shoxlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi deb, bir nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardan tilla tanga in'om olsa», -deb bu o'ylarni o'ylab, biylar ovga jo'nab ketdi.

Boybichalarga shunda to'lg'oq vaqti yaqin etdi. Ne kampirlar kelib, tulkini inlatgan toziday bo'lib, boybichalarni ang'ib, o'rta olib turibdi. Biylar shu vaqtda ovdan qaytdi. Bu yoqdan farzandlar yer yuziga tushdi. Bir nechalar biylarning oldiga chiqib, suyunchi oldi. Biylar ziyoda vaqti xush bo'lib, mazgiliga kelib, joy olib, vaqti xushligidan xar tarafga xabar yuborib, to'y-tomoshalar qilmoqchi bo'lib, chog'lanib, sozlanib, o'n olti urug' Qo'ng'irot elining katta-kichik biylarini, oqsoqol, arboblarni yig'dirib, «to'y qilamiz», deb maslaxat qildi. O'n olti urug' Qo'ng'irot elining odamlari, eshitgan xaloyiqlar gurros-gurros bo'lib kelaverdi. Shunda katta-kichiklar kelib, biylar og'zidan «to'y qilamiz», deganini eshitib, to'yning asboblarini tuzab, qancha so'qim

mollarni so'yib, osh-palovlarni damlab, fuqaro, beva-bechoralar to'yib, shul alpozda o'n olti urug' qo'ng'irotni bor odami to'yni qilib, xammalari jam bo'lib, qirq kecha-yu qirq kun-duz to'y qilib yotdi. ...To'y tarqaydigan kun bo'ldi. Bir vaqt, shunda biylar qarasa, uzoqdan bir qalandar ko'rinib kelaverdi. Xaloyiqlar xam ko'rdi: tarzi gul yuzli, shirin so'zli, bir siyosatli kishi qalandar bo'lib kelayotir. O'zga kishilarga u qalandarning xoli-axvoli ma'lum emas. Ravzadagi so'zlagan ovozni eshitgani sababli: «shoximardon pirim shul kishi bo'lmasa», -deb, biylar o'rnidan turib, oldiga peshvoz chiqib, salom berib, ziyorat qilib, majlisxonaga boshlab olib keldi. Shunda farzandlarning uchovini xam olib kelib, shoximardon pining etagiga soldi. Shoximardon pir Boybo'riining o'g'lini otini Xakimbek qo'ydi. O'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Besh qo'lini o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg'ochoyim qo'ydi. Boysarining qizini otini Oybachin qo'ydi. Ana shunda shoximardon pir Xakimbekka Oybachinni unashtirib, beshikkerti qilib: «Bu ikkovi er-xotin bo'lsin, Xakimbek bilan xech bir kishi barobar bo'lolmasin. Omin, Olloxu akbar», -deb, fotixani betiga tortdi. Shoximardon pir turib, jo'nab ketdi, odamlarning ko'zidan g'oyib bo'lib ketdi. Ana shuytib, biylarning to'ylari xam tarqab ketdi.

shunda bolalar kundan kun o'tib, oydan oy o'tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, ularning tili chiqib, elga enib, tili chiqqandan keyin, elga engandan keyin tutib, uchchovini xam maktabga qo'ydi. Ular maktabda o'qib yurib, yetti yoshga kirdi. Burro savodi chiqib, xat o'qib, yozadigan mulla bo'ldi. Shunda Boybo'riy: «Endi o'g'lim savodi chiqib, mulla bo'ldi. O'g'limga endi shoxlik, sipoxlik ilmini o'rgatayin», -deb mulladan chiqarib oldi. Boysari xam Boybo'riga taassub qildi. Bul xam Oybachin qizini maktabdan chiqarib oldi. «Chiqarib olib, qizimga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chorvadorlik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin», -dedi.

shunda Xakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Xakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'liga ushlab, ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyni o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ning katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasi olamga ketdi. Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib aytdi: «Dunyodan bir kam to'qson alp o'tdi. Alplarning boshlig'i Rustami Doston edi, oxiri bu Alpomish alp bo'lsin. To'qson alpning biri bo'lib, sanaga o'tdi», -dedi. Oxiri Alpomishbek alp bo'lib, to'qson alpning biri bo'lib, sanaga o'tib, alplik otini ko'tardi, yetti yoshida Alpomish ot qo'yildi.

Kunlardan bir kun Xakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo'riy shunda o'g'li Alpomishdan: «Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi?» -deb so'radi. Shunda o'g'li turib aytdi: «Vaqti-bevaqt birovnikiga mexmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul xam saxiy; agar joy bor turib, joy yo'q, deb qo'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil. Vaqti-bevaqt bir kishi mozorotning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning xaqqiga duo o'qib o'tsa, bul xam saxiylilik; agar xar kim mozordan o'tganda, chap oyog'ini uzangidan chiqarmay, mozorotning xaqqiga duo qilmay o'tsa, bul xam baxil. Kishining moli zakotga etsa, zakot bersa, bul xam saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul xam baxil ekan».

Bul so'zni Boybo'riy Xakimbekdan eshitib, fikr qilib: «Men o'n olti urug' Qo'ng'irotni elining xam boyi bo'lsam, xam shoyi bo'lsam, men kimga zakot beraman. Mening davlatimda yolg'iz inim Boysari baxillikka chiqib ketmasin», -deb, o'z ko'nglida: «Boysariy ukam menga zakot berishi kerak ekan», -deb o'yladi. O'ylab: «Boysariga boringlar, Boysari o'z rozichiligi bilan bir chichqoq uloqni zakot deb menga bersin. Zakot o'rniga o'tar-da, Boysari baxil bo'lib, baxillikka chiqib ketmasin», -deb o'n to'rt maxramni buyurdi.

Boysariy o'n ming uyli Qo'ng'irotni eli bilan ko'chib borib, Ko'kqamish ko'lida yeliboylik qilib, mollarni semirtirib, yaylovda joylab yotib edi. O'n ming uyli Qo'ng'irotni elining boyvachchalari bilan yig'ilib, bir yerga jam bo'lib, baxmal o'tovni tikib, shu o'tovning ichida xamma boyvachchalar bilan qimiz ichib, shag'al mast bo'lib, o'z kayf-safosi bilan o'tirib edi. Ana shunda otining bo'yniga tilla qo'tos taqilgan o'n to'rt maxram Boybo'ridan Boysarini so'rab borib qoldi. Shundagi boyvachchalar bularning kelganini bilib, eshikka chiqib, maxramlarning otini ushlab qoldi. Maxramlarni ichkariga olib kirdi. Boysari bulardan yo'l bo'lsin, qilib savol so'radi. Maxramlar savolga javob berib aytdi: «Biz akangdan kelgan zakotchi bo'lamiz, bugun bizlar sening molingni zakot qilamiz. «Zakot qilinglar, bersa, zakotini olib kelinglar», -deb yuborgan», -dedi.

Bu so'zlarni maxramlardan eshitib, Boysari ko'ngliga og'ir olib, aytdi: «Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo'lmagan, endi akamiz o'g'illi kishi bo'lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo'libdi-da». Zakot degan gapni eshitib, bu gap botib ketib, oldidagi o'zining odamlariga buyurdi: «Ushla, bachchag'arlarni!» -dedi. Boyvachchalar maxramlarni bitta-bitta ushlab qoldi. U yettovining quloq-burnini kesib,

o'zlariga egizib, otiga chappa mingizib, otning ustiga tortib boylab, «Mana buni zakot deb aytadi»,-deb Qo'ng'iro't tarafiga xaydab yubordi.

shunchalik ishni qilsa xam, Boysaribiyga zakot degan gap nixoyatda o'tib ketgan ekan: «Endi biz o'z yurtimizda sig'indi bo'lib, o'z akamizga zakot-berib yuradigan bo'lsak, bu elda bizning turgiligimiz qolmadi»,-deb, o'n ming uyli Qo'ng'iro't eliga qarab: «Endigi maslaxat nima bo'ldi?»-deb turgan ekan:

Ox urganda oqar ko'zdan selob yosh,
Maslaxat ber, o'n ming uyli qarindosh,
Qo'ng'iro't eldan molga zakot kelibdi,
Maslaxat ber, o'n ming uyli qarindosh!
Qursin, Xakimbegi mulla bo'libdi,
Bezakot mollarni xarom bilibdi,
Qo'ng'iro't eldan molga zakot kelibdi,
Maslaxat ber, o'n ming uyli qarindosh.
Dardli qul dardimni kimga yoraman,
Ayriliq o'tiga bag'ri poraman,
Mina elda sig'indi bo'p turaman,
O'z akama qanday zakot beraman?!
Maslaxat ber, o'n ming uyli qarindosh!
Mina elda men xam bekman, to'raman,
O'z akama qanday zakot beraman?!
O'z akama o'zim zakot berguncha,
Qalmoq borib juz'ya (Juz'ya-g'ayridinlarga solinadigan soliq) berib yuraman...

Ana shunda Boysaribiy bu so'zlarni aytdi. Shu turgan xaloyiqlardan xech bir sazo chiqmadi. Shu majlisda bir Yortiboy oqsoqol degan bor edi. Majlisli kun bo'lsa, to'rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo'sag'aning oldida kovishga joy bermay, kovish bilan aralashib, it yiqilish bo'lib, paygabetda yotar edi. To'rda o'tirgan kattaman deb yurganlarning xech qaysisidan gap, sazo chiqmagandan keyin poygabetdan Yortiboy o'rnidan turib, maslaxat shul-da,-deb Boysarining so'ziga javob berib, Boysariga qarab, bir so'z deb turibdi:

Maslaxat bermaymiz Boysariboyga,
Osilmaymiz Boybo'rining doriga,
Biring-aka, biring-uka, Boysari,
Maslaxatni, shoxim, o'zing bilasan.
...Biz bilmaymiz Boybo'rining ishini,
Maslaxatga yig'ib shuncha kishini,
Kim maslaxat bersa, kesar boshini.
Maslaxat bermaymiz Boysaribiyga,
Osilmaymiz Boybo'rining doriga.
Boysaribiy Yortiboydan bu so'zni
Eshitib, tag'i o'zi bu turgan odamlarga qarab, bir so'z dedi:
Quloq soling Boysarining tiliga,
Ko'chib ketay menam Kashal eliga.
Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga,
Semurg' qushlar salom berar qoshiga,
Quloq soling Boysari nolishiga,
Qalmoq borib qo'nsam Chilbir dashiga.
Kalma shaxodat musulmonning tiliga,
Azamat bosh berar dinning yo'liga,
Turarim yo'q Boysun-Qo'ng'iro't eliga.
O'z elim deb yana bunda turgancha,
O'z akama o'zim zakot bergancha,
O'z akamdan bunday xo'rlik ko'rgancha,
Qalmoq borib juz'ya bersam bo'lmaymi?
Zakot degan gapni akam chiqarib,

Mening toza ulsizligim bildirdi.
Boysaridan bu so'zni Yortiboy eshitib,
Yortiboy xam Boysaribiyga qarab bir so'z dedi:
Dam shu damdir o'zga damn! dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema,
Sen ketar bo'lsang Qalmoq yurtiga,
Bul elatni qolar deb xam g'am ema.
Qayga ko'chsang, bizlar birga boramiz,
Bolalarni jaxongashta qilamiz...

Yortiboy oqsoqolning aytgan gapi o'n ming uyli Qo'ng'iro't eli katta-kichigining bariga ma'qul tushdi.
Xammasi: «Boysari ko'chsa, bizlar xam ko'chib ketayik, Boysari o'lik yerda-o'lik, tirik bo'lsa-tirik; endi Boysin-Qo'ng'iro't yurtini Boybo'riga bo'shatib berayik, Boysin-Qo'ng'iro't yurtini bir o'zi joylab olsin»,-dedi.

O'n olti urug' Qo'ng'iro't elidan o'n ming uyli ekin ekmoqni bilmaydigan yeliboylar ayrilib, Boysariga qo'shildi. Bular xammasi boy-qo'yli, tuyali. Molining soni yo'q edi. Bularning ichidan moli yo'q degan kambag'alining qirq ming tuyasi bor, qo'yining sonini, adadini o'zlari xam bilmas edi. Bir qo'ra, ikki qo'ra, o'n qo'ra deb, sanagani shul edi. Yilqi, mollarini bir uyur falon to'qayda yuribdi, ikki uyur falon to'qayda yuribdi, der edi. Sonini sanamoqni xech qaysisi bilmas edi. Bular qishdan yozga ekin ekmay, mol boylik qilar edi. Shuning bilan ovqatlarini o'tkazar edi. Boysariboyning yilqisining soni shul edi: to'qson to'qay yilqisi bor edi. To'qson to'qay degani-yilqisi xar yerlarda: to'qaylarda, tog'larning darasida, to'qayli yerlarda yoyilib yurar edi. To'qaylarda yilqisi yoyilib yurgani uchun Boysariboyning to'qson to'qay yilqisi bor, der edi. Lekin yilqisining, molining sonini xech bilmas edi.

...O'n ming uyli Qo'ng'iro't taloto'p bo'lib Kashal eliga, Qalmoq yurtiga qarab, «Xa!»-deb, ko'cha berdi. Xammasi birdan ko'chib, o'n ming uyli el Boybo'ridan araz urib, ...Boysari bilan birga ko'chib jo'nay berdi. Ayollarga xam yaxshi otlarni olib kelib tortdi. Bu ayollar xam otlarni minib, chog'lanib, jo'namoqchi bo'lib, Barchinoyga, enasiga qarab turdi.

Ana shunda enasi Barchinoyni xam jo'natmoqchi bo'lib, Barchinoy uchun to'riq yo'rg'a otni tabladan (Tabla-ot boylanadigan joy).olib kelib, ustiga mayin, toza, muloyim baxmal parquvlardan solib, tilla yuganlarni boshiga solib, juda choqlab, otning jilovidan ushlab olib keldi. Ana shunda enasining bul otni yetaklab olib kelganini ko'rib, Barchinoy shunday qarasa, o'n ming uyli Qo'ng'iro't elining xammasi ko'chib taloto'p bo'lib, shovqin qilib borayotibdi.

...O'n ming uyli Boysin-Qo'ng'iro't elining jo'nashini Fozil shoir Yo'ldosh o'g'li shunday tasvirlaydi:

Chechanlar eplaydi gapning epini,
shul zamonda oltmish norni cho'ktirib,
Orta berdi Barchin suluv sepini.
Qo'ng'iro't elning shundaychaqa ko'pi bor,
Boysarining ikki jildam to'pi bor,
Xar ko'chkanda to'p bo'shatib jo'nadi.
Qatorga tirkalgan lo'k (Lo'k-yuk tashiydigan tuya.) bilan norcha, (Nor-erkak tuya)
Ustiga yuklangan qirmizi parcha.
Kamlikni ko'rmagan satta boybachcha,
Yo'l-yo'lakay uloq chopib boradi.
Oshiqning faxmidir qorong'u kecha,
Yig'lasam, xolima yig'lar bir necha,
Xafa bo'lib borar Barchin oyimcha,
Jafo tortib borayotir bir necha.
G'am bilan sarg'ayib guldayin diydor,
Ko'rgani yo'q qanday edi qalmoqlar,
Orasida to'qson dovon tog'i bor,
Bellardan (Bellar-dovonlar). oshadi ul zamon boylar.
Qaba (Qaba-tartibsiz) falak boshga soldi zulm deb,
Eliboylar (Eliboylar-chorvadorlar) bundan ko'chib boradi,
Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb.

Ayriliq o'tiga bag'rini dog'lab,
Borayotir qalmoq elni so'roqlab...

...Toychi viloyatida Qalmoq muzofotinda bir Surxayl degan kampir bor edi. Juda xaddili zo'r kampir edi, bu kampirning yetti o'g'li bor edi. Yettovi xam nomdor alp edi. Kattasini Ko'kaldosh der edi, undan kichkinasini Ko'kaman der edi, Ko'kqashqa der edi, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo'shquloq, kenjatoyini Qorajon der edi. Shu yettoviga tirlashgani qalmoqshox xar mamlakatdan alplarni olib kelib, Kashal g'oridan joy berib, bularni To'qayistonda boqib yotar edi. Ul alplar qanday alp: yoyandoz, mergan alp. Xar qaysisi to'qson botmon temirdan sovut kiygan, xar kuniga to'qson shirbozning etini tatil qilgan, bosh-boshiga xar qaysisi podshoxlikdan xar oyda besh yuz so'm moyana olgan xo'p birlamchi zo'r polvonlar. Boysarining qizi Barchinni bular ko'rgani yo'q. Shul vaqtlarda Barchin xam barkamol, bo'yi etgan, xar yag'rini o'n besh qarich keladi. Bu xam alp. Orqavaron eshitib, shu musofir boylarda bir qiz bor emish deb, bular xam o'zavonda maslaxat qiladi. Gox biri olmoqchi bo'ladi, gox bari olmoqchi bo'ladi, gox xammasi o'rtada xotinli bo'lib qolmoqchi bo'ladi. Necha vaqtlar ko'rmasi shu maslaxatni qilib yurdi.

Ko'kaldosh alp turib aytdi: «Bunday dalada chatoq qilib yurganimiz bo'lmas. Yuringlar, to'qsonimiz xam boraylik. O'zbekning qizini yo birimiz olaylik, yo barimiz olaylik. O'rtada javlik (Javlik-xamma, yoppa) xotinli bo'lib qolaylik deb, javlik otlandi. Otini minib, Kashal g'oridan jo'nab, To'qayistonni oralab, Chilbir cho'liga chiqib, ko'p elga qarab, Boysarinikini so'rab, alplar borib qoldi. Xammasi Boysari uyining tevaragida jam bo'ldi. Alplar to'planib turdi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh: «Kelganboy!»-deb chaqirdi. Boysari uyda o'tirib edi: «Labbay»,-deb uyidan chiqdi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh turib aytdi: Kelganboy. sening bir qizing bor ekan. Qani, birimizgai Berasanmi, barimizga berasanmi? Birimiz olaylikmi yo barimiz olaylikmi shu so'zga nima javob aytasan?»

Bu so'zni eshitib, Boysari nima javob aytarini bimay, xayoli qochib, nash'asi uchib, o'ylanib: «Xoy alplar choshkagachayin muxlat beringizlar. ertan choshkada aylanib kelinglar. Yo biringizga berayik, yo bari ngizga beraylik, biz bir o'ylashib ko'rayik»,-dedi.

Ertan choshkagachayin muxlat berib, alplar qaytdi. ...Endi Boysari semiz qo'ylarni so'yib, o'n ming uyli Qo'ng'iro't elining odamman deganini jiyib (Jiyib-yig'ib,) to'plab., sho'rvasiga to'yib, go'shtini korsonga sop, oldiga opkep qo'yib: «Burungi kunimiz xam tuzuk ekan, ishimiz sop zo'rga tushdi. ertan choshka alplar kelsa, nima javob beramiz»,-deb, qarindoshlariga qarab, Boysari maslaxat so'rab turgan ekan:

Ox tortganda ko'zdan oqar selob yosh,
Barchinoyim bo'y etgandir qalamqosh.
Maslaxat ber, o'n ming uyli qarindosh,
Alplar kelsa nima javob beraman,
Tong otgancha muxlat olib turaman,
Qalmoqlarga qizim qanday beraman?!
Yuragim to'lgandir diydai g'amda
Barchinoyini o'z tengiga qo'shmasam,
Maxshar kuni Barchin qo'li yoqamda.

Bu so'zni eshitib, turgan xaloyiqlardan xech sado chiqmadi. Bir Yortiboy oqsoqol degani bor edi.

Boysariga qarab, Yortiboy bir so'z deb turgan ekan:

Xon Boysari, eshit aytgan so'zimdi,
Bu ellarga boshlab kelgan o'zingdi.
Tortinmay beraber endi qizingdi,
Xazil bilma, mening aytgan so'zimdi.
Bu alplarni kuyov qilib olamiz,
Mina elga toza erkin bo'lamiz.
Bolalarni tog'a-jiyan qilamiz.
Mina elda bizlar davron suramiz,
Maslaxatni senga shunday beramiz...

Bu so'zni Yortiboydan eshitib, Boysarining ko'ngli buzilib, bu xam bir so'z deb turgan ekan:

...Yuragimda ko'pdir alamli dardlar,
Mening qizim-sening singling, nomardlar.
Qizing ber, deb mening ko'nglim bo'lasan,

Suyagimni yongan o'tga solasan...

Bu so'zni Boysari aytdi. Shu qarindoshlardan nima maslaxat chiqar ekan deb, Barchin kelib, tinglab turib edi. Qarindoshlarning so'zlarini eshitib, otasining ko'ngli buzilganini bilib, Barchin xam bir so'z deb turgan ekan:

Juda xam gangidi, boy ota, boshing,
Maslaxat berdi-ku qavmi-qardoshing,
Ko'p yig'lama, jonim otam, darvishim,
Eshitmagin qarindoshlar so'zini,
Qarindoshlar bera qolsin qizini!
Sen yig'lading, ota, ko'nglim buzildi,
Diyda giryon bo'lib bag'rim ezildi.
Xafa qilma, ota, menday qizingdi,
Qo'ya ber alplarga mening o'zimdi.

Bul so'zni Barchindan eshitib, o'n ming uyli Qo'ng'irot xazar qildi: «Bu xam o'zboshimcha juvormak, alplarga baland-past gapirar, buning kasofatiga xammamizni oyoqosti qip bosib ketar. Javob bergich bo'sa, bizning ichimizdan chiqib, xolis yerda turib javob bersin», -dedi. O'n ming uyli Qo'ng'irot dan chiqarib, Barchinning o'tovini ko'tarib, xo', anaday ovloq tepaning boshiga tikib qo'ydi. Bul o'tovda qirqin kanizlari bilan Barchin o'tirdi. Running burni bilan ...to'qson alp yig'ilib kep turibdi: «Qani, Kelganboy, maslaxatni qaerga qo'yding? Birimizga bermoqchi bo'ldingmi, barimizga bermoqchi bo'ldingmi?» Boysari turib aytdi: «Biz maslaxat qip, yil ag'darib ko'rdik, qizimizning yili chichqon ekan, yoshi o'n to'rtga chiqqan ekan. Bizning o'zbekning rasmi shunday bo'ladi: qiz o'n to'rtga chiqqan so'ng o'z ixtiyori o'zida qoladi. Bizning aytganimizga ko'nmay, tepaning boshiga o'tovini tikib o'tiribdi. O'ziga boringizlar, o'zidan so'rangizlar». Shunda qalmoqlar do'g'ilib' (Do'g'ilib-yig'ib, to'plab) Barchinning ustiga qarab bora berdi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh: «Yo birimizga teg, yo barimizga teg. Bir javob ayt», -dedi. Barchin bir so'z deb turgan ekan:

Eshitgin, qalmoqlar, aytgan tilimnan,
Meni olar kelmas sening qo'lingnan.
Badbaxt qalmoq, qolma kelgan yo'lingnan,
Meni olmoqqa xadding bormi, qalmoqlar.
Mening to'ram bilsang, Boysinning xoni,
Unga qurbon menday oyimning joni,
Oti Xakimbekdir elda davroni,
Ko'p aylanma bunda, qalmoq, bema'ni.
Xabar etsa, alp Alpomish kelmaymi,
Qalmoqlarga qiyomat kun bo'lmaymi,
Armon bilan senday alplar o'lmaymi,
Xoling bilib, to'g'ri yursang bo'lmaymi?

Bu so'zni eshitib, Ko'kaldosh alp turib aytdi: «Bu o'zbekning qizining dami baland ekan. Ko'kaman! Tushib sudrab chiq bu yoqqa!» Ko'kaman alp otdan tushib, otni uyning beldoviga ildirib, uyning ichkarisiga kirgan. Barchinning kanizlari qo'rqib, uyning to'rda to'planib turgan. Barchin ibo qilib, teskari qarab turib edi, Ko'kaman alp Barchinning burumidan (Burumidan-soch tutami) ushlab, poygaga torta boshladi. Barchin o'zini o'ng'arib qo'lini uzatdi. Bir qo'li Ko'kamanning yoqasiga etdi, bir qo'li bilan belbog'idan tutdi. «Yo, shoximardon pirim!» -deb ko'tarib, chalqaramon qilib yerga qo'ydi. Chap tizzasini ko'kragiga qo'ydi. Og'zi-burnidan dirak-dirak qon ketdi.

Ko'kaldosh alp turib aytdi: Ko'kamanga qaranglar, bu ko'rinmay, bu yoqqa chiqmadi. O'zbekning qizi bilan aylanishib qoldimi? shunday kelib birovi ot ustidan qarab, Ko'kamanni ko'rib: «Ey, o'zbekning qizi Ko'kamanni bosib o'ldirib qo'yibdi», -dedi. Bu so'zni eshitib, bir kam to'qson alp otdan tashlay berdi. Barchin alplarning achchiq bilan otdan tushganini bilib, qarab ko'rdi. Alplarning zo'ri Ko'kaldosh ekanini bildi: zo'rlik nomiga boshida tilla jig'asi bor, ostida suvoriga minib yuradigan saman yo'rg'asi bor. Boshidagi sarjig'ani ko'rib, alplarning zo'ri ekanini bilib, undan olti oyga muxlat so'rab, bir so'z deb turgan ekan:

Saman otli, sarjig'ali bek yigit,
Bir oltoyga sizdan muxlat so'rayin.
Qo'ng'irot elga arza berib ko'rayin,

Oltoygacha men yo'liga qarayin,
Kelsa kelar Qo'ng'irot eldan Alpomish,
Kelmasa, men taqdirimdan ko'rayin.
...Olmadayin so'lgan gulday tarzim bor,
Mushtiparman sizga aytar arzim bor.
...Muxlat so'rab turgan menday gajakdor,
Oltoy muxlat bergin, davlat li shunqor.
Bu gap endi Ko'kaldoshga xusli kelar...

«Bizda ko'ngli bor ekan», -deb Ko'kaldosh alp vaqti xush bo'lib: «Alplarning ichida meni xoxlaganday bo'ldi, balki mening zo'rligimni xam bildi, bizga ko'ngil qildi, -deb. -Bor, olti oy muxlat!» -deb yubordi.

...Barchin o'n ming uyli qo'ng'irotning yigitidan o'n yigitni saylab oldi. Otasining to'qson to'qay yilqisidan o'n otni saylab oldi. Otlarni sovitib, tayyor qildi. Shunday arza yozdi Barchin: «Oltoychilik yo'lga keldim, qalmoqning eliga keldim. Zo'r yovning qo'lida qoldim. Olti oyga muxlat oldim, mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa, javobimni bersin». Arzani o'n boybachchaga topshirdi. Otlarni egarlab, choqlab, yaxshi bor deb, duo qilib, bir so'z aytib turgan ekan:

Kechani munavvar qilgan to'lgan oy,
Savashli kun tortiladi parli yoy.
Bandam desin, raxm aylasin bir xudoy,
Kashalda talashda qoldi Barchinoy.
Borsang, salom o'ynab-o'sgan ellara,
Ko'kqamishday mazgil joyim, cho'llara.
Qalmoqlar yig'latdi menday sanamdi
Yuragimga to'lgan dog'-u alamdi.
Albatta, so'ranglar maktab jo'ramdi.
Mug'oyib so'z aytar menday mushtipar,
Kecha-kun sbabgir torting (shabgir tortish-tinmaslik, dam olmaslik.), xizmatkor,
Jilovdoring bo'lsin imom, chiltanlar.
...So'z aytar sizlarga mendayin sanam,
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam,
Qalmoqning zulmidan yig'ladi enam.
Sen borib ko'rarsan Qo'ng'irot elimdi,
Boshimdan ko'tarsin qayg'u zulmdi...

...Otlar qorsoqday qotgan, to'qson kecha-kunduz yo'l tortgan, balki choparlar bilan bila bitgan. Qo'ng'irot eliga Boybo'ring davlatxonasiga etgan. Ot ustida turib, salom berdi. Bularni ko'rib, Boybo'ri aytdi: «Bular qanday odam ekan, beadablik bilan salom berdi menga?» Choparlar bog'onog'i arzani chiqarib berdi. Arzani o'qib ko'rib, bildi: kelgan Barchinning chopari ekan. O'n maxramni buyurdi. Choparlarni bitta-bitta otdan ko'tarib oldi. Choparlarga xizmat qildi. Bul arzani xech kimga bildirmay, olib borib sandiqqa solib tashladi. Choparlar yigirma kun yotdi, xo'p izzat-ikrom qilib, qildi ziyofatti, ko'p qildi xizmatti. Bergan arzasidan xech shobir (shobir-shov-shuv, ovoza.) bo'madi.

...Boybo'ring Qultoy degan yilqichi quli bor edi. Alpomishga enchi biyasi bor edi. Bir yarg'oq qulun tug'di, bul tulpor deb, Boybo'riga op kep bergan edi. Necha yildan beri tablada boquvli turgan edi. Choparlar kelib ketgandan keyin tabladagi ot sag'risi toshib, yo'li qulog'idan oshib, yulduzni ko'zlab, taraq qos boylab o'ynay berdi. Boybo'ri: «shu yomonlagurning o'ynagani xam yaxshilik emas», -deb sag'risiga uch-to'rt tayoq tushirib, tabladan chiqarib, Qultoyning qoshiga yilqilarga opporib, qo'shib yubordi.

Alpomishning Qaldirg'och degan. singlisi bor edi. Qirquin kanizlari bilan bir sandiqni ochib ko'rayotib edi, bir xat chiqdi. Bul xatni o'qib ko'rdi: Barchin chechasining xati.

-Tunovgi o'n chopar bul xatni olib kelgan ekan, buni bildirmay otam sandiqqa solib qo'ygan ekan. Yuringlar, bek akama borayik, Bu xatni berayik. Qancha g'ayrati bor ekan sinayik, -deb Xakimbekning qoshiga keldi. Bu xatni shunday berdi. Shu vaqtlarda Xakimbek o'n to'rt yoshga kirgan, mast bo'lgan norday ko'pik sochib o'tirgan, necha maxramlar xizmatida turgan. Bu xatni o'qib ko'rdi. Xatda aytibdi: «Oltoychilik yo'lga keldim. To'qson alpda toy-talashda qoldim. Olti oyga muxlat oldim. Mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa, javobimni bersin», -degan xat ekan. Bu xatni o'qib ko'rib: «Oltoychilik yo'l bo'lsa, qalmoqning elida

bo'lsa, zo'r yovning qo'lida bo'lsa, bir xotin olamiz deb, sandirab o'lamizma»,-deb, xatni tizzasining ostiga bosib o'tirdi. Qaldirg'ochoyim akasiga qarab bir so'z aytib turgan ekan:

...Aka, senga aytadigan arzim bor,
Talash bo'pti biyning qizi-zulfakdor.
...Mard yigitning yori talash bo'lami,
Er yigitning yorin qalmoq olami?
...Umid tortib senga arza qilibdi,
Xat ko'tarib o'n boybachcha kelibdi.
Anglamay otama xatni beribdi,
Otam xatni bul sandiqqa solibdi.
Endi bilib, singling olib kelibdi,
Qalmoqlardan checham jabr ko'ribdi.
Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin,
Narmoda (Narmoda-erkak tuya, xuriasa, gey) ishini bunda qilmagin...

Bu so'zlarni eshitib, Xakimbek narmoda so'zini ko'ngliga og'ir olib: «Narmoda degan gapning ma'nisi nima?»-deb turgan ekan:

...Narmoda deb menga so'zlading so'zlar,
Narmoda ma'nisin aytgin, sen qizlar.
Narmoda deganga xafa bo'libman,
Nima gap ekanini bilmay turibman.
...Narmoda deganing ko'nglima keldi,
Ko'p qizlardan akang uyalib qoldi,
Emikdoshim, sening gaping ne bo'ldi?
Mendayin akangni xafa qilasan,
Narmoda deb meni silkib solasan,
Juda xam akangni nomard bilasan.
Bu so'zni akasidan eshitib,
Qaldirg'ochoyim bir so'z aytib turgan ekan:
Xar kim o'z elida bekmi, to'rami,
Narmodalar sendan kamroq bo'lami,
Mardning yori toy-talashda qolami?
Mard bo'lib maydonli kunda yurmagan,
Yilqichidan bedov saylab minmagan,
Olmos po'lat belga qayrab cholmagan,
Ot asbobin shaylab qalmoq bormagan,
Qalmoqlarga qattiq kunlar solmagan,
Toy-talashda qolgan yorin olmagan,
O'z elida bir xil gapni bilmagan,
Narmodalar sendan ortiq bo'lami?
Jo'na, aka, Boysun-Qo'ng'iro't elidan.
O'lis deb qaytmagin bunday yo'lidan,
Nimishkelsin mungluq checham qo'lidan? ...Aka, sendan bormoq lozim bo'libdi.

Bu so'zni eshitib: «yayov boramizmi esa?»-dedi. Qaldirg'ochoyim: «To'qson to'qay yilqing bor. yayov borib, mingani oyoq-ulov topmay yotibsanmi? egar-abzalingni olsang, Qultoyning qoshiga borsang, ko'nglingga yoqqanini xoxlab minib keta bersang»,-dedi. Bu so'zni eshitib: «Xayr esa»,-dedi. Qaldirg'ochoyim egar-abzalni, sovut-qalqonni, yov-yaroq, asbobni ayil-pushtanga solib, o'xshatib bo'g'ib, ko'tartirib yubordi.

Boybo'ri o'g'li Alpomishning Qalmoq yurtiga borishini istamaydi. O'g'lini niyatidan qaytarish uchun unga ot bermaslikka urinadi va yilqichi Qultoyga Alpomishga ot bermaslikni tayinlaydi.

Qultoyga turib aytdi: «Alpomish kelyapti, Kashaldan kelgan xabarni birov bildiribdi. Bui ish yomon bo'pti, lekin o'zi,zo'rk, zo'r bolsa xam juda qo'rqq, sal do'qdan xam qo'rqadi o'zi. Urib-so'kib, yilqi bermay, do'qlab qaytarib yuborgin». ...Bui gapdan bexabar orqalanib Alpomish boryapti. Qultoyga yaqin etdi. Qultoy

Alpomishni ko'rib, ko'nglini xushlab, yilqi boqadigan qayqi tayog'ini qo'lga ushlab, juda shamiyon qaytarib, (shamiyon qaytarib-gerdayib, vaxima qilib) do'qlab, bu so'zni aytib, Alpomishga qarab aytib turgan so'zi:

Xazon bo'lib bog'da gullar so'ldimi,
Oblo sening aql-u xushing oldimi,
Boybo'ri olib, moli senga qoldimi?
Alpomish bu so'zni eshitib,
Qultoyga qarab, bir so'z deb turgan ekan:
Bobo, sir-u xolim ma'lum qilayin,
Sendan endi bir bedovni so'rayin,
...Sen eshitgin menday o'g'ling so'zini,
Ajrati kelayin biyning qizini.
Men sachratib borsam minib bir tulpor,
O'zima yor, bobo, senga xizmatkor...
Bu so'zni eshitib, Qultoy xam bir so'z deb turgan ekan:
...Tur yo'qol, enag'ar, tayin o'lasan,
Bu yerda serryayib, nima qilasan?
...Bu so'zdi aytip mardning aqlin oladi,
Uch-to'rt tayoq qayqaytirib soladi.
Egan tayoqlaring yilqi boladi!
Xakimbekning ko'zi alanglab qoladi,
shunday do'qlab Qultoy qildi siyosat,
Tayoq egan bekda qolmadi toqat,
O'ldirar qaytmasam dedi vallamat.
...Bul bobosi ko'p siyosat qiladi,
Juda aylantirib, ancha uradi,
Bobom urdi dedi, qaytib jo'nadi,
Ko'tarinib qaytib ketdi yo'liga...

Alpomish Qultoyning qoshidan qaytdi, ko'tarinib borayotib edi. «Bulay-shulay deb, Qultoy do'qlasa, akam qaytip kep qo'yardan xam toymas, o'z ko'zimiz bilan jo'natib yuboraylik», -deb qirqin kanizlari bilan Qaldirg'ochoyim kelayotib edi, oldidan chiqib qoldi. Alpomish yerga qarab borayotib edi. Shunday boshini ko'tarib qaradi: qarshi manglayiga kanizlari bilan singlisi kep qopti. Qizlarni ko'rib, uyalgan kishi bo'lib, egar-abzalni tashlab yuborib, yo'l ustida yonboshlab yotdi. Qaldirg'ochoyim ustiga borib, bu so'zni aytib turibdi:

Aytgan so'zning poyimini (Poyim-faxm, ma'no.) bilsang-chi,
Ko'z kuyugi, ey narmoda, o'lsang-chi.
Kecha-kunduz xaqqa fig'on yetmagan,
O'z moliga o'zin vaji o'tmagan.
...Qultoyning do'qidan qaytib kelasan,
...Sen xam odamman deb qanday yurasan?..
Bilsang, Qultoy-yilqiboqar xizmatkor,
Ko'p do'qlabdi axvolidan bexabar.
Sen so'rasang, ular senga javobgar,
Bu yurishing, bek aka, qanday bo'lar?
Odam ko'rsa, yurishingga kuladi,
Bu yurishing elga gap bo'p qoladi...
Bu so'zlarni aytdi shunday mushtipar,
O'rnidan turgandir davlatli shunqor.
Egar-abzalini yig'ib ushladi,
shul zamon egniga qoqib tashladi,
Qultoyqulga tag'in yo'lni boshladi.
Yo'lga tushib, Qultoyqulga qaradi,
Urgan yerda xali Qultoy turadi.
Qaytay desa, bul singlisi keladi,

Tag'i urarmikin deb, ketib boradi.

Bu qizlar bilmaydi Xakimbek o'yin,

Xakimbek ilgari singlisi keyin...

Qultoyning qoshiga yaqinlashib bordi. Singlisi kanizlari bilan ancha keyin qoldi. Qultoy xam Alpomishni ko'rdi. Bog'onog'i (Bog'onog'i-boyagi) urgan yerda Qultoy zinkiyib (Zinikiyib-qaqqayib). turdi. yaqinlab bordi. Qultoy tag'i do'qlab, bu so'zni aytib kela berdi:

Bobongning so'zini xazil bilasan,

Sen g'arbachcha, nega aynalib kelasan.

Sen enag'ar, bildim tayin o'lasan,

Nimishing bor, tag'i nega kelasan?

yana birov yo'lda ko'ngling bo'ldimi,

Tag'i sening tayoq eging keldimi?

Siyosat qip Qultoy yaqin keladi.

...Uzalib, Qultoyning belidan tutdi.

Chalqaramon qilib, yerga qo'yibdi,

Tizzasini ko'krakka qo'yib turibdi.

«Bobo, qani ushlab bergin!» «Qo'ya ber, o'g'lim, ushlab berayin»,-dedi. «Yo'q, yotgan yeringda ushlab berasan!»-dedi. «Turmasam, qaytib ushlab beraman»,-dedi. «Esa meni nimaga buncha urasan?» Qultoy xam zaxar chol edi. Yotgan yerida bir «qur-xayt» tortdi: to'qson to'qaydagi yilqi yig'ilib qoshiga etdi. Xamma yilqilar jam bo'lib, jam bo'lib turibdi. Dobonbiy bobosidan qolgan qo'riqni Xakimbekning qo'liga berdi. Xakimbek qo'riqni qo'liga oldi. Bu qo'riqni yilqilarga solmoqchi bo'ldi. «Saman soriga tush, yo olapocha to'riga tush, shapaqning zo'riga tush»,-deb qo'riqni soldi. Yollari eshilgan ipakday bir chipor otning bo'yniga tushdi. Ko'nglidagi bo'lmay, otdan ko'ngli to'lmay: «Ko'p nozik uchradi»,-deb, bu otni qo'yib yubordi. yana qo'riqni soldi-tag'i shuning bo'yniga tushdi.

«Taqdirdagi shul ekan-da»,-deb belbog'ini otining bo'yniga solib, egar-abzalining qoshiga yetaklab kela berdi. egar-abzalining qoshiga borib, uyoq-buyog'ini ko'ra berdi. ...Qaldirg'ochoyim xam kanizlari bilan kela berdi. Akasining tarziga qaradi. Akasining ...otdan ko'ngli to'lmay, xafa bo'lib turganini bildi. Otning tizginini akasining qo'lidan olib, sag'risini silab, uyoq-buyog'iga qarab: «Xafa bo'lma, bu oting, balki tulpor chiqar, yomon dema. Bul oting nazarkardadir. Buni mingan odam ko'p yerlarni ko'radi, maqsadini xaqdan topib qoladi»,-deb akasining ko'nglini ko'tarib, «Qullu bo'lsin» qilib, bir so'z aytib turgan ekan:

O'zi shunday kelgan ekan chovkar ko'k,

Quyrug'idan berisinda kiri yo'q,

Minganlarga bo'ladakan ko'ngil to'q,

Buni minsang, aka, senga dushman yo'q.

...Chibar ot o'ynatib bundan borasan,

Buni minsang aka, yo'lli bo'lasan.

...shunday qilib, kiyintirib, keskir qilichlarni beliga boylab, Arpali ko'lidan otlana berdi. Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchdan bo'lgan parli yoyi bor edi. «Mabodo, dushmanning yurtida yoy tortishadigan kun bo'larmi, odam bilmaydi, kerak bo'p qolarmi»,-deb yoyni egarning qoshiga solib oldi. Qaldirg'och akasini otlantirib, ot-anjomini choqlab, yaxshi bor deb, bul so'zni aytib turdi:

Qayda borsang, shoximardon yor bo'lsin,

O'nikimom (O'nikimom-o'n ikki imom, islom dinining asoslarini ishlab chiqqan imomlar)., chilton (Chilton-qirq avliyo) jilovdor bo'lsin.

Dushmanlaring ko'rsa, seni xor bo'lsin

Sog' borib, salomat kelgin, bek og'a.

Eshitgin, quloq sop aytgan nidoga,

Ishingni solganman qodir xudoga,

Sog' borib, salomat kelgin, bek og'a.

Xudoyim saqlagay bandani omon,

G'arib qulga egam bo'lgay mexribon.

Qolsanilla duo qildim bul zamon,

Sog' borib, salomat kelgin, Alpinjon.

El ko'chirib, Olatovdan oshirdim,
Uluglanib, ostonaga bosh urdim,
Borgin, emikdoshim, Xaqqqa topshirdim...

yaqinlari bilan xo'shlashib, yurtidan chiqqan Alpomishga shoximardon pir va qirq chiltonlar xamisha xomiylik qiladi. Chiltonlar qalmoqqa borishning birinchi kechasida charchab uxlab yotgan Alpomish ruxini Barchinniki bilan uchrashtiradilar. Alpomish, Qorajon va Barchinga tushlari vositasida kelajak taqdirleri bildiriladi.

...Alpomish cho'ponlarning qo'shxonasida uxlab yotdi. Kechasi fayzi saxar vaqtiga etdi. Saxar vaqti cho'ponlarning qo'shxonasida yotib bir tush ko'rdi. Izlab borayotgan Barchin yori xam baxmal o'tovda yotib, subxi sodiq tuqqan vaqtda bir tush ko'rdi. Kashal g'orida, to'qson qalmoqning ichida Qorajon alp xam bir tush ko'rdi. Uchovining tushi oldin-keyin, do'g'ilish ko'rdi. Avval Alpomishning tushi:

...Mast uyquda yotib edi bu shunqor,
Ko'ziga ko'rindi rasul payg'ambar.
Bu so'zlarni rasul payg'ambar aytdi:
«Adashgan ummatim, shafqatdoringman,
Tanib qolgin: rasul payg'ambaringman,
Ummatlarni mudom yo'lga solurman».
...»G'am ema, ummatim,-dedi payg'ambar,
-Ostida dulduli, belda zulfiqor,
Jilovida Bobo Qambar jilovdor,
G'amingda otlandi shoximardon pirlar.
G'ayratingdan bo'zlab ketar qalmoqlar,
Xech kim bo'lmas, sening bilan barobar,
Senga taqdir qildi Barchin zulfakdor»...

Bu so'zni yotgan yerida ma'lum qilib ketdi. erta-mertan tong otdi. Barchin xam ko'rgan tushini Suqsuroy kaniziga aytib turibdi:

Jon jasaddan bir beqaror bo'lganda,
Ziyon yotib, raxmat toshar bo'lganda,
Raxmat daryo ayni toshib kelganda,
Tush ko'ribman fayzi saxar bo'lganda.
Qibla betdan bir oy tug'ib keladi,
Oyning girdin to'rtta yulduz oladi,
Tushimning ta'biri qanday bo'ladi?
Bu tushni ko'rgandir menday mushtipar,
Er yuzini tutib ketdi aydaxar...

Bul so'zni Barchindan eshitib, Suqsuroy kanizi tushining tabgirini aytib turibdi:

Qibla betdan bir oy tug'ib kelsalar,
Oy emasdir, ul xam rasul payg'ambar.
Oy girdida to'rtta yorug' yulduz bor,
Yulduz emas, to'rt choriyor muqarrar.
Er yuzini turib ketsa aydaxar,
Mag'ribdan Mashriqqa kulli eranlar...

Bog'onog'i tush ko'rgan Qorajon qalmoq nomoz vaqti o'rnidan kalima aytib turdi. Qorajonning kalima aytib turganini bir kam to'qson alp ko'rib: «Oshpichoq, qalampir, Qorajon tentak bo'p qopti», -deb, bir kam to'qson alp: «Ot tort», -dedi. Ko'lga qarab ovga chiqib ketdi. Bul Alpomish tarafga qarab boryapti.

Qorajon Murodtepaning ostiga kelib qoldi. Shunday tepaning boshiga qaradi. Tepaning boshida Yusuf tal'atli, Rustam sifatli, chovkar otli birov yonboshlab yotibdi. «Bu bizning Qalmoq viloyatining odami emas, bunday yigitlar ...bo'lsa, beklikda, podsholikda bo'lar edi. Ilgaridan xam bir-da-yarim ko'zim tushar edi. Magar qirq chilton bilan rasul payg'ambar meni musulmon qilib, qavm-qarindoshini tushimda ruxima ko'rsatib, meni

do'st qilgan, Qo'ng'irotdan kelayotgan Alpomish degan komilbachcha shul bo'lmasa», -deb Alpomishga qarab, bir so'z deb turgan ekan:

Ostingda bedoving xalloslar qushday,
Achchig'ing chillali muzlagan qishday.
Norkalla kelgansan, chuydang (Chuyda-bo'yin sirtidagi yo'g'on tomir) qo'shmushday.
Norkalla polvonim, qaydin bo'lasan?
Tepaning boshida senga qarayman,
Borar joying menam sendan so'rayman.
...yangi bunda ko'rdim senday mardimni,
Qorajon deydilar mening otimni,
Baland bildim sening siyosatingni,
Xabar ber, bekbachcha, qayda borasan?
Qorajondan bu so'zlarni eshitib, Alpomish xam
Qorajonga qarab bir so'z deb turgan ekan:
...Yoz bo'lsa, yaylovim Amu yoqasi,
Meni bilsang, Qo'ng'irotdan elning to'rasi.
Ko'kqamish ko'lidan suqsur (Suqsur-urg'ochi g'oz). uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo'laman.
Boyligidan bedov otni boylagan,
Tangqa taylab, (Tangqa taylab-mollarni yoyib) Olatovni jaylagan,
Kambag'ali qirq ming gala (Gala-suruv) xaydagan.
shul galada bizning bir moya (Moya-urg'ochi tuya) kelgan,
Moyaning yo'qchisi-nori bo'laman.
...Asli Boysin deydi mening yurtimdi,
Laqabim-Alpomish, otim-Xakimdi...
Qorajon deb xabar berding otingdi...

...Qorajon aytdi: «Men seni ko'rganim yo'q. Sening bilan xamsuxbat bolganim yo'q. Men xam xotiningga talashib yotgan to'qson alpning biri bo'laman. Qulfi dilimni xudo ochdi-musulmon bo'ldim. Qirq chiltan bilan rasul payg'ambar qavm-u qarindoshingni tushimda ko'rsatib, sen bilan meni do'st qildi. Ul sababdan bilaman». «Do'st bo'gan bo'sang, yaqin bo'p qolgan ekansan, tepaning ustiga chiqqin, ko'rishaylik». Qorajon aytdi: «Bu tepaning ustiga chiqadigan kamolga yetishganim yo'q. Sen tepadan tushgin, men ko'rishayin». Alpomish otini yetaklab tushib kela berdi. Qorajon maxramlariga amr qildi: «Do'stim bilan ko'rishgin», -deb. Maxram xalqi nozik keladi, qo'l uchida ko'rishayotir. «Qalaysan?» -deb, siqinqirab yubordi, maxramlarning panjasi bir-biriga yopishib, qapishib, yanchilib ketdi-yu. Qorajon bilan Alpomish yoydi quloqchdi, ikkovi xulqi muxabbat bilan ko'rishdi. «Qalaysan, do'stim, omonsanmi?» -deb siqinqirab yubordi. Qorajonning yetti qobirg'asi sindi, ishi tindi, tappa tushib yotib qoldi. Alpomish aytdi: «Nima qildi, do'stim?» Qorajon sir bermagan kishi bo'lib: «Bola kunda (Bola kunda-bolalikda). tutadigan quyonchiq (Quyonchiq-tutqanoq)) kasalim bor edi. Shul vaqt tutib qoldi», -dedi. Alpomish aytdi: «Belgili kasal bo'lsa, tuzalib ol esa». Qorajon aytdi: «Rostingni aytgin, shul ko'rishganingmi yo urishganingmi?» Alpomish aytdi: «Nima qildilaring-urishaman. Ko'rishganim edi». «Ko'rishganing shul bo'lsa, urishganing qanday ekan?»...

Qorajon bilan tanishib, do'stlashgan Alpomish unikida mexmon bo'ladi va do'stini Oybachin xuzuriga xabarchi xamda sovchi qilib jo'natadi.

Qorajon turib aytdi: «Qani, Barchin, Alpomish bo'lsa-keldi, alplarning muxlati bo'lsa-bitib qoldi. Sen nima javob aytasan?» Barchin aytdi: «Alpomish kelsa, keptida. Alpomish kepti deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bul alplar xam umid bilan olti oyga muxlat bergan. Xar kim maydonga ot soladi, otini o'zdirgan odam oladi. Xar kimning o'z ko'ngli o'zida qoladi. Mening to'rt shartim bor. Shul to'rt shartimni qilgan kishiga tegaman. Xoxi Alpomish qilib olsin, xoxi qalmoqlarning biri qilib olsin. Shul so'zimni xon to'ramga aytib bor», -deb bir so'z aytib turgan ekan:

Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi,
Botirni ingratar nayza yarasi.
Kelgan bo'lsa Qo'ng'irotdan elning to'rasi,
Qirq kunlik yo'l Boboxonning orasi.

Boboxon tog'idan poyga qilaman,
Ko'zdan yoshni munchoq-munchoq tizdirsa,
Qo'shqanotning quyrug'ini so'zdirsa,
Boboxondan poyga qilib o'zdirsa,
Oti ildam boybachchaga tegaman.
Mendayin oyimning xolin bilganga,
Osha yurtdan (Osha yurtdan-uzoq yurt) mexnat tortib kelganga,
Dushmanlarga qora kunni solganga,
Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,
Men tegaman shul yoyandoz polvonga.
G'anim ko'rsa, qiyomat kun solganga,
Osha yurtdan izlab xalak bo'lganga,
Ming qadamdan tanga pulni urganga,
Men tegaman shul qirag'ay merganga.
Sabash bo'lsa, bul shibanib (shibanib-shaylanib, tayyorlanib) chiqqanga,
Kurash qilib to'qson alpni yiqqanga,
Men tegaman nor bilakli polvonga.
Zog' xam bo'lsa, qo'na bersin gulshanga.
Bab-barobar qildim yaxshi-yomonga,
Men tegaman to'rt shartimni qilganga.

Bu so'zlarni Barchindan eshitib... Qorajon otlanib borayotib edi. Bir kam to'qson alp kelayotib edi, Qorajonning oldidan chiqib qoldi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh turib aytdi: «O'zbekning qizining muxlati bitdi. Uchradingmi, nima javob aytdi?» «O'zbekning qiziga uchrab kelayotirman. O'zbekning qizining aytgan so'zi shul bo'ldi: «Poyga qilaman, otini o'zdirganga tegaman. Kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman. Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman. Ming qadamdan tanga pulni urganga tegaman»,-dedi.

Bul so'zni eshitib, Ko'kaldosh aytdi: «O'zbekning qizining ko'ngli menda. Poyga bo'lsa, o'zib kelmoq Ko'kdo'nanning tani. Kurash bo'lsa, to'qson alpning barini qo'ymasdan yiqmoq faqirning tani. Yoy tortishganda xam mening yoyim sinmay qoladi. Ming qadamdan tanga pulni ursin deпти, besh yuz qadamdan tanga pulni uraman. Ming qadamga borgan so'ng, chog'lab qo'yib yuboraman, bu yog'ini mujmaltob qilib olaman. Sen bu ostingdagi olachani qayoqdan olding?»-dedi.

-Qo'ng'irotdan Alpomish do'stimiz kelgan ekan, bul shuning oti.

-shul yurtdan shul otni minib, xotin olib ketaman deb, axmoq bo'lib yuribdimi?

Ko'sa sinchi degan sinchisi bor edi, sinchisiga aytdi: «Tushib, o'zbekning otini ko'r qani». Tushib, Boychiborni ko'rdi, qarichlab ko'rdi: sag'risining ustidan qulog'ining o'rtasigachayin to'qson olti qarich chiqdi, ayil tortuvi oltmish uch qarich chiqdi. Sag'risini silab, burnidan naycha qo'yib, durbin bilan qarab ko'rdikim, qo'ltig'ida to'rt yarim gaz qanoti taklam-buklam bo'lib yotir.

-Qanday ekan o'zbekning oti?-dedi.

-O'zbekning oti anday(Anday-juda zo'r.) ekan. O'zbekning qiziga burilmay qo'yag'o'y»,-dedi.

Bu so'zni eshitib, Ko'kaldosh alpning achchig'i kelib: «Mendan biror vaqtda sen jodirim(Jodirim-jabr ko'rgan) bo'lib, o'zbekni ilgaridan xam ko'rib, o'zbekka yo'liqib, siyosatga otimni ta'rif qil deb, senga uch-to'rt tanga bergan ekan-da, choqdan biron narsa olib ta'rif qilding»,-deb achchig'i kelib, sinchining ikki ko'zini o'yib olib qo'ydi. «Xamma vaqt o'zbekning oti mening otimdan o'zganda, ko'zingning xunini beraman. Yuringlar, Alpomishning ustiga boramiz»,-dedi.

Alpomish chodirda o'tirib edi, shunday qaradi: xar qalmoqlar kelayapti kallasi kapaday, tanasi tepaday, butlari selanglab otning ostiga aymashib ketgan. Alpomish o'tirgan yerida siyosat bilan qaradi. Bir kam to'qson alp otdan tappa-tappa tashlab, qo'l qovushtirib, ta'zim qildi. Aqli shoshib, dabgiridan adashib(Dabgiridan adashish-aqlidan adashish, esini yo'qotish.) qoldi. ...Qalmoqning yurtidan Barchinning poygasiga to'rt yuz to'qson to'qqiz ot bo'ldi. Boychibor bilan to'ppa-to'g'ri besh yuz bo'ldi. Poygachilar xar kuniga ot sovutib, yolg'on poyga qo'yib keladi. Boychibor otlarning changini xam ko'rmay qoladi. «O'yinda o'zgan, chinda o'zadi»,-degan gap bor. Xazil poygada otning changini ko'rmay qoladi. Chin poyga bo'lgandan so'ng qanday keladi?»-deb qalmoqlar bog'onog'i ko'r bo'lgan sinchiga izza beradi.

...Xamma poygachilar jam bo'lib, Alpomishning tanidan Qorajon poygaga bormoqchi bo'ldi. ...Poygachilar yo'l yurdi.

...Zil tog'ida bir aydaxar boridi,
Aydaxarga alp Qorajon doridi.
Bunda yotgan aydaxarni ko'radi,
Ot tizginin munda tortib turadi.
Aydaxar xam Qorajonni ko'radi,
Qorajonga aydaxar salom beradi.
(shoir so'zi shunday yolg'on bo'lami?
Aydaxar odamga salom berami?)
Ostida mingani Boychibor edi,
Minganlarga qutbi zamon(Qutbi zamon-zamonasining avliyosi) yor edi,
Jilovida chiltan, pirlar bor edi,
Pirga salom bergan aydaxar edi...
...Ostidagi Chibor otin o'ynatib,
Qorajon chiqdi Zil tog'ining ustiga.
...Qalmoqdan ilgari ketib boradi.
Ko'rinmaydi qalmoqlarning qorasi,
yaqin qoldi Boboxonning orasi.

Boboxon toqqa etib, Qorajon otga dam berib yotdi. ...Qalmoqlarning oldi xafta-o'n kun deganda Boboxon tog'iga etdi. Keyini chuvalib, xali xam kelayapti...

Ko'kaldosh boshliq qalmoqlar Boychiborning ildamligi va poygada yutishi aniqligini bilib, nomardlik yo'lga kiradilar. Kimsasiz tog'da Qorajonni bog'lab tashlab, Boychiborning tuyog'iga mix qoqishadi.

...Bari qalmoq bu o'rta oladi,
Qorajon yolg'iz-da nima qiladi?
Bu qalmoqlar ko'plik qilib turadi,
Qalmoq bari xasta ko'nglin xushladi,
Qorajonning bilagidan ushladi.
O'ldirmoqqa ko'zi qiymay turadi.
Necha so'zni bu qalmoqlar o'yladi,
Qorajonni kulaband (Kulaband-echilmaydigan qilib, maxkam bog'lash)qip boyladi.
Xarchand chirpinib ko'rdi Qorajon nomdor,
Qalmoq ko'p-da, bo'lolmadi barobar.
Xazon bo'lsa, bog'da gullar so'lar deb,
Ajal etsa, paymonasi to'lar deb,
Bo'shalsa, bir kuni o'zi borar deb,
Shug'mut(shumg'ut-shum, buzuqi) bo'ldi bu juvarmak o'lar deb,-
Bosh bo'lib Ko'kaldosh boylab tashladi.
...Boylovli qolgandir Qorajon nomdor,
Boychiborni o'rta oldi qalmoqlar.
Xar tarafdan unga arqon soladi,
Boychiborni endi yiqib oladi.
Boychiborni shunday tortib boyladi,
Oyog'idan o'rab, kerib tayladi.
Axmoq qalmoq otga zulm qiladi,
Tuyog'iga gulumixlarni uradi,
Urgan gulumix yalpoq tizga keladi.
Chinqirib kishnaydi boylovli Chibor,
Siyosatman zarb ko'rsatdi qalmoqlar.

Qorajon bilan Boychiborni shunday qilib boylab tashladi: «...bo'shalsa, bir kunlari borag'oyar, ajali etsa, o'lag'oyar, ishqip, bizdan keyin qolsa bo'пти»,-deb, poygachilar jam bo'lib, qator turib, poygani qo'yib, jo'nab

ketdi. Boboxon tog'ida yolg'iz qolib, Boychibor bilan Qorajon ikkovi boylovli yotib, avliyolarni shafe keltirib, bu so'zni aytib yotir:

...Oblo, sendan boshqa yo'qdir murabbiy.
...Karimsan, samadsan, rasuling barxaq,
Raxm aylab yor bo'lg'in nochor qullara.
...Bu so'zlarni aytib yig'lar Qorajon
Boychiborman munda qolib, bul zamon.
Armonman boylangan Boychibor edi,
Bek Alpomish o'z yurtida qo'l bergan
Rajabxo'ja degan piri bor edi.
Falak titrar Qorajon nolishiga,
Banda ko'nar Tangri qilgan ishiga.
Boboxonda yig'lab edi Qorajon,
Rajabxo'ja piri etdi qoshiga.
Karomatman kelib xabar oladi,
Qorajonning qo'lin chechib qo'yadi...

Qorajon turib, otning oyog'ini yechdi. Ot o'rnidan turdi. eshonning ruxunati otning sag'risini siladi, qalmoqlarning solgan sovuni jiyirilib erga tushdi. ...Qorajon otning ustiga mindi. Ot oyog'ini bosolmay turdi. ...Eshonning ruxunati Qorajonga ko'rinmaydi, otning to'shida turib, Qorajonga bir so'zni aytdi:

Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Boshing eson davlatingni kam dema,
Jabr qilgin menday xayvon joniga,
Qamchi urgin go'sht ko'targan soniga,
Etkizarman Boysun-Qo'ng'irot xoniga,
Qoldim deb, Qorajon, sira g'am ema.
Qorajonbek, eshit aytgan so'zimdi,
Egarqoshdan ushlab yumgin ko'zingdi,
Endi bilsang, mendan xizmat lozimdi...

...Xaqning yashiniday Chibor boradi,
Qalmoqlardan to'sat-to'sat qoladi,
Besh yuz otning biri bo'lib boradi.
O'zgan otni sanar Qorajon nomdor,
Qo'qib-burkib borayotir qalmoqlar.
...Necha otdan Chibor o'tib boradi,
O'tgan otni sanab ketib boradi,
Otlarning xisobin Qorajon oladi.
Alp Qorajon otga qamchi uradi,
Bir kecha-bir kunduz chopib boradi.
shunday bo'lib borayotir Boychibor,
To'rt yuz oltmish otdan o'zdi jonivor.
...Jonni sotib Chibor ketib boradi,
Qorajonbek shunday bo'ylab qaradi,
Mildiragan bir qorani ko'radi,
Ols yo'ldan otni qichab boradi.
Taqimida besh yuz botmon kaltagi,
Qayqayib boradi badbaxt Ko'kaldosh.
Alp Ko'kaldosh shunday burilib qaradi,
«Chu!»-deydi Do'nanga qamchi uradi,
yashinday bo'p oqib ketib boradi.
«Qani endi etib ol!»-deb boradi.
shopirib (shopirib-katta qadam tashlab.)jirg'iydi nazari Chibor,
«Chu!»-deb qamchi urdi Qorajon qaysar,

Quvib u Do'nanga etdi Boychibor.
shamolday g'uvullab etib boradi,
Ko'kdo'nanning sag'risidan oladi,
Keyin qarab siltab otib yubordi.
Ancha yo'lga borib tushdi Ko'kdo'nan,
Qirq ming qadam o'tib ketdi Boychibor.
yana xam o'zini o'ng'ardi Do'nan,
Chiborning keynidan etdi ul zamon.
Qarsillatib dumg'azadan oladi,
Ustida Qorajon bilmay qoladi.
Keyin qarab siltab otib yubordi,
Ancha yo'lga borib tushdi Boychibor,
O'n ming qadam o'tib ketdi bu tulpor.
O'zini o'ng'arib Chibor keladi,
Ko'kaldosh ilgari ketib boradi.
...Ikkovi barobar yo'lda boradi,
Bir-birini musht tashlashib uradi.
Biri-biroviga mushti tekkanda,
Tog' cho'qqisi qulaganday bo'ladi.
Qorajon qaytmaydi, navbat oladi.
Gox yerlarda qamchilashib, savashib,
Ko'p xarxasha qilar aqili shoshib.
Bedov otlar borar yo'lda talashib,
Borayotir bir-biriman tishlashib...

«Bularning kelar muddatidan o'tdi», -deb Alpomish bir baland tepaning ustiga chiqib, durbinini olib, shunday yo'lga qaradi. Ko'rdi ikki ot yo'lda yo'l talashib kelyapti. Birini durbini bilan tanidi: Ko'kdo'nan. Boychibor to'riqday bo'p ko'rindi. Tuyog'idagi mixlar ozor bergan, oppoq ko'pikka botgan, tuyog'idan chiqqan to'zon bilan to'riqday bo'p qotgan. Boychiborni tanimay: «Xam otimdan, xam yurtimdan ayrildim», -deb bexush bo'lib yiqildi. Barchin kelib, Alpomishning xolini ko'rib, yiqilganini ko'rib, boshini tizzasiga olib... Barchin xam durbin olib qarab, kelayotgan otlarga qarab, bir so'z aytib turgan ekan:

Qurruyo-qur xayt-a, to'ramning oti,
Oq toshim-yayloving, sochim shibirtki.
Kuyganimdan gapni gapga ulayin,
To o'lgancha sayising bo'p yurayin.
Egam raxm aylasin qonli yoshima,
Sabab bo'lib qo'shgin teng-u to'shima.
Qurru yo-qur xayt-a, to'ramning oti!
«Qur xayt!» -degan Barchinoyning dovushi
Boychiborning qulog'iga boradi.
Suvluq tishlab o'zin otdi Boychibor,
Kalta qantarib tashlagandi qalmoqlar,
Tizgini uzilib ketdi muqarrar,
Ustidagi alp Qorajon bexabar,
Ko'kdo'nandan o'tdi endi jonivor.
...Alp Ko'kaldosh otga qamchi uradi:
«Bul o'zbakning oti o'zib boradi,
Bul Qorajon bir baloni qiladi,
Ukam menga dushman bo'lib boradi».

Xonning Chibor oti poyganing oldini olib, shashti bilan kelib, baxmal o'tovni yetti marta aylanib, otning tizginini ushlab Qorajon to'xtatdi. Barchinning kanizlari yig'ilib etdi. Qorajonni otning ustidan olib, gilamning ustiga solib, bardor-bardor qilib ko'tarib, baxmal uyga kirgizib ketdi. Qizlar otni yelpib sovutib turibdi, opkep yakka mixga boyladi, teri qotdi. Barchin kep otni ko'rdi, ko'zlarini ipak ro'mol bilan surtdi, changi, terini

ushatdi. Oyog'idagi mixlar ozor berib, xonning Chibor oti tappa tushib yotdi. Tuyog'idagi mixlarni ko'rib, Barchin bir so'z deb turibdi:

Mening uchun xayvon azob ko'ribdi,
shu mix bilan Boboxondan kelibdi,
Po'latni eritar qizlarning dami.
Barchinoyim ko'rib, o'ylab turadi,
Urgan mixi yalpoq tizga boradi.
Chorsisini tuyoqqa yozib soladi,
Gulmixlarni tishlab sug'urib oladi...

Bu so'zni aytib, otga mexribonliklar qilib, banot to'rvaga yerni ilib, ko'chib borgan qo'ng'irotlar jam bo'lib, yig'ilib, poyga ketgan qalmoqlar xam kelib, bir kam to'qson alp gurullashib turib, «Alplar bilan o'zbakning polvoni yoy tortishar emish», -deb ovoza bo'lib, xamma tomoshamonlar1 yig'ilib, shunda Oyna ko'liga, Chilbir cho'liga tomoshamon to'lib, yoyandozlik qilmoqchi bo'lib, bu yoy tortishmoqdagi so'zi:

...Olis yo'lga nishonani quradi,
Nishonani urgan odam oladi.
Qalmoq alplar bari qator bo'ladi,
Men urarman deydi, ko'ngil qiladi,
shiqirlatib endi yoyni tortadi.
Yoyni o'qi bul g'uvullab ketadi,
Biri pastdan, biri baland ketadi...
Ko'kaldoshga endi navbat etadi.
Yoyiga Ko'kaldosh o'qni soladi,
Nishonaga qarab to'g'ri qiladi.
«Bor urdim», -deb, endi yoyni tortadi,
Qo'lda yoyi cho'rtta sinib ketadi.
Endi navbat Alpomishga etadi.
Parli yoyni shunday qo'lga oladi,
Ko'rgan qalmoq bari xayron qoladi.
«Rabbim!» -deydi, endi yoyni tortadi,
Nishonaga o'qi to'g'ri ketadi.
Ming qadam yerni qadamlab ko'radi,
Tanga puldan bul nishona qiladi,
Yoyni qo'yib, miltiq otmoq bo'ladi.
Ko'p deb qalmoqlarga navbat beradi.
Qalmoqlar nechovi miltiq otadi,
Saksonman to'qsonga o'qi etadi,
Qaysi otsa, yo'lda qolib ketadi..
Alp Ko'kaldosh shunday ko'zlab ko'radi,
Besh yuz qadam yerga o'qi boradi.
Ko'kaldoshning ko'nglidagi bo'lmadi.
Alpomishga tag'in navbat keladi.
Bek Alpomish xasta ko'nglin xushladi,
Anjom, miltig'ini qo'lga ushladi,
Qarab nishonani otib tashladi.
Ko'rib, bul qalmoqlar xayron qoladi...

Uch shart o'tdi. Kurash taraddisini qip yotibdi. O'n ming uyli Qo'ng'irotdami, qancha qalmoqning odami yig'ilib, Chilbir cho'liga, Oyna ko'liga tomoshamon to'lib, qo'r tortib o'tirdi. ...Ko'kaldosh bosh bir kam to'qson alp bir tarafdin qator bo'lib o'tirdi. Alpomish bilan Qorajon bir tarafdin o'tirdi. Qalmoqlar aytdi: «O'zimizdan chiqib, Qorajon xam balo bo'ldi. Mudom o'zbakning yonini oldi». Bu yoqdan Qo'shquloq degan alp maydonga kirdi.

...Qorajonning bir akasi bo'ladi,
Taraf bo'p Qo'shquloq polvon jo'nadi.

shomurti shoxalab xar yoqqa ketgan,
Ichida chichqonlar bolalab yotgan.
Izdan tushgan pishak oltoyda etgan,
Munday qalmoq qo'lin bulg'ab keladi.
Qorajonbek xasta ko'nglin xushladi,
Juppay qilib yoqasidan ushladi,
Dustaman(Dustaman-yuztuban) qip uni qoqib tashladi.
Qo'shquloqning endi aqili shoshdi,
Qumni qopib, endi yerga yopishdi.
yana xam bir qalmoq kirdi maydonga:
Odam tushmas(Tushmas-tushunmas) buning aytgan tiliga,
Besh yuz quloch arqon yetmas beliga.
Bul qalmoqdir qalmoqlarning ravishi,
Ox ursa, olamni buzar dovushi.
To'qson molning terisidan kavushi,
Siyosatman kelib maydonga turdi.
Qorajon tavakkal Tangriga qildi,
Bu qalmoqqa endi yaqinlab qoldi.
Kurashmoq xadisin shunday biladi,
Alp Qorajon yotibotar qiladi.
Angl edi ul, sho'rli bilmay qoladi,
Boshidan oshirib yerga uradi.
Tushib yerga pora-pora bo'ladi.
Achchig'lanib, tag'i qalmoq keladi,
Qorajonning ishin bari ko'radi.
Qorajonga pirlar quvvat beradi,
«Xudo!»-deydi, bul maydonda turadi.
...G'urullashib, qolgani ko'tarilishdi,
Qorajonbek yolg'iz qiladi ishdi.
Ikkam to'qson alpni nobud qiladi,
Bul alplardan bir Ko'kaldosh qoladi.
Alp Ko'kaldosh yolg'iz o'zi qolibdi,
Qorajon bariga g'olib kelibdi,
Kun nomozgar, endi kech bo'p qolibdi,
Kurashga ul zamon javob bo'libdi.

shunda ketgan tomoshamon bari yig'ilib: «Kechagidan xam bugun qiziq bo'lar, alplarning zo'ri olishar», - deb turdi. Kecha qanday bo'lsa, bugun xam shunday bo'p o'tirdi. Qorajonga Alpomish turib aytdi: «Bugun tushmaysanmi maydonga, bugun talab qilmay turibsan?» «Bugun xam tush desang, tushaman. Tushgan bilan bundan omon topmayman, lekin bu xaddili zo'r. Bunga tushsam, ikki boshdan o'laman», -deb turibdi. Alpomish chechinib: «Xayr, unday bo'lsa», -deb maydonga talab qila berdi. Ko'kaldosh alp turib aytdi: «O'zbek! Sen bunday bo'yni yo'g'onlik qilma, g'aribi go'riston bo'lib o'lma. Xali xam qo'ygin. Xalak bo'p kelgan yo'lingdan qolma...» Bu so'zni eshitib, Alpomish Ko'kaldoshga qarab bir so'z deb turgan ekan:

Xar kim o'z eliga bekmi, to'rami,
O'zi o'lmay, kishi yorin berami?
Buncha so'zni lof urmagin, sen qalmoq,
Kel endi, maydonda turgin, ey axmoq.
...Bog'bon bo'lsam, qizil gulni terayin,
Xar na qismat yozilganin ko'rayin.
Kelgin, qalmoq, birga maydon qilayin,
Nasib etsa, sening doding berayin...
Bu so'zni Alpomish aytib turadi,
Achchiqlanib, bul Ko'kaldosh turadi.

Chechinib, shu zamon belini buvip,
Minorday bo'p bul maydonga kiradi.
...Ikkovi kep belma-bel bo'p oladi,
Belma-bel olishsa, ayrit(Ayrit-ajrim, ora ochiq) bo'ladi,
Zo'r deganing ma'lum bo'lib qoladi.

O'n ming uyli qo'ng'irotning qizlari bilan, Barchin kanizlari bilan tomosha qilib, bularning olishganini ko'rib, Xakimbekka qarab bir so'z deb turgan ekan:

Qizlar sizni narmoda deb aytadi,
Qizlarning aytgani menga botadi.
Mardlar olishmaydi siltab otadi,
Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi,
Bo'sh odamning ishi'keyin ketadi.
Bu so'zlarni aytdi gul yuzli dilbar.
Ikki polvon bo'lib turdi barobar.
Ko'p so'zlarni Barchin suluv aytadi,
So'zi Alpomishga botib ketadi.
O'tdayin tutashib shunqor ketadi,
G'ayrati g'ayratga bekning etadi.
Yor so'ziman sherdil bo'lib ketadi,
Chirpab Ko'kaldoshni ko'kka otadi,
Ancha yer xavoga chiqib ketadi.
Xaloyiqlar ko'kka boqib qaradi,
Olchi-chikka bo'lib, shunday aylanib,
Alp Ko'kaldosh bul osmondan keladi,
Kallasiman kelib yerga uradi,
shunday qilib Ko'kaldosh xam o'ladi.

...Baxmal o'tovda chimildiq tutib, kuyov navkarlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo'lib, bir necha xotinlar «kampir o'ldi» bo'lib, o'lganiga bir nima olib, «it irillar» degan rasmini qilib, bunda xam bir nima berib, xar zamon salom solib, uydan ichkari kirib, chimildiqqa o'tirib, oldiga dasturxon solib, ...kuyov navkarlarga to'ppi, ro'mol, sarpoylar berib, kuyov navkarlar chiqib ketdi. Barchinni bekning... qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, «chach siypatar», «qo'l ushlata»ini qilib, bir necha yangalar xar qaysisi o'z mazgiliga ketdi.

...shunday bo'p bul orada qirq kun o'tdi. Qirq kungacha maslaxat qip yotdi. Qirq kundan keyin maslaxatni bir yerga qo'yib, Boysari qoldi. O'n ming uyli Qo'ng'irotni Barchin bilan ketmoqchi bo'ldi. ...o'n ming uyli Qo'ng'irotni bari ko'chib, yo'lga kirib, Boysari qaytib uyiga kelib, yolg'iz qolib, kallasi g'uvullab, musofirligi asar qilib qoldi...

RUSTAMXON

Zamoninda, Oqtosh viloyatida Sultonxon degan o'tdi. Sultonxonning uch zaifasi bor edi, tug'maydigan aybi bor edi. Necha vaqt Oqtosh mamlakatida podsholik qildi, yoshi qaytib soqoli oqarib qoldi... Hademay o'rtanchasi - Huroyim degan zaifasi homilador bo'ldi. Sultonxon Huroyim yoriga aytdi: Dunyoda "bir qo'rqqan yomon, bir quvongan yomon" degan gap bor. Men shu yerda yursam, sen bir kun tug'ib, men quvongandan yuragim yorilib o'lib qolarman. Qurudim mamlakatiga safar qilayin. O'n to'rt yilda borib kelarman, oldima suyunchi deb chiqqan ki-shiga ayamasdan tanga-tilla berarman, balki qo'rg'onbiy qilarman.

Shunda ketmakka ixtiyor qilib taxti-baxtini kimga topshirarning hisobini topmay, amalini, davlatini hech kimga ishonmay, hayron bo'lib, qozikalonlardan so'radi. Qozikalonlar aytdi: Huroyimning bo'yida bir homila gumona bo'lsa, o'g'il bo'lsa ham o'g'il, qiz bo'lsa ham o'g'il. Gumonaning tufaylidin mamlakatni Huroyim so'ramog'i to'g'ri keladi. Sultonxon taxti-baxtini Huroyimga topshirib, karnay-surnay qo'ydirib, odamlarni yig'dirib, jo'namak harakatida bo'ldi. Sultonxon o'tlanib, Huroyimga qarab, murtini burab, uzangiga oyog'ini tirab bir so'z aytayotir: Men ketgan so'ng uydan chiqib o'tirma, Do'st yig'latib, dushmanimni kuldirma. Bir yetar-etmasga sirim bildirma, Men qanday so'rasam shundayin bo'lgin, Dostonni 1937- yilda baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li tilidan Xodi Zarif yozib olgan

Oqtoshga ega bo'b podsholik qilgin...

Sultonxon jo'nadi shahardan chiqib,

Qancha odam mahramlari jam bo'lib.

Cho'llarda ostiga mingani tulpor,

Xizmatida olti yuz mahrami tayyor,

Qancha sipohi ham adadsiz lashkar,

Shavkati olamni bosib boradi...

Shunday bo'lib, yo'l yurib Qurudim mamlakatini yoqalab chodir-chaman tikib qo'ndi.

Bu yerlar, tevaragidagi ellar, necha qo'rg'on so'rab turgan beklar Ugandan bir-biriga ma'lum: goh Sultonxonga boj berib, goh bermay qaytib turar edi. Bu mam-lakatning amaldorlari Sultonxonga borishli-kelishli bo'lib yotdi... ,Oqtosh mamlakatida Huroyim podsholik qilib ichkarida arz so'radi. Ximcha degan kanizi bor. Ximcha - tiliari bulbulcha, kimki yaxshi desa, shuncha, ikki yuzi ochilgan gulcha, bellari xipcha, o'zi suluv oyimcha. Ximcha oyim tashqarida arz so'radi. Huroyim Oqtosh mamlakatida Sultonxondan ziyoda ish tuta berdi. Huroyimning ish tutuviga ikki kundosh bezovtalik qilaberdi. Vaqti yetib, oyi bitib, Huroyim o'g'il tug'di, otini Rustam qo'ydi. Rustam birga, ikkiga, uchga kirdi. Tilga enganda madrasadan bir mulla olib kelib, o'qitib yotaberdi. "Zamon Huroyimniki bo'ldi" deb, ikki kundosh nima qilarini bilmay o'y o'ylar edi. Oqtosh viloyatida daftari mastondan uch yuz oltmish mastoni bor edi, bosh-lig'ini Momogul maston der edi, mazgili shahardan tashqari bir g'orda edi. G'orda yotar edi, xurrakni baland tortar edi, botmon nosvoyni to'rt bo'lib otar edi, yurish-turishi odamlarga xatar edi, ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi, yaxshilikni uch pulga olmay, qaeda yomonlik bo'lsa, izlab yetar edi, qanday odam ko'rsa, bu kampilardan hazar qilib uzoqqa ketar edi, yomonlik izlab borgan odamning ishi mastondan bitar edi. Ikki oyim Momogulni ko'ngliga olib, so'roqlab borib qoldi. Huroyimning ustidan bir so'z aytib turgan ekan:

- Eshit, momo, oyimlarning tilini,

Vayron qilsang bunda Oqtosh elini,

Xazon qilgin tar ochilgan gulini,

O'lsin deymiz Huroyim ham ulini,

O'zgalardan sizni yaxshi bilaman,

Xizimatingga bir qop tilla beraman,

Vayron qilgin Oqtosh mamlakatini,

Nima desang, xizmatkoring bo'laman.

Bizga dushman bilmaganin bildirgin,

Xanjar urmay bag'rin qonga to'ldirgin,

Mamlakatdan buni benasib qilib,

Huroyim ham yolg'iz ulin o'ldirgin.

Ikki kundosh Huroyimdan qutulish uchun Momogul maston bilan til biriktiradilar. Maston tilla tangalar evaziga Huroyim ustidan fitna-g'iybat to'la arznoma yozdiradi, firib bilan Oqtosh ahliga tasdiqlatadi va Sultonxonga olib boradi. Sultonxon g'azabga minib, o'zi safardan qaytguncha Huroyimni shahardan haydab, dorga osishga buyuradi, Jallodlar Huroyimni dorga osmoqchi bo'layotganlarida Rustam jallodlarning dodini berib, onasini qutqaradi. Rustam boradigan yerining tayini yo'q, enasini otga mindirib, to'ilarini ergashtirib, "Adashganning oldi yo'l", deya yo'lga tushadi. Ular yo'l yursa ham mo'l yurib, Hukumu tog'iga yetib boradilar, shu yerda qo'nim topadilar...Rustam tog'-toshda ov qilib keladigan, enasi esa pishirib beradigan bo'ldi. Bir kuni Rustam enasi va tozilarini qoldirib, zarur anjomlar topish uchun yo'l tortdi. Ko'zi tog' bag'ridagi o'tovga tushdi. Ot ustida o'tovning bo'sag'asidan qaradi. Ko'rdi: ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilguday, har kim husnini ko'rsa, aqli ketib, otdan yiqilib qolguday. Ikki qo'li orqasiga boylangan, spchidan uyning keragasiga' boylov turibdi. Rustam ko'rib hayron qoldi. "Shunday odam ham ovloq bir cho'lda, ko'z ko'rmagan yerda boylabKeraga - o'tovning chetanga (to'qima devor) o'xshatib ishlangan devor tashlaydigan ham gaplar bor ekan-da! Kel-e, o'ylab turguncha so'ylab bilayin",- deb Rustam bir so'z aytib turgan ekan: Alifday qomating, xipcha belingdan, Menga bayon ayla o'sgan elingdan, Xabar olmay hech kim sening holingdan, Bu yerlarga qanday nomard boyladi? Boylaganni menga bayon aylagin!

Qanday odam qildi qayg'u-zulmni,
Xafa qipti senday toza gulimni,
Otdan tushib yechayinmi qo'lingni?
Boylaganni menga xabar ber endi.
Maloyik suratli, gul yuzli dilbar,
Seni ko'rgan odam bo'lar beqaror.
O-yu kundan ziyod sening husning bor,
Ne qildi seni boylab giriftor?
O'z yurtingda biror ishni qildingmi,
O'lim ishga duchor bo'lib qoldingmi,
Bir tuhmatga sen giriftor bo'ldingmi,
Xabar bergin, qanday nodon boyladi?
V-Menga aytsang o'ynab-o'sgan yurtingni,
Nima deydi sening ismi-zotingni,
Menga aytsang sen ham siru holingni,
Javob bersang, yechib qo'yay qo'lingni.
Qiz bu so'zni eshitib, Rustamga javob berib, boylovli turgan yerida bir so'z aytib turgan ekan:
- Meni so'rab bexos bo'lib turmagin,
Hayallama, ketgin, yo'ldan qolmagin,
Vahti zamon mening kunim bitgandir,
Ketgin, menday bo'lib bunda o'lmagin!
Dam-badam yetib kelar ajdahar,
So'ngra qochib qutulolmassan undan,
Hayallamay bundan ketmog'ing darker!
Kelsa mamlakatni to'zon qiladi,
Ishqirib damiga tortib oladi,
Kim yaqinda bo'lsa tayin o'ladi,
Sendayin yo'lbarsni nobud qiladi,
Hayallama, ketgin, bu yerda turma!
Bizning shahrimizni ajdahar olgan,
Uy boshiga bir qizdan soliq solgan,
Men boylandim, bugun navbatim kelgan,
Ko'p turmagin, ketgin bundan, begimjon.
Xayolingni bunda turib bo'lmagin,
Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin,
Sen mening husninga hayron qolmagin,
O'lib ketib ajdaharning damida,

Sen meni qoningga zomin qilmagin!

Bu so'zni qizdan eshitib, Rustam o'z boshini qutqarib, qizni tashlab ketgani ko'zi qiymay, ajdaharga bir begunohni bergusi kelmay, qizga qarab bir so'z aytib turgan ekan:

- Oh ursam to'kilar ko'zimning yoshi,
O'limdan qaytarmi, bilgin, mard kishi,
Bundan qo'rqib ketmoq nomardning ishi! .
Ushbu damdir, o'zga damni dam dema,
Ajdahardan sira meni kam dema,
Mushtiparsan, o'ladi deb g'am yema.
Qay tarafdanda munda kelar ajdahr,
Ajdahr yo'lini ko'rsatgin, dilbar,
Ajdahr deganing bitta ilon-da,
Bir ilonning nima ham quvvati bor?!
Elingning zaxirasini toza olibdi,
Zaharini butun elga solibdi,
Elingda yo'q ekan daf etgich odam,
Bir ilonga seni duchor qilibdi.
Hech zamonda shunday ishlar bo'larmi,
Ajdahr deb seni boylab berarmi!
Meni o'ladi deb, munglig', g'am yema,
Ko'rsatgin ajdahr kelar yo'lini.
Ajdaharga ko'rsatayin ishimni,
Yo'lingda berayin aziz boshimni,
Omon-eson ajdahardan qutulsang,
So'ngra borib ko'rgin qarindoshingni.

Qiz ilgari ajdaharni o'z ko'zi bilan ko'rgani yo'q, ajdaharning siyosati xalqning qilgan ta'rificha, Rustamning qaddi-jasadiga qarab, "yaxshi yigit ekan, o'lmasin", deb yana ham ko'proq qaytardi. Shunda ham Rustam: "Mard so'zidan, yo'lbars izidan burilmaydi, degan gap bor, ajdahr domiga tortadi, meni yutadi, deb vahm qilmayman, qayishmay ajdaharning yo'lini aytgin", dedi. Unda qiz ayldi: "Harchand zo'r urdim, bo'lmadi, sening ham ajaling yetgan ekan, kuning bitgan ekan,- deb bir qirni ko'rsatdi. - Ajdahr shu tarafdanda keladi",- dedi. Shunda Rustam qizning gapi bilan otiga qamchi urib, boyagi ko'ndalang qirning ustiga chiqdi. Qarasa, ajdahr ko'zi olovdek yonib, ishqirib, har tarafga o't sochib, tog' ustidan Charxinko'lga tushib kelayotgan ekan. Haybat bilan kelayotir ajdahr, Yaqinladi Rustambekday zo'rabor, Ajdahr chopinib damga tortganda, Langar to'kib Rustam o'zin to'xtatar. Hech narsani pisand qilmas ajdahr, Chiday olmay endi Rustam zo'rabor, Bir-biriga endi yaqinlab qolar. Na'ra tortib bunda Rustamday qaysar, Quvvatiman Rustam na'ra urganda, Rustamning tovushi ajdarga yetdi, Bu tovushdan uning qulog'i bitdi, Ko'targan boshini yerga tashladi, Jiyirib quyrug'in o'ziga tortdi. Ajdahr behushdi, Rustambek bildi, Qilichni chiqarib qo'lga oldi, Haybatli ilonning qoshiga bordi, Uonning boshiga qilichni soldi. Haybatidan qo'rqmay Rustam ish qildi, Ajdaharni qaysar Rustam o'ldirdi. Dushmani o'ldirib ko'nglin xushladi, Qirq bir g'o'la qilib kesib tashladi. Bir g'o'ladan oldi uzun bir tasma, "Ajdahr belgisi" dedi, jo'nadi. Rustam qaytdi ajdaharni o'ldirib, O'tovdagi qizning qoshiga yetdi. U qiz ko'rди: Rustam keladi omon, "Ajdaharni ko'rmabdi", deb, mushtipar Ko'nglidan kechirdi ana shu zamon. Rustam qizning oldiga borib, ishonar belgisi deb ajdahardan olgan tasmani tashladi. Qiz ajdaharning terisidan olingan tasmani ko'rib, ajdahr o'lib. o'zining omon qolganini bilib quvondi. Ajdarho zulmidan qutulgan Bujul shahri va uning shohi Rustamni shohlikka ko'taradilar va Oftoboyimni unga Jo'y qilib olib beradilar. Rustam Bujulda uch kun podsho bo'lib turadi. So'ngra enasi va tozi itlari yoniga qaytadi...Oqtosh mamlakatidagi ikki kundoshi Rustam va Huroyimning tirik ekanligi daragini eshitgach, yana shum kampirni ishga soladilar. Shum kampir Bahra tog'iga kelib, Oqrabotga kiradi. Huroyimni lindonband qilib, uning qiyofasiga kiradi va dev yordami bilan Rustamni o'ldirmoqchi bo'ladi. Qizil dev shunday yigit bu shum kampirning o'g'li emasligiga aqli yetib, kampirning o'zini oidirib, Rustamni qutqaradi. Rustamni Oftoboyim parvarish qiladi, Huroyimni zindondan qutqaradi. Vtar Bahra tog'ida baxtli yashay boshlaydilar. Rustam va Huroyim haqidagi haqiqatni bilgan Sultonxon o'z gunohini yuvish va ulardan ajv so'rash ilinjida qalandar qiyofasiga kirib, yurt kezadi, qirq qalandarga qo'shiladi, o'g'li va Huroyimni qidiradi...Ka'ba izlab bundan ketib boradi; Karri xarj qolgan yerda gadoylik qildi. Xarjili bo'lganda

qichab yo'l yurdi... Sultonning dardini ular bilmaydi, Ka'ba deydi, yurar yo'ldan qolmaydi. Shunday qilib necha shaharni ko'rdi, Ulfatlarman har yerlarda o'tirdi, Sultonxon dardini endi gapirdi: - Yaproqday titraydi qalandar joni, Men qalandar, biling, Oqtoshning xoni, Izza qildi debon zinhor koyinmang, Mendayin gadoning yolg'iz o'g'loni. Shularning ishqida bo'ldim xor-zor, Daragini bilib bo'ldik qalandar. Ka'ba bilan ishim yo'qdir, ulfatlar! Mening Ka'bam, ko'rdim, u yerda tayyor! Mendan bilsang ko'p xatolik o'tgandir So'zlaganim yo sizlarga botgandir, Sizlar ko'nglingizga og'ir olmangiz, U gaplarni asli menga aytgandir. Oti Rustam, o'zi nor kalla qo'chqor, Men shuning ishqida bo'ldim qalandar; Ka'ba ketsang, borabergin ulfatlar, Qaytib borsam mening Ka'bam topilar. Necha kunlar bo'ldik birga ham yo'ldosh, Bir-birimiz bilan bo'lganmiz sirdosh. Men qaytaman endi kelgan yo'limga, Qayga borsang borabergin, qarindosh Bu so'zni aytib, bir-biriman xo'shlashdi. Qirq qalandar ketdi Ka'baga qarab, Sulton yurdi bir shaharni oralab. "Qani mening borsam joni-dilim, deb, Chamanda sayragan u bulbulim, deb, O'ldirsa o'ldirsin yolg'iz ulim" deb, Tag'i qaytib, Bahra toqqa jo'nadi... Shunda yo'l yursa ham mo'l yurib, bir o'zi telpagi qayqayib, tag'i bir kun Oqrobotga borib qoldi. Rustam ovda edi. Sultonxon eshagini bog'lab, sarhovuzning bo'yiga tushib edi, Oftoboy hovuzga suvga chiqdi. Bu qalandarni ko'rdi: belida kamarlari tilladan: qaddi-jasadi kelbati Rustamga keladi. Shunda qalandar-ga qarab, Oftoboy bir so'z aytib turgan ekan:

- G'am bilan sarg'aydi guldayin diydor,
Bir nechalar ahvolidan bexabar,
Bu manzilga kelib qo'ngan, qalandar,
Xabar bergil, kimda sening ishing bor?
Beliga yarashgan zarrin po'tasi,
Ko'p bo'ladi aytgan so'zning xatosi.

Siz bo'p yurmang bizning xonning otasi,
Xabar ber, qalandar, qaydan kelasan?
Qora zulfim eshilgandir tol-tol,
Qalandar, bu aytgan so'zga quloq sol,
Dushman kelsa, bunda bo'ladi poymol,
Bir qalandar, bobo, qaydin kelasan?..

Bu so'zni eshitib, Oftoboyga qarab, boshini ko'tarib, Sultonxon bir-ikki og'iz so'z aytib turgan ekan

- Dardim ko'pdir, kim biladi ishimni,
Qo'limdan qochirdim olg'ir qushimni.
Ko'p yurdim, yetmadi bemahal o'lim,
Qaysi bir gulshanga ketdi bulbulim,
Shu ko'ylarga soldi qodir xudoyim,
Xarob bo'lib qoldi u manzil-joyim,
Havoga davr olib bo'z qarchig'ayim,
Shu gulshanga qo'ndimi deb so'rayin.

Bu so'zni eshitib, Oftoboy bildi - Rustamning otasi ekan:

- Maydon bo'lsa bedov otlar chopilar,
Chopib kelsa banot jullar yopilar,
Men ham bildim yo'qchi bo'lib kelibsan,
G'am yema begijon, yo'g'ing topilar.
Ko'tar yuragingdan qayg'u vahimni,
Ko'rarsan izlagan qarchig'ayingni.
Qayta boshdan obod qilsang joyingni.
G'am yema, begijon yo'g'ing topilar
Ko'rib sizni ketdi ko'nglim jo'shib,
Bir-biringdan necha vaqtlar adashib,
Endi kepsan bunda izlab yonashib.
Adashganning barin qo'ysam bir qo'shib,
G'am yemagin izlaganing topilar.

Oftoboy ko'zasini to'ldirib, uyga qaytib Huroyimning qoshiga bordi. Oftob aytdi: "Bular bir-biridan ko'ngli qolishib yurgan odam. Agar aytsam, sira ham bunda ergashtirib kel, deb aytmaydi. Agar shu vaqtda Rustam

ovdan kelib qolsa, men unday-bundayman, deganiga quloq solmaydi, chopib tashlaydi. Nima bo'lsa, enasi-ning qoshida ko'rsa, enasini Kurniat qilib zarar yetkaz-mas", - deb bu gaplarni ko'ngliga olib, uyni supirib-sidirib to'shanchi solaberdi. "Bu nimaga sertaraddud bo'lib yuribdi", - deb Huroyim qarasa, Sultonxonni iyartib (ergashtirib) kelyapti. Huroyim ko'nglida aytdi: "Bu birga yurgan yor edi, bizlarga ko'p zulmni qildi, oxiri pushaymon bo'lib, bosh egib keldi. Rustamga tavba qildi. Oradan necha vaqtlar o'tdi. Oftoboyning bu yelib-yugurishiga qaraganda, Rustam otasini tog'dami, ovdami ko'rib, tag'i qaytib kelsa, jo'natmay xizmat qilib turasan, degan ekan-da; Rustamdan bexabar bunday ishni qilmasa kerak edi". Sultonxon Huroyimga salom berib, bosh egib turdi. Oftoboy uni ichkariga kirgizdi, ko'rpachaga o'tqizdi. Huroyim ham kirib o'tirdi. Ikkovi hol-ahvol so'rab, boshidan o'tgan kulfatni gapirib, bir-biridan o'pka qilib, Huroyim Sultonxonni uyaltirib, Oftobxon xizmatda bo'lib turib edi, Rustam ovdan kelib qoldi. Rustam Oftoboyga qarayman deb ichkariga ko'zi tushdi. Rustamning hushi boshidan uchib, xayoli qochib, qilichga qo'l uzatib, ... ichkari kiraberdi. Qalandarni ko'rib g'ayrati keldi, G'ilofdan sug'urib qilichni oldi. Yaqinladi qalandarning qoshiga, Xanjar solmoq bo'ldi uning boshiga. Huroyim shu zamon o'rnidan turdi:

- Bolam! - deb qaytardi Rustamday uldi,

- Tavba qilib o'zi axtarib keldi,

Chopib tashlab, bolam, senga ne bo'ldi?

Qanday bo'lsa, qo'zim, manmanlik qilma,

"Rustam otasini chopibdi", degan

Lanqa (ta'na) gapni, qo'zim, o'zingga olma.

Xazon bo'lib, bog'da gullar so'lgandi,

So'lgan gulga bulbul kelib qo'ngandi.

, Buncha ham darqahr bo'lma, Rustamjon,

Qurudimga ketgan otang kelgandi(r).

Qanday farzand otasiga tig' tortar. ;

Egilgan bo'yinni kesmaydi xanjar.

- Enasi Rustamga nasihat aytar,

Shu zamon Rustamning bo'g'ni bo'shadi,

Enasining so'zi bilan bek Rustam,

Qo'lidan qilichni yerga tashladi.

Turib edi ong-tong bo'lib Rustamxon,

Boshidan ketganday qorong'u tuman,

Ingranib o'rnidan turib shu zamon-

- Bolam,- deb bag'riga bosdi Sultonxon,

Omon-eson endi o'g'lmi ko'rib,

Yuragidan ketdi qancha g'am-armon.

Adashganlar bir-biriman topishdi,

Necha kun, necha tun orada o'tdi, Rustamga Sultonxon bu so'zni aytdi:

- Quloq solgin xon otangning tiliga,

Qo'zim, ketayik-da Oqtosh eliga,

Bundayin sen yolg'iz joyda yurmagin,

Bu yolg'iz makonda, qo'zirn, qolmagin,

Borib ko'rgin Oqtosh mamlakatingni,

Bino bo'lib, o'ynab-kulgan yurtingni.

Necha so'z Sultonxon bunga aytadi,

Qayta-qayta ko'p va'dalar beradi.

O'z ishiga tavba qildi Sultonxon,

Oqtosh elga bormoq bo'ldi Rustamxon.

Oqtosh ketmoq taraddudin qiladi,

Ot-ulovin bu abzallab minadi,

Yov-yaroq, darkorlisini olib,

Hammasi ham Oqtosh qarab jo'nadi.

Chiqib ketdi bundayin Oqrabotdan,

Yo'l boshlab boradi endi Rustamxon;
Bahra tog'dan o'tib yo'l yurib ketdi,
Adadsiz cho'llarni ko'p bosib o'tdi...
Oqtoshga yaqinlab, yetib boradi.
Borayotgan xabar Oqtoshga yetdi,
"O'g'li bilan keldi Sultonxon,- deydi.
Qancha amaldorlar peshvoz chiqibdi. .
Qancha xaloyiqlar ko'nglini xushlab
Rustamni kirgizdi shaharga boshlab.
Shunday qilib keldi Oqtosh shahriga,
Kelib tushdi shohning o'rdalariga.
Rustam bilan ko'ring endi enasi,
Ega bo'ldi qolgan kirdikoriga.
Kanizlarman qolgan u Ximchaoyim
Zolimlar dastidan yig'lagan doim,
Turib manzilida bular eshitdi:
"O'g'li bilan kelgan emish Huroyim.
Rustam Huroyimni ko'rmoqqa keldi,
Qancha xaloyiqlar bunda yig'ildi,
Bir-birining ahvolini so'radi,
Bunda bo'lgan ishni Rustam bilmadi.
Huroyim nazar sop shunday qaradi
Hamma keldi, ikki kundosh kelmadi.
Sultonxon ikkovin shunday o'yladi:
Bulardan o'zgani dushman bilmadi,
Amaldorlar bilan maslahat qilib,
Bir nechaga sir bilgin, deb so'yladi.
So'ragandan bir kun anig'in bildi,
G'aznavonlar so'ragancha gapirdi:
To'rt qop tilla ikki kundoshga bergan,
Ikki kundosh olib, mastonga bergan,
Mastonman birikib shu ishni qilgan.
Endi Sultonxon ikki xotinini chaqirtib oldi.

- Bularning qilgan ishi'mamlakatni buzib, qancha sarsonlikni soldi, - deb ikki xotinni haydatib,
miring'azablarga shunday buyurdi, deydi:

- Gunohkor ikkovi, qo'lin boylanglar,
Turmasin, shahardan darrov haydanglar;
Kim yomonlik qilsa, jazosin ko'rsin,
Hech tirik qolmasin, ikkovi o'lsin.
Xaloyiqni yig'ib endi Sultonxon:
- Omon-eson Rustam elga keldi, deb,
Yurtinga farzandim ega bo'ldi, deb
Xaloyiqni xabar qilib yig'dirdi,
Qancha so'qim, qancha qo'yni so'yirdi,
Necha yerdan endi o'choq o'yirdi;
Vaqti xush bo'p Oqtosh elda Sultonxon,
O'g'li uchun elu xalqqa to'y berdi.
- Rustam bolam yurtga ega bo'lsin, deb,
Podsholik navbatin Rustam olsin, deb,
Elni endi Rustam so'rab tursin, deb
Elu xalqqa shunday xabar bildirdi.
Podsholikni Rustam qabul qilmadi,

Zo'rlagan gaplarga quloq solmadi,
- Ovda-dovda, ko'p yuraman dalada,
Podsholik saltanat menga nimada:
O'z yurganim menga endi bo'ladi.
Podsholiging menga ma'qul bo'lmadi.
Otam tirik, so'raybersin yunini.
Cho'l-u ko'lni kezib o'zim yuraman,
Yurishimni shohdin ziyod bilaman.
Otam zo'rlamasin, ko'nnglim bilar-da,
Otam o'lsa, bir yo'rig'i bo'lar-da,
Podsholik ishlari bir og'ir yuk-da,
Meni qo'ysin, o'zi so'rab turar-da.
Besh kun unda, o'n kun bunda yuraman,
Mening ko'nnglim bahodirlik qilaman,
Yomon topsam, jazosini beraman...
Sultonxon qancha gapirdi, Rustam:

"Men podsho bo'lmayman", - dedi. Sultonxonning o'zi tag'i o'z yurtida podsholikda qoldi. Rustam o'z yori Oftoboy bilan o'ynab-kulib, bu ikkovi Huroyimning duosini olib, Rustambek: "Men botirman", deb polvonlik, botirlikni mashq qilib yuraberdi. Shunday qilib, Huroyim ham, Rustamxon ham murod-maqsadiga yetdi.

